

**REPUBLIC OF UZBEKISTAN MINISTRY OF HIGHER AND
SECONDARY SPECIALISED EDUCATION**

**NAMED AFTER ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
ANDIZHAN STATE UNIVERSITY**

FACULTY OF FOREIGN LANGUAGES

**THE CHAIR OF PHONETICS AND LEXICOLOGY OF
ENGLISH LANGUAGE**

(5111400-English language and literature)

**Theme: Lexical and frazeological features of speech style in Uzbek
and English languages.**

GRADUATION PAPER

**Presented by the student of the 4th-course of the 411th group of the chair
of “English phonetics and lexicology” Odilova G.**

Supervisor: Egamberdiyeva I.

**Graduating paper was discussed in the chair of phonetics and lexicology
of the English Language, statement № 7 30 may 2014 year**

Andizhan – 2014

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БОБУР НОМИДАГИАНДИЖОН
ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ХОРИЖИЙ ТИЛЛАР ФАКУЛЬТЕТИ
(5111400-Инглиз тили ва адабиёти йўналиши)

Инглиз тили фонетикаси ва лексикаси кафедраси

**МАВЗУ: «Инглиз ва ўзбек тилларида сўзлашув услубининг лексик ва
фразеологик хусусиятлари».**

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

Бажарди: “Инглиз тили ва адабиёти” таълим йўналиши битирувчиси
4-курс 411-гуруҳ талабаси
Одилова Г.

Илмий рахбар: Эгамбердиева И.

Битирув малакавий иши кафедрада дастлабки химоядан ўтди
7 сонли баённомаси 30 май 2014 йил

Андижон-2014

MUNDARIJA

Kirish.....	5-8
I Bob. Ingliz va o'zbek tillarida uslubshunoslik va uslub tushunchalari.	
1.1. Ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuv stili va uning ususiyatlari.....	9-34
1.2. Uslubiyat tarixi va uning kelib chiqishi.....	35-37
1.3. Ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuv uslubi.....	38-43
II Bob. Lug'aviy va iboraviy birliklar.	
2.1. Ingliz va o'zbek tillarida leksik va frazeologik birliklar.....	44-49
2.2. So'zlashuvda leksik-frazeologik birliklarning vazifalari.....	50-75
2.3. Frazeologizmlarni uslubiy qo'llash	76-84
Xulosa.....	85-87
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	88-89

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'ZLASHUV USLUBINING LEKSIK
FRAZEOLOGIK XUSUSIYATLARI**

REJA:

Kirish

I Bob. Ingliz va o'zbek tillarida uslubshunoslik va uslub tushunchalari

1.1. Ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuv stili va uning ususiyatlari

1.2. Uslubiyat tarixi va uning kelib chiqishi

1.3. Ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuv uslubi

II Bob. Lug'aviy va iboraviy birliklar

2.1. Ingliz va o'zbek tillarida leksik va frazeologik birliklar

2.2. So'zlashuvda leksik-frazeologik birliklarning vazifalari

2.3. Frazeologizmlarni uslubiy qo'llash

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning 2010-yil «Barkamol avlod» yili deb e'lon qilinishi, biz kabi yoshlarga yuksak e'tibor qaratilganligiga yaqqol misol bo'la oladi. Zero Prezidentimiz ta'kidlaganidek «Ta'lim tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda jahon tajribasi va hayotda o'zini ko'p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyatli amalgam oshira olsak tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi» portlash effektiga, ya'ni, yangi ta'lim modelini kuchli samarasiga erishamiz degan fikrni bildirganlar [2, 8].

Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan barcha shart – sharoitlarga ega bo'ldi. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari, oily o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb – hunar va ilmiy – ma'rifat sirlaridan voqif bo'lish, hozirdanoq ikki – uch tilda bemalol gaplasha oladigan, ming – minglab o'quvchilar hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida orzu intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz” [3, 61].

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi. [1]

Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqirig'ida so'zlangan nutqida (14 aprel 1999) yana kadrlar tayyorlash milliy dasturiga murojat qilib, quyidagi fikrini bildirgan edi; Oliy Majlis IX sessiyasida qabul qilingan kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturini amalgam oshirish, hayotga tadbiiq etish, hech bir mulohazasiz, strategik maqsadlarimiz farovon, qudratli, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishimizning asosi bo'lmog'i lozim” [2,61].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda fanning roli o'sib borayotganini ko'ramiz. Shunday qilib, pedagogik – filologik fanlar turkumi oldiga didaktika, matn nazariyasi, tarjimashunoslik (va boshqalar) yangi aoslarini ishlab chiqish vazifalari qo'yilgan.

Shu munosabat bilan Prezidentimiz Islom Abug'anievich Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida (29- avgust 1997–yil) ushbu o'ta dolzarb muammoni o'rta ta'lim tashladi; «Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishning milliy asosdagi jadallashtirilgan metodikasini tayyorlashni tezlashtirishimiz kerak» deya ta'kidlab, bizni hozirda ilmiy ishlar bilan muntazam shug'ullanib turishga da'vat etib kelmoqda [3, 34].

Men ham hurmatli Prezidentimiz Islom Abug'anievich Karimov bildirgan yuksak ishonchdan foydalangan holda, bitiruv malakaviy ishimda aynan shu maqsadlarimni amalda isbotlashga harakat qilaman.

Chuqur bilim olgan va yaxshi tarbiya ko'rgan komil insonni, kelajagimiz egasini voyaga yetkazish uchun "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingandan so'ng respublikamiz butun ta'lim tizimini tubdan isloh qilishning aniq strategik yo'nalishlariga ega bo'ldi. Xalqaro andozalarga javob beradigan bu hujjatlar ta'lim tizimi zimmasiga dunyo ilm-fani yutuqlaridan yaxshi xabardor, xalqimiz nomidan jahon miqyosida baralla so'z ayta oluvchi, O'zbekiston sha'nini ulug'lashga qodir farzandlarini kamol toptirishdek g'oyat mas'uliyatli vazifa yuklanmoqda. 1997-yil 6-oktabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi Farmoni bilan bu masala davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi.

Mazkur hujjatlarda Dasturni uch bosqichda amalga oshirish ko'zda tutiladi. Birinchi, o'tish davridagi bosqich 1997-2001-yillarga, ya'ni 4 yil davomida joriy etish mo'ljallandi. Bu bosqichda ta'lim faoliyatidagi ilg'or tajribalarni saqlab qolgan holda uning rivojlanishi uchun huquqiy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Bilim olishga, erkin tafakkur qilishga imkoniyat vujudga keldi. Hozirgi paytda jahon miqyosida sodir bo'layotgan integratsiyalashuv, turli soha fanlarini jadallik bilan rivojlanishi, yangi kashfiyotlar natijasida bilimlar ummonining yanada chuqurlashib, kengayib borishi kuzatilmoqda. Jadal sur'atlar bilan kechayotgan o'zgarishlar bilimlar o'zlashtirilishini yana ham jadal olib borish kerakligini taqozo etadi. Hozirda, O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan erkin aloqa qilishi hamda rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi uchun chet tillarga bo'lgan ehtiyoji kuchayib bormoqda. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik hamkorlarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini kutayotgan xalqimiz uchun xorijiy tiilarni mukammal bilishning ahamiyati go'yat kattadir. Shuning uchun, ingliz tiliga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Shu sababdan Prezidentimiz 2012-yil 10-dekabr 18-75 qarori bilan "Chet tillarini yanada takomillashtirish va rivojlantirish" qonunini ishlab chiqdi. Unga ko'ra barcha o'quv muassasalarida, jumladan maktabgacha ta'lim muassasalarida va maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tilini o'qitish, kirish imtihonlarida ingliz tilini joriy etish belgilab qo'yildi. Bu esa o'quvchi yoshlardan chet mamlakatlar tajribasidan keng foydalanishlarini, ular madaniyatiga xos yaxshi xususiyatlarni egallashlarini talab qiladi. Shuning uchun o'quv muassasalari zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi. Chunki hozirgi paytda ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim omillardan biri texnik vositalardan foydalanishdir. Bu

oddiy proyeksion apparaturalardan boshlab kompyuter va videofilmlardan unumli foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Videoglaz, kodoskop, televizor, videokamera, Multimediali Elektron Darslik, uzoq masofadan o'qitish shular jumlasidandir. Bular dars sifatini oshirishga, dars faolligini ta'minlashga yaqindan yordam beradi.[1.15]

Zero bitiruv malakaviy ishning mavzusi «Ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuv uslubining leksik-frazeologik usullari» bo'lib, ular nutqiy faoliyatda doimo lisoniy shaklni voqeylik bilan bog'lash hamda unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirishni ifodalaydi. Xuddi shu vazifalar ijrosi stilistik vositalar zimmasidadir.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi vaqtda tilshunoslar matn tejamkorligi hamda matn mazmundorligiga katta e'tibor qaratishmoqda. Shu sababli har qanday matn tejamkorligi hamda, mazmundorligini oshirish uchun tilshunoslar tamonidan tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu mavzuning dolzarbligi deganda, biz leksik-frazeologik birliklarga asosiy e'tiborni qaratganmiz.

Badiiy matnlarda oldin eslatib o'tilgan so'z turkumlarini boshqatdan takrorlamaslik uchun, yoki, butun bir jumlaning boshqatdan takrorlab o'tirmaslik uchun leksik-frazeologik birliklardan foydalanish mumkinligi ko'zga tashlanadi. Buning natijasida esa, mazkur birliklar yordamida matn tejamkorligiga hamda matn mazmundorligiga erishish mumkinligi ishning asosiy qismida misollar orqali ko'rib chiqilgan.

Shu misollarga tayangan holda har qanday matn tejamkorligini va mazmundorligini oshirishda leksik-frazeologik birliklarga murojat qilish dolzarb masalalardan biri degan fikrdamiz.

Muammoning o'rganganlik darajasi. Shuni ta'kilash joizki, ushbu kungacha stilistik bo'yoqlar va tilning leksik boyligi haqida ko'plab olimlar turli xil fikrlarni aytib o'tishgan.

Ishning maqsadi. Mutaxassislariga ingliz tilining stilistik boyliklari, stilistik norma va uning variantlarini turli xil kommunikatsiya soxalarida qanday ishlatilishi haqida ma'lumot beradi. Ish vazifalariga shuningdek, ingliz tili vositalarining ishlatilishida uning milliy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurni shakllantirish hamda ingliz tili funksional stillari tizimining milliy xususiyatlari borasida ma'lumot berish xam kiradi. Ushbu ishda asosiy maqsadim o'zbek va ingliz tillarida so'zlashuv uslubining leksik va frazeologik ifodlanishi hodisasining uslubiy holatlarning hali yoritilmagan jihatlarini fanga tadbiiq qilish. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi nizomiga asoslanib, kelajakda yosh avlodni bilimni, yuksak intilishlari va bilim olishlarida kerakli qo'llanma etkazib berish va amalda ushbu ishni tadbiiq qilish.

Tadqiqot ob’ekti va predmet. Ushbu ishning asosiy ob’ekti bu tilshunoslik sohasida o’rganib kelayotgan leksik-frazeologik birliklarni uslubiy jihatdan qurulishi yoki strukturasi o’rganishdir. Bitiruv malakaviy ishning predmeti esa ingliz va o’zbek tillarida so’zlashuv uslubining leksik-frazeologik ko’rinishlarini batafsil o’rganish.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari. Bunda shaxs frazeologik va leksik birliklardan foydalangan jihatda ushbu mavzuni yanada boyitish. Islom Abdug’anievich Karimovning “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asarida ko’zda tutilgan maqsadlarni tadqiq qilish.

Tadqiqot metodlari. Bitiruv malakaviy ishida so’zlashuv uslublarini ifodalovchi vositalarning tilda tutgan o’rni va holatini o’rganishda leksik-frazeologik birliklar orqali ishora qilib kelishda bevosita uslublarga ajratish metodi, leksik grammatik maydon nazariyasi va metodidan foydalanish.

Himoyaga olib chiqadigan asosiy holatlar. Bitiruv malakaviy ishida so’zlashuv uslubida leksik-frazeologik ulublar holatlari va boshqa vositalardan foydalanish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Yuqorida aytib o’tilganidek, ingliz va o’zbek tillarida so’zlashuv usublari markazida leksik va frazeologik birliklar turadi. Uni ifodalash uchun biz albatta har ikki tilga murojaat qilamiz. Tadqiqotning maqsad va vazifalari bilan bevosita bog’liq bo’lgan ilmiy – nazariy mulohazalar hamda amaliy tahlillar jarayonida turli xil yangiliklarni kuzatishimiz mumkin.

Masalan olib qaraydigan bo’lsak uslubiyatni ifodalovchi vositalar frazeologik va leksik jarayonlar. Sintaksis strukturasi va bayon uslubining ishora vositalari, ularning mazmunga ta’sir ko’rsatishi yoki ko’rsatmasligi. Ajratilgan guruhlariga kiruvchi leksik-frazeologik vositalarning ilmiy nutq nuqtayi nazaridan baholash. Semantik – strukturaga xos baho beruvchi uslublarning ifodalanishidagi vositalar shaxs – sub’yektini oydinlashtiruvchi sifatida leksik va frazeologik holatlar o’rganiladi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur ishda ingliz va o’zbek tillarida gap strukturasiidagi elementlar leksik-frazeologik birliklarning sistem munosabatlari tahlil qilinadi. Bajirilgan tahlil, ya’ni sintaktik aloqalarni aniqlash gapda birliklar tarkibini aniqlab, ularni uslubiyat jihatdan umumiy nazariyasini yanada boyitishga, ega turlarning turli xil ko’rinishga ega ekanligi bilan, o’zining muayyan hissasini qo’shadi.

Ishdagi tahlil natijalari, nazariy va amaliy stilistika va leksika bo’yicha maxsus kurs sifatida yuqori bosqich talabalari uchun qo’llanmalar tuzishda foydalanish va tadqiqot materiyallaridan va natijalaridan lingivistik tahlil bo’yicha maxsus seminarlarda bir oz bo’lsada foydalanish mumkin deb o’ylayman.

Biriruv malakaviy ishimning asosiy strukturasi shundan iboratki: u kirish, asosiy qism, asosiy qism esa ikki bobdan iborat, xulosa, foydalanilgan adabiyotlardan ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 92 betni tashkil etadi.

I BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA USLUBSHUNOSLIK VA USLUB TUSHUNCHALARI

1.1. Ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuv stili va uning ususiyatlari

Nutqiy faoliyatda doimo lisoniy shaklni voqelik bilan bog'lash hamda unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ehtiyoji to'g'riladi. Xuddi shu vazifalar ijrosi ingliz va o'zbek tillarida leksik va frazeologik birliklar zimmasidadir. «Uslubiyat» tilshunoslik fanining bir bo'limi bo'lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi[4.5]

Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo'llanish yo'llari, fonetik, lug'aviy frazeologik va grammatik birliklarning qo'llanish hususiyatlari o'rganiladi.

So'zning tilshunos olimlar tomonidan farqlanadigan ikkita ma'nosi mavjud:

- 1) denotativ ma'no so'zning asl, tub ma'nosi hisoblanadi;
- 2) konnotativ ma'no so'zning ko'chma, qo'shimcha ma'nosidir. O'rtoqlaring bilan bir o'ynab kelgin, toychog'im. Bu misoldagi toychog'im so'zining denotativ ma'nosi o'tning bolasi ma'nosidir. Farzandga bo'lgan ijobiy munosabat ma'nosi esa konnotativ ma'nodir. Uslubiyatda ana shu konnotativ ma'no o'rganiladi.

Uslubshunoslik-stilistika terminining tarjimasini. Stilistika - grekcha «stylos» so'zidan olingan bo'lib, suyakdan qilingan uchli tayoqcha degan ma'noni bildiradi. Qadimgi greklar mum surtilgan taxtachaga shunday uchli tayoqcha bilan yozar edilar. Bu tayoqchanning tepa tomoni kurakchaga o'xshar edi. Xato yozilgan so'zni tayoqchanning kurakchaga o'xshagan tomoni bilan taxtachadagi mumni tekislash yo'li bilan o'chirar edilar va uchli tomoni bilan to'g'rilab yozardilar.

Stil so'zidan stilet – inglizcha hanjar va stilo – avtoruchka so'zlari kelib chiqqan.

Qadimdan stil so'zi «bo'g'in, nutq stili» ma'nosida qo'llana boshlangan. Goratsiyning «Agar sen o'qish uchun loyiq narsa yozmoqchi bo'lsang, stilingni tez - tez almashtirib tur.

Dunyoqarashi tor odamlarni qoyil qoldira olmasang, kuyinib o'tirma, ozgina bo'lsa ham tushungan odamlar bilan qoniq» deb yozib qoldirgan jummalari ichidan «stilingni tez-tez almashtirib tur» degan ifodasi keyinchalik greklarda maqolga aylanib ketgan. Demak, odamlarning ko'ngliga urmaydigan, foydali ma'lumot beradigan biror narsa yozish uchun stilni tez-tez almashtirib turish lozim ekan. Stil so'zining izohli lug'atlarda bir necha ma'nolari berilgan. 1935-1940 yillarda D.N.Ushakov tahririda nashr etilgan «Tolkoviy slovar russkogo yazika» kitobida stil so'zining 4 xil ma'nosi berilgan. Bu ma'nolar 1981 yilda chop etilgan «O'zbek tilining izohli lug'ati»da ham tarjima qilinib, izohlangan. Ular quyidagilar:

Stil 1 – biror san’at asarining, biror ijodkor, davr, millatning o’ziga xos belgilari yig’indisi. Masalan: Arxitekturadagi sharqona stil (naqshinkorlik, gumbazli binolar).

Ko’rinadiki, stil so’zining 1 – ma’nosi juda keng tushunchani ifodalaydi, ya’ni badiiy ifodalar yig’indisi yoki badiiy ifodalarning umumiy tizimi. Bunda adabiyot nazarda tutilmaydi.

Stil 2 – biror adabiy asar, adabiy yo’nalish, adabiy janr yoki biror muallifga xos bo’lgan g’oya va til vositalarining tizimi. Masalan: A. Qahhor stili, Oybek stili. Poetik stil, romantik stil va h.k.

Bunda fikr ifodalash stillari ham tushuniladi. Masalan: ko’tarinki stil, lo’nda stil va boshqalar. G’.G’ulomning «Sen yetim emassan» she’ri ko’tarinki stilda yozilgan. A.Qahhorning stili fosh qiluvchilik xususiyatiga ega. Uning asarlarida zaharxanda iboralar, maqol va matallar ko’plab uchraydi. Masalan: «Sinchalak» qissasida Arslonbek Qalandarov shunday deydi: «Sinchalak degan oyog’i ipday ingichka qush bor. U kechasi oyog’ini osmonga ko’tarib yotadi, osmon tushib ketsa, ko’tarib qolaman, deb. Saida esa unga javoban deydi: “Xo’roz ham «men qichqirmasam, tong otmaydi , der ekan.” «Mayiz yemagan xotin» hikoyasida fosh qiluvchi bunga o’xshagan jumlar juda ko’p.

Yozuvchi Oybekka esa keng ko’lamlilik xos masalan Oybekning “Navoiy” romanidan parcha: Shoir “Xiyobon ko’chasini o’tib,”Bog’ zag’on”ning katta darvozasiga etishi bilan bu yerda tartib kuzatib turgan navkarlar muhrdorga salom berib,darrov otning jilovidan ushladilar. Shoir klarning yordamisiz otdan tushdida, “Bog’ zag’on”ga kirdi. Bu –turli qasrlar, ko’shklar va boshqa go’zal binolar va ajoyib xiyobonlarga boy g’oyat katta bog’ edi. Daraxtlar oralab ketgan keng, toza va quyosh nurlari bilan ola chalpoq yo’ldan borib,bir necha tanob joyni ishg’ol etgan katta gulzorlarga chiqdi. Bu yerga go’yo butun dunyoning gullari to’plangan edi. Turli-tuman rang va ziyo bilan quyoshda yashnagan bu chaman ko’zlarni qamashtirardi. Navoiy gulni,rangni juda sevar edi.Har kungidek,to’xtab,zavq bilan tomosha qildi. Keyin bu chamanzor qarshisidagi koshonaga – devorlari, ustunlari, eshiklari naqqoshlar qo’li bilan yasalgan naqsh gulzorini tovlantirgan tomon yurdi. Oltin qubbachalar, o’ymakor gullar bilan bezangan eshikni ochib, kichikroq, lekin serxasham bir xonaga kirdi. Bu yerda uni do’sti Xo’ja Afzal qarshi oldi. Bu–past bo’yli, tiyrak ko’zli, xush muomila, qariyb o’zi bilan tengdosh kishi edi.

Stil 3 – ko’chma ma’noni ifodalaydi. Bunda xulq, axloqqa xos bo’lgan xususiyatlar yig’indisi, faoliyat metodi, biror ishni amalga oshirishning yo’l-yo’riqlari kabilar tushuniladi.

Stil 4 – bu ma’no adabiyotga ham, tilga ham xos emas. Bu davrga, yil hisobiga nisbatan ishlatiladi. Masalan: milodiy yil hisobi, hijriy yil hisobi. Stil so’zining ma’nolari bilan tanishishdan ma’lum bo’ldiki, 2 – ma’no bilan bog’liq holda stilistika fani vujudga kelgan.

Stilistika fanini o’rganish obyekti haqida turli qarashlar mavjud. Akademik V.V.Vinogradov stilistika bahsida bir – biri bilan aloqador, lekin vazifalari jihatdan

farqlanadigan 3 ta tekshirish aspektini ko'rsatish zarurligini aytadi. Ular quyidagilar:

1. Tilning funktsional stillarini o'rganuvchi stilistika. Bu struktural stilistika deb ham yuritiladi. Struktural stilistikaning vazifasi uning struktural elementlari bo'lgan rasmiy, ilmiy, publitsistik, badiiy stillarning o'ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalarini o'rgatishdir.

2. Turli janrlarning (semantik, ekspressiv – stilistik) ma'no va tez ta'sir qilish tomonlarini hamda og'zaki va yozma nutq orasidagi farqni tekshiruvchi nutq stilistikaci. Uning vazifasi tilning barcha stillar tizimi bilan birga yozma va og'zaki shakllari, adabiy va so'zlashuv nutqi ko'rinishlarini tekshiradi. U til birliklaridan qaysi biri yozma va og'zaki nutqda ko'proq ishlatilishi, fikr ifodalashda til vositalarining to'g'ri tanlangan yoki noto'g'ri olinganligi, shu vositalarni o'rnida ishlatish yo'llarini o'rganadi.

3. Adabiy yo'nalishlar, badiiy asar hamda yozuvchi stilini tadqiq etadigan badiiy adabiyot stilistikasi. Uning vazifasi badiiy asarlarni yaratishda yozuvchining ifoda vositalaridan foydalanish mahorati haqida bahs yuritishdir. Stilistika fani akademik V.Vinogradov ko'rsatgan aspektlardan birinchi va ikkinchisi asosida shakllangan. Uchinchisi adabiyotshunoslikning obyektidir. Aslini olganda, badiiy adabiyot stilistikasi uning bir ko'rinishidir. Bu tushunchaning alohida tur sifatida ko'rsatilishiga sabab shundan iboratki, u boshqa nutq stillaridan anchagina farqli jihatlarga ega. Badiiy adabiyot stili keng qamrovliligi, ya'ni barcha stillarni ham o'zida ifodalashi bilan ajralib turadi.

Demak, stilistika ikki xil ko'rinishga ega:

1. Nutq stilistikasi. Bu tilning vazifadosh shakllari deb ham yuritiladi. Bunga so'zlashuv stili, rasmiy stil, ilmiy stil, publitsistik va badiiy stil kiradi.

2. Lingvistik, ya'ni til stilistikasi. Uning turlari:

a) fonetik stilistika.

b) leksik stilistika.

v) grammatik stilistika.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy, so'zlashuv kabi nutq uslublari leksik, morfologik, sintaktik va boshqa belgilari bilan o'zaro farqlanadi. Ingliz tilida ham shunday.

O'zbek tilshunosligida uslublarni o'rganish, tilning stilistik resurslarini belgilash bo'yicha ayrim tadqiqotlar olib borildi. Buning natijasi o'laroq ilmiy asarlar va maqolalar maydonga keldi. Shular asosida o'zbek tili stilistikasi mustaqil fan sifatida shakllana bordi.

Stilistika bizning bilimimizni tilning funktsional aspekti va nutq uslublarning lingvistik muammolari, ularning o'zaro munosabati haqida bilimlar bilan boyitadi. Stilistika sof amaliy ahamiyatga ham ega: stilistikani o'rganish, uning tamoyil va qonun qoidalarini bilish nutq madaniyatini oshirishda muhim omildir. Shunga ko'ra, stilistika jamiyatning lingvo stilistik

madaniyatini oshirishga xizmat qiladi, til faktlariga baho berishga o'rgatadi, mazmun va aloqa situatsiyasiga mos til vositalarini tanlash ko'nikmalarini yaratishga ko'maklashadi.

Stilistika til vositalarining ekspressivlik belgisi, ularning nutq uslublariga xoslanish darajasini o'rganishi, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksisning sinonimik variantlarini aniqlashiga ko'ra milliy nutq madaniyatining nazariy asosini tashkil qiladi. Umuman, stilistika nutq madaniyatining ko'pgina murakkab va turli tuman masalalarini hal qilishning ilmiy asosidir. Nutq madaniyati ahamiyatining osha borishi stilistikaning nazariy va amaliy muammolarini mukammal o'rganishni taqozo etadi.

Tilshunoslikda, til va nutqning farqlanishi stilistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga olib keldi. V Kumboldt, Boduen de Kurtene, G.O.Vtnokur, L.P.YAkubinskiy, V.V.Vinogradov, N.YU.Shvedova, chex tilshunosligi maktabining vakillari va boshqa tilshunos olimlar nutqini o'rganish masalasiga katta e'tibor berdilar. Adabiy tilni o'rganish, uning normalarini belgilash zaruriyati tufayli nutqning ijtimoiy aspektiga, ayniqsa, rus va chex tilshunosligida muhim ishlar qilindi.

«Til-deb yozadi G.Vinokur,-faqat amaliy qo'llanishdagina tildir». Bunday qarash strukturalistlarning ham diqqatini torta boshladi. Rus, chex, ingliz, nemis va boshqa tillarda nutqni o'rganish keng tus oldi. Shu asosda lingvistik stilistika shakllandi va u keyingi yillarda bo'lib o'tgan katta-katta ilmiy anjumanlarning yo'nalishini belgiladi. Stilistikaning predmeti, metodlari, asosiy kategoriyalari, nutq stillarining klassifikatsiyasi, ekstralingvistik va lingvistik faktorlar, ularning o'zaro munosabati kabi qator masalalarga aniqlik kiritila boshlandi. Ilmiy tadqiqotlar ilgari asosan badiiy adabiyot materiallari asosida olib borilgan, hatto darslik va qo'llanmalar uchun ham faqat badiiy asarlar material sifatida xizmat qilgan bo'lsa, keyingi yillarda lingvistik tadqiqotlar uchun nutq uslublarining barchasi obyekt qilib olina boshlandi.

Nutqni faqat tilshunoslik o'rganmaydi. U psixologiyasining ham tekshirish ob'ektidir. Nutq jarayoni, ya'ni gapirish, eshitish, tilni bilish jarayonlari va buning psixo-fiziologik asoslari, nutqni qabul qilish, tushunish sharoitlari, nutqning ayrim o'ziga xos ko'rinishlari, ichki nutq, kishining individual taraqqiyotida, ayniqsa uning yoshligida nutqning shakllana borishi kabi masalalar psixologik tomondan o'rganiladi. Bu masalalarning ayrimlari tilshunoslarni ham qiziqtirsa-da, lekin ular uchun tilning qo'llanishini va taraqqiyotini o'rganish muhimdir.

Tilshunoslik tilning ish ko'rish qonuniyatlarini, nutq strukturasi o'rganadi. Uslub arabcha so'z bo'lib, tartib, sistema demakdir. O'zbek tilida bu so'z ma'nosining qamrovi asliga nisbatan bir qadar kengroq bo'lib, "biror faoliyatni bajarishdagi, boshqarishdagi o'ziga xos yo'l" yoki "biror narsa yoki hodisa uchun xos bo'lgan xususiyatlar" kabi ma'nolari ham mavjud. Tilshunoslikda "uslub" atamasi zamirida tilning alohida ma'no anglatish va ifodalash maqsadlariga xizmat qiluvchi fonetik, leksik, sintaktik va frazeologik vositalari tushuniladi.

Tilshunoslikning tildan foydalanish usullarini o'rganuvchi tarmog'i stilistika, ya'ni uslubiyat deb yuritiladi. Demak, uslubiyat tilshunoslik fanining alohida sathi bo'lib, nutq jarayonida til hodisalaridan maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkin: "uslubiyat" atamasi tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llaniladi. U, avvalo, til vositalaridan nutqda o'rinli va maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni anglatadi. Ayni zamonda til vositalarini nutqda tanlab ishlatish qonun-qoidalarini o'rganadigan fanning nomini ham bildiradi.

Uslubiyat muomala madaniyati, nutq odobi – nutq madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Nutq madaniyati insoniyat umummadaniyatining bir qismi bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Nutq jarayonida yuksak axloqiy me'yorlarga rioya qilish, ta'sirchan, chiroyli va o'rinli so'zlash, tinglash madaniyati, suhbat madaniyati, bahs-munozara madaniyati, tildan nutqda e'tibor va ehtiyotkorlik bilan foydalanish shoirona so'zlar bilan aytganda "har bir so'zni yor tanlagandek" saylab ishlatish nutq madaniyatining asosini tashkil etadi. Uslubiyat bilan nutq madaniyati aynan bir narsa emas, ular bir-birini taqozo etuvchi, bir-birini to'ldirib, yuksaltirib boradigan alohida – alohida hodisalardir.

Ijtimoiy hayotda shaxslar til vositalaridan turlicha foydalanadilar. Chunonchi, olimlar o'z ilmiy asarlarida ilmiy atamalarni qo'llasalar, yozuvchi yoki shoirlar badiiy asarlarda tasviriy-ta'siriy vositalarni ko'proq ishlatadilar. Masalan:

1. Na'matak-atirguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 1-1,5 metr, guli yirik, pushti, sariq, kishini o'ziga jalb qiladigan butadir. Hozirgi kunda ekiladigan turfa atirgullarning ko'pchiligi shu na'matakdan kelib chiqqan.

2. Nafis chayqaladi bir tup na'matak,

Yuksakda, shamolning belanchagida,

Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,

Viqor -la o'shshaygan qoya labida... (O.)

Har ikkala matnda ham bir narsa haqida fikr yuritilgan. Birinchi matnda botanik olim na'matak o'simligi to'g'risida ilmiy izoh beradi – ta'riflaydi. Shoir esa nazmiy misralarda shu butaning rangli obrazini yaratadi, na'matakka ta'sirli, jozibali va shoirona tavsif beradi. Demak, adabiy tilda bir-biridan farq qiladigan uslublar mavjud.

Uslub- so'zlovchi va yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, voqea, hodisaga shaxsiy munosabatidir. Shu yo'l bilan ayni bir jumlada qo'shimcha sub'ektiv (modal) mazmun ham ifodalanadi. Nutq uslublari besh xil: so'zlashuv, rasmiy, ilmiy, ommaviy, badiiy uslub.

1. So'zlashuv uslub- ona tilidagi bor imkoniyatlardan foydalanadi.

2. Rasmiy-idoraviy (ish qog'ozlari uslubi)- shaxslar bilan shaxslar orasidagi, shaxslar bilan davlat idoralari orasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi: ariza, tilxat, adres, xat, telegramma, farmoyish, tarjimai hol rasmiy uslub ko'rinishlaridir.

Qisqalik, aniqlik, soddalik rasmiy ish qog'ozlari uslubining asosiy belgilaridir. Ibora va jumlar bir qolipda bo'ladi. So'zlar ko'chma ma'noda ishlatilmaydi.

Hukumat idoralari tomonidan chiqarilgan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar, ariza, tilhat, ma'lumotnoma, shartnoma, chaqiruv qog'ozi, taklifnoma, tavsifnoma, e'lon, tarjimai hol, hisobot kabilar rasmiy - idoraviy uslubda yoziladi. Bu uslubdagi nutq boshqa uslublarga qaraganda ancha siqiq va chegaralangandir. Rasmiy- idoraviy uslubning ham o'ziga xos lug'aviy va grammatik xususiyatlari mavjud: so'zlar o'z ma'nosida ishlatiladi, qisqartma so'zlardan, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Chunonchi, sud jarayoni bilan bog'liq ish qog'ozlarida **jinoyat, hukm, qonun, ...-modda** kabi; universitet ish qog'ozlarida **rektorat, dekanat, kafedra, dotsent, fan nomzodi** kabi so'z va birikmalar ishlatiladi.

Bu uslubda darak va buyruq gaplardan foydalanilib, gap bo'laklarining odatdagi tartibiga rioya qilinadi.

Rasmiy uslub hozirgi o'zbek tilining davlat-ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo'ladigan ko'rinishidir. Qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar, xullas barcha rasmiy ish qog'ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bu uslubning og'zaki va yozma ko'rinishlari, binobarin, ushbu ko'rinishlarning o'z me'yorlari mavjud.

Jumladan, aniqlik. Ushbu uslubda shakllangan matnda noaniqlikka, izohtalab o'rinlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak: O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat beradigan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.(O'zR Konstitusiyasi, 7 - modda).

Qolip. Fikr – mulohaza, bayon asosan bir qolipda ifodalanadi. Solishtiramiz: O'zbek milliy madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan marhum adabiyot va san'at namoyandalarini mukofotlash to'g'risida.

Betakror iste'dodi va o'lmas ijodiy merosi bilan o'zbek milliy madaniyatining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, butun hayotini el-yurt taraqqiyoti, xalqimiz ma'naviyatining yuksalishiga baxsh etgan vatandoshlari-mizning xotirasini yod etib, ularni Vatan oldidagi unutilmas xizmatlarini inobatga olib, quyidagi marhum adib va san'atkorlar «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlansin. (O'zR Prezidentining 2001 yil 22 avgust Farmoni).

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi e'lon qilinganligining o'n yilligi munosabati bilan amnistiya to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi e'lon qilinganligining o'n yilligi munosabati bilan insonparvarlik tamoyiliga amal qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 93-moddasining 20-bandiga asosan qaror qilaman (O'zR Prezidentining 2001 yil 22 avgust farmoni).

Shu tarzda ariza, qaror, bildirishnoma, ma'lumotnoma, shartnoma, tabriknoma singari turli xarakterdagi rasmiy hujjatlarning har birining o'ziga xos bayon etish qolipi bo'ladi. Ayni paytda ularning har birining alohida so'z va turg'un birikmalari ham mavjud bo'ladi. Masalan, huquqiy hujjatlar matniga ko'z yugurtirsak, ularda boshqa vazifaviy uslublarda deyarli uchramaydigan atamalarga duch kelamiz: ma'muriy javobgarlik, fuqarolik holati, fuqarolik javobgarligi, aybdor, gumondor, jabrlanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jamoat kafilligi, surishtiruv, jabrlanuvchi bilan yarashuv va boshqalar.

Ish qog'ozlari va hujjatlarning xilma-xilligiga qarab ularga oid atamalarning me'yorlashuvi va chegaralanuvi ham kuzatiladi. Qiyos uchun diplomatik munosabatlar doirasidagi so'z va iboralarga ko'z yugurtiraylik : ahdlashuvchi oliy tomonlar, elchi, elchixon, muxtor elchi, muxtor vakil, ishonchli vakil, nota, ratifikasiya, shartnoma, bayonot, qo'shma bayonot, deklarasiya, tashrif, qarorgoh kabilar.

Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos so'zlar, emosional- ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatilishi me'yor sanalmaydi va shu jihati bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi.

Rasmiy uslubning grammatik me'yor ham alohida xususiyatlarga ega. Masalan, ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p ishlatiladi. Noaniqliklarga yo'l qo'yilmaslik maqsadida ular olmoshlar bilan almashtirilmaydi: O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini aniqlaydi, o'z davlat ramzlarini: gerbi, bayrog'i, madhiyasini ta'sis etadi, o'z davlat tilini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari muqaddasdir (1991 yil 31 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» gi Qonunning 16 - moddasidan).

Bu uslubda fe'lning harakat nomi shakli faol qo'llaniladi, gapning kesimi ko'pincha hozirgi zamonning majhul nisbatida ifodalanadi, hujjatning xarakteriga qarab shart mayli shakliga tez-tez murojaat etiladi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutlaq vakolatlari» haqidagi 78 – moddasida o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, qabul qilish, belgilash, tasdiqlash, tartibga solish, o'zgartirish, joriy qilish, komissiyasini tuzish, saylov kunini tayinlash, saylash, ozod etish, ratifikasiya qilish, ta'sis etish, amalga oshirish singari fe'lli birikmalar ishlatilgan. Ushbu hujjatda amalga oshiriladi, asos bo'ladi, tashkil etadi, belgilanadi, asoslanadi, hisoblanadi,

himoya qilinadi, amalga oshiradi, tan olinadi, ish ko'radi, ado etadi, kafolatlanadi, taqiqlanadi singari fe'llarning faol ishlatilishi ham yuqoridagi fikrning tasdig'idir. Yana: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ma'ruzasidagi konseptual qoidalar va xulosalar ma'qullansin hamda ular Oliy Majlisning kelgusi faoliyatida inobatga olinsin. Ma'ruzaning ... dasturiy xulosalari prokuratura, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar faoliyati uchun asos qilib olinsin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ... mustaqillik va demokratiya qo'lga kiritgan yutuqlarni himoya qilish, ijtimoiy adolat, fuqarolar tinchligi hamda totuvligini ta'minlash ishlarini kuchaytirish tavsiya etilsin. (O'zR Prezidenti I.A.Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy majlisining oltinchi sessiyasidagi ma'ruzasi yuzasidan O'zR Oliy majlisining 2001 yil 29 avgust qaroridan).

Shu o'rinda rasmiy uslubda yozilgan matnlar uchun barcha morfologik vositalar va kategoriyalarning qo'llanilishi bir xil darajada emasligini ta'kidlash ham maqsadga muvofiq. Masalan, sonlar va olmoshlar bu uslubda boshqa so'z turkumlariga qaraganda ikkinchi darajali omil hisoblanadi.

Rasmiy uslubning sintaktik alomatlari ham matnda darhol ko'zga tashlanadi. Unda darak gaplar, uning ayniqsa qo'shma gap shakli ko'p ishlatiladi. Yoyiq va murakkab so'z birikmalari mahsuldor hisoblanadi, murakkab tipdagi nomlar keng qo'llaniladi. Gap tuzilishida o'zbek tilidagi odatdagi me'yorga amal qilinadi va yuqorida sanalgan jihatlari bilan ilmiy uslubga o'xshab ketadi.

3. Ilmiy uslub-fan-texnika tilidir. Ilmiy uslubning asosini atama, ta'rif, qoida, qonun va shartli belgilar tashkil etadi. Bu uslub termin (atama) lar bilan ish ko'radi.

Fan-texnika, san'atning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar, ilmiy-texnik xabarlar, maqolalar, tezislar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (qoidalar, ta'riflar, aksiomalarga) boy bo'lishi bilan boshqa nutq uslublaridan farqlanadi.

Ilmiy uslubdagi nutq monologik xarakterga ega bo'lib, unda obrazlar, obrazli tasvirlar, ko'chma ma'noli so'zlar, majoz, bo'yoqdor so'zlar, iboralar deyarli uchramaydi. Bu uslubga mantiqiy fikrlash, abstraksiya, analiz, sintez, tushunchalarga mos keladigan atamalar bilan ish ko'rish - xos xususiyatlardir. Shuning uchun u o'rganuvchining his-tuyg'ulariga emas, ongiga, tafakkur –shuuriga ta'sir etadi. Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy terminlaridan foydalanadi. Masalan, tilshunoslikda morfologiya, sintaksis, fe'l, tuslanish, kesim, giponimiya kabi atamalar; matematikada teorema, tenglama, kosinus, sinus, paralleloiped, gipotenuza kabi atamalar; meditsinada analgin, adeopan, glyukoza, validol, penitsillin, glitserin kabi atamalar ishlatiladi.

Ilmiy uslubda soʻzlar, odatda, oʻz maʼnosida qoʻllaniladi. Qoida yoki taʼrifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan izoh boʻlaklar, kirish soʻz, kirish birikma va kirish gaplar, shuningdek, ergashgan qoʻshma gaplardan koʻproq foydalaniladi. Gaplarning kesimi, odatda, aniq yoki majhul nisbatdagi feʼllar bilan ifodalanadi; moslashuvli birikmalar deyarli hamma vaqt belgisiz (gap boʻlagi, unlilar tasnifi, soʻz oʻzagi kabi): sonlar raqamlar bilan; birinchi shaxs birlikdagi kishilik olmoshi (men) koʻplik shaklida (biz) beriladi. Ilmiy uslubda gap boʻlaklari tartibida inversiya uchramaydi. Ilmiy uslubga xos boʻlgan asosiy xususiyatlar deyarli barcha tillarga, jumladan, rus, ingliz, nemis, fransuz va h.larga ham tegishlidir.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos boʻladi. Ilmiy tafakkur fikrlashning oʻziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchilik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ush-bu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy meʼyorning oʻziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi.

Yuqorida bu kabi xususiyatlarning mushtarakligi bilan rasmiy uslubga yaqinligi aytib oʻtilgan edi.

Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darslik, oʻquv qoʻllanmasi, oʻquv-metodik qoʻllanma, dastur, maʼruza matnlari, taqriz va referat singarilar uning ana shu janr koʻrinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi maʼlum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish meʼyoriga koʻra umumiylikni tashkil etadi.

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Aniqlik. Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda soʻzlarni aniq, asosan bir maʼnoda qoʻllash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hech boʻlmaganda neytral variantini qoʻllash taqozo etiladi. Terminlarni qoʻllash bu uslubning asosiy xususiyati sanaladi: Ximiyaviy tarkibiga koʻra gerbidsidlar anorganik va organik gerbidsidlarga boʻlinadi. Anorganik gerbidsidlar: natriy arsenit, ammoniy sulfat, kalsiy sianamid, sulfat kislota va boshqalar. Organik gerbidsidlar: traktor kerosini, mochevina hosilalari, xlorfenoksisirka kislota, xlorfenoksimoy kislota va boshqalar. Hozirgi vaqtda koʻproq organik birikmali va baʼzan anorganik birikmali gerbidsidlar qoʻllaniladi (Dehqonchilik, 134).

2. Obyektivlik. Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materiali fikrning haqqoniyligi, obyektivligiga xizmat qilishi lozimligi uqtiriladi[4.17]

Lekin «Mantiq» darsligidan bir misol keltiramiz: «Epimenid «Men yolgʻon gapiraman» deb aytdi. Bu paradoksni mutlaqo hal etib boʻlmaydi. Aytaylik, Epimenid rost gapirdi, bu holda

uning haqiqatda yolg'on gapirgani aniq bo'ladi. Aytaylik, u yolg'on gapirdi. Bu holda uning haqiqatda ham rost gapirgani ma'lum bo'ladi

Ma'lum bo'ladiki, haqqoniylik, obyektivlik nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, uning reallashuvida faqatgina til birliklariga tayanib ish ko'rish qiyin. Uni vaziyat, suhbatdoshlarning bir-birlarini bilishi va tushunishi kabi ekstralingvistik omillar ham belgilashi mumkin.

3. Mantiqiy izchillik ilmiy bayon uslubining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so'zlar, gaplar, abzaslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlar bu izchillikni yuzaga keltiruvchi ma'lumki, ma'lum bo'ladiki, ta'kidlash lozimki, ta'kidlash o'rinliki, darhaqiqat, binobarin, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan, ko'rinadiki, ta'kidlash joizki, xulosa qilib aytganda, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqat bugina emas singari ko'plab bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'z va birikmalar qo'llaniladi.

4. Qisqalik. Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda bo'ladi. Agar fikr qo'shma gaplar yordamida ifodalansa, bog'lovchilarning faol ishlatilishi kuzatiladi: G'alla ekinlari urug'larini saqlashga ancha chidamli hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini sifatli urug' bilan ta'minlashda uni saqlash muhim tadbirdir. Ekiladigan g'alla urug'lari uchun davlat standarti belgilangan (Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi).

Ilmiy uslub fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanib turuvchi yorqin belgilarga ega emas. Leksikasida esa farq qiluvchi jihat sohaviy atamalarning ko'pligi hisoblanadi. Bu uslubda ham, xuddi rasmiy uslubda bo'lgani kabi, so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash, tasviriy vositalardan unumli foydalanish xos xususiyat sanalmaydi. Subyektiv emosionallik, obrazlilik, og'zaki nutq elementlari, umuman g'ayri adabiy unsurlar kam ishlatiladi. Mumkin qadar bayon bir xil me'yorda ifoda etiladi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda fikr yuritilayotgan manba, mavzu bilan uyg'un ravishda ba'zan bu uslubda ham obrazli ifodalardan foydalanish istisno emas. Masalan: Differensial tenglamalarning xususiy hosilalari fizikaga cho'ri bo'lib ishga kirdi, keyin u cho'ridan byekaga aylanib kyetdi (R.Bekjonov).

Muallif individualligining kam sezilarli bo'lishi ham ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari to'g'risida M.Mukarramovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili» monografiyasida quyidagi fikrlar bayon qilingan:

Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda me'yor sifatida e'tirof etilgan grammatik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. So'z turkumlaridan ot faol, ayniqsa takror qo'llanadi. Subyektiv baho shakllari xos emas. –lar ko'plikdan boshqa semantik-uslubiy ma'nolarni ifodalama-da, atama hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiy egalik ustun turadi, I-II shaxs qo'shimchalari

ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol. Undov va taqlid soʻzlar ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan.

Ilmiy nutq uchun deyiladi, aytiladi, yoritiladi, bayon qilinadi, aniqlanadi, tekshiriladi, foydalaniladi, taʼriflanadi singari xoslangan feʼllar mavjud. Feʼlning majhul daraja shakli ham bu uslub uchun xos. Ammo hozirgi-kelasi zamon shaklidan tashqari xarakterli zamon koʻrsatkichi yoʻq. Kishilik olmoshlari kam qoʻllaniladi. Bu gap faqat muallif va men maʼnolarida qoʻllaniladigan hamda kamtarlik maʼnosini ifodalaydigan biz olmoshiga tegishli emas.

M.Mukarramov ushbu monografiyasida «Adabiy tilning konkret koʻrinishlari boʻlgan soʻzlashuv, badiiy, publisistik, rasmiy-hujjat va ilmiy nutqlarning real mavjudligini tan olsak, u vaqtda har bir nutq turining oʻz modal maʼno ifodalovchi soʻzlarini ham tan olishimizga toʻgʻri keladi[4.198] degan mulohazani aytib, demak, xullas, darhaqiqat, haqiqatan, shubhasiz, albatta, darvoqye, masalan, jumladan, ayniqsa, xususan, aksincha, afsuski singari modal soʻzlar va modal maʼno anglatuvchi boshqa birliklar tahlil qilingan.

Shu singari ilmiy uslubning ammo, lekin singari oʻz bogʻlovchilari, bilan, uchun, kabi, singari, haqida, toʻgʻrisida, tufayli, sababli, doir, oid, binoan, tashqari, qaraganda, asosan, muvofiq, qadar singari koʻmakchilari borligini ham qayd qilish toʻgʻri boʻladi.

Ilmiy uslubda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi hamda bayonning tabiatidan kelib chiqib, bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol. Undov, atov gaplar qoʻllanilmaydi, nutq monologik xarakterda boʻladi. Rasmiy uslubdagiga oʻxshab gap tuzilishining odatdagi tartibi qoʻllaniladi. Qoʻshma gap faol ishlatiladi. Darak gap asosiy mavqyeni egallaydi, soʻroq va buyruq gaplar deyarli qoʻllanilmaydi.

4. Ommaviy (ommabop, publisistik) uslub - matbuot, radio, telekoʻrsatuvga xos boʻlgan tildir.

Publitsistik uslub davriy matbuot, ijtimoiy-siyosiy adabiyot, ommaviy- siyosiy mavzudagi maʼruzalar uslubidir. Bu uslubdan targʻibot-tashviqot ishlarini olib borishda keng foydalaniladi. Odatda, gazetalarning bosh maqolalari publitsistik xarakterda boʻlib, ularda kundalik turmushdagi tarbiyaviy, iqtisodiy va siyosiy masalalar yoritiladi. Publitsistik nutqda taʼsirchan soʻz va birikmalardan, maqol va hikmatli soʻzlardan, ritorik soʻroq gaplardan, takror, murojaat, undov, yoyiq undalmalar, chaqiriqlardan foydalaniladi. Publitsistik uslubda **qurultoy, anjuman, deputat, kengash, hukumat rahbarlari, davlat** kabi ijtimoiy-siyosiy soʻzlar koʻp qoʻllaniladi. Gap boʻlaklari, koʻpincha, odatdagi tartibda boʻladi, gap kesimlari buyruq va xabar maylidagi feʼllar bilan ifodalanadi.

Ommabop uslub oʻzbek tilshunosligida T.Qurbonov tomonidan monografik yoʻnalishda oʻrganilgan[6.282]

Til taraqqiyotida muhim omil sanaladigan publisistika o'z navbatida tilning imkoniyatlaridan ham keng foydalanadi.

Ommabop uslub imkoniyatlarining kengligini lingvistik va ekstralingvistik omillarning mustahkam aloqadorligida kuzatamiz. Publisistik janrda yozilgan asarlarning mohiyatan hozirjavobligi, ularning axborot hamda targ'ibot-tashviqot xarakterda bo'lishi va ommani dunyo yoki mamlakatimiz miqyosida sodir bo'layotgan voqeya-hodisalardan zudlik bilan xabardor qilish natijasida yuzaga keladigan novatorlik unda tabiiy ravishda yangi ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi va tilimizda me'yorlashishiga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, ommabop uslub tilning yangi so'z va iboralar hisobiga boyib borishiga ko'maklashadi.

Ommabop uslub ma'lum ma'noda oraliq uslub sanaladi. Bu uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo'llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi. Ifodaning aniqligi va publisistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi bilan ilmiy uslubga o'xshaydi. Ayni paytda ifodadagi qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar ham uni ilmiy uslub bilan yonma-yon qo'yadi.

Radio va televideniyaedagi ayrim chiqishlar bu uslubdagi matnda so'zlashuv uslubi elementlari ham ba'zan aralashib ketishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, publisistika badiiy, siyosiy, ilmiy jabhalarni qamrab oluvchi yirik soha hisoblanib, ommaviy axborot vositalari sanaladigan radio va televideniyaed, gazeta va jurnallar sahifalarida aks etadigan yangilik, xabar, reportaj, tahlilnoma, bosh maqola, maqola, ocherk, felyeton, pamflet, e'lon, reklama singari qator janrlarni qamrab oladi. Ana shu qamrov doirasining kengligi o'z navbatida til birliklarining har bir janrda alohida tarzda me'yorlashuvini taqozo etadi. Bu o'rinda esa me'yorlashishning umumiy jihatlari xususida so'z yuritish imkoniyati mavjud.

T.Qurbonovning kuzatishicha, sifatdash oborotlar, fe'llarning shart mayli shakllarining almashinib ishlatilishi, ritorik so'roq, ritorik murojaat, undov, bir bosh bo'lakli gaplarning faolligi bu uslubga xos xususiyatlar sanaladi [7,35].

Eng muhimi, ijtimoiy-siyosiy atamalar ko'p qo'llaniladi. Hatto umumiste'moldagi so'zlar ham ommabop uslubda yozilgan matnda atamaga aylanishi mumkin: ovoz, ochiq ovoz, yopiq ovoz, hal qiluvchi ovoz, maslahat ovozi, qarshi ovoz, ovozga qo'yimoq, ovoz bermoq, Osiyo ovozi singari.

Ijtimoiy- siyosiy atamalar asosan -chi, -parast, -parvar, -xona,-noma qo'shimchalari yordamida yasaladi. Misollar: terrorchi, qo'poruvchi, aqidaparast, millatparvar, devonxona, bojxona, hissador, tadbirkor kabi.

Shu o'rinda mazkur uslubda so'z yasash imkoniyatining boshqa vazifaviy uslublarga nisbatan mahsuldor ekanligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

Turli metaforik turg'un birikmalar - davr talabi, do'stona suhbat, yuqori hosil uchun kurash, yaratuvchilik ishlari, dunyo hamjamiyati, mustaqil mamlakatlar hamdo'stligi, mustaqillikni mustahkamlash singarilarni faol qo'llash ham ommabop uslub tabiatiga mosdir.

So'roq gaplarning faol ishlatilishi, ularning murojaat va dialog shaklda bo'lishi, bunda savol beruvchi ham, javob beruvchi ham muallifning o'zi bo'lishi (G'urur nima o'zi? Rangi qanaqa? U hammada birday bo'ladimi yoki aksinchami? Menimcha, g'ururli odam mamlakat miqiyosida amalga oshirilayotgan har qanday muvaffaqiyatni o'ziga tegishli deb biladi va undan quvonadi. Xalq so'zi, 2001 yil 20 sentyabr), uyushiq bo'lakli gaplarga ko'proq murojaat qilinishi (Chunki o'qituvchi zoti mashaqqatli mehnati, hayotiy tajribasi, beqiyos mehri bilan yosh avlodga faqat ilm-fan sirlarini o'rgatib qolmay, uning yuragida Vatanga muhabbat, ajdodlar ruhiga hurmat, el-yurtga sadoqat kabi yuksak tuyg'ularni kamol toptirishda ibrat va namuna bo'ladi. I.Karimov. O'zbekiston o'qituvchilariga va murabbiylariga tabrik. Xalq so'zi, 2001 yil 29 sentyabr), undovlarning, kirish bo'laklar va kirish gaplarning (Vaholanki, ular o'z mutaxassisligi bo'yicha qayerga joylashishni bilmay yurishgandi. Albatta, bu bilan muammo bartaraf etildi, deb aytish noto'g'ri bo'lar edi. Ishonch, 2001 yil 22 sentyabr), shaxsi umumlashgan gaplarning keng qo'llanishi bilan ajralib turadi.

Ommabop uslubning badiiy uslub bilan mushtarak tomonlari, ayniqsa, uning leksikasi va frazeologiyasida seziladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, yangilikni yoritishga bo'lgan intilish ommabop uslubning asosiy xususiyati sanalib, bu xususiyat tilning yangi so'z va iboralar bilan boyib borishiga sabab bo'ladi. T.Qurbonov bu uslubda so'z yasashning ikki ko'rinishi – morfologik va kompozision usulining mahsuldor ekanligini ta'kidlaydi hamda bunda -chi, -shunos, -parast, -xona, -dosh, -lik, -cha birliklarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

5. Badiiy uslub- badiiy tasvir vositalari ibora va asosan ko'chma ma'nodagi so'zlar asosida ish yurituvchi uslub.

Uslubiyat filologiyada adabiyotshunoslik va tilshunoslik o'rtasidagi oraliq fan bo'lib, fikrni, maqsadni har bir sohaning o'z talablariga mos ravishda til vositalari orqali aniq, ravon, ixcham va mukammal ifodalab berish san'atini o'rganadi.

Ijtimoiy hayotda shaxslar til vositalaridan turlicha foydalanadilar. Chunonchi, olimlar o'z ilmiy asarlarida ilmiy atamalarni qo'llasalar, yozuvchi yoki shoirlar badiiy asarlarda tasviriy-ta'siriy vositalarni ko'proq ishlatadilar. Masalan:

1. Na'matak-atirguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 1-1,5 metr, guli yirik, pushti, sariq, kishini o'ziga jalb qiladigan butadir. Hozirgi kunda ekiladigan turfa atirgullarning ko'pchiligi shu na'matakdan kelib chiqqan.

2. Nafis chayqaladi bir tup na'matak,
Yuksakda, shamolning belanchagida,
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqor -la o'shshaygan qoya labida... (O.)

Har ikkala matnda ham bir narsa haqida fikr yuritilgan. Birinchi matnda botanik olim na'matak o'simligi to'g'risida ilmiy izoh beradi – ta'riflaydi. Shoir esa nazmiy misralarda shu butaning rangli obrazini yaratadi, na'matakka ta'sirli, jozibali va shoirona tavsif beradi. Demak, adabiy tilda bir-biridan farq qiladigan uslublar mavjud.

Masalan, ingliz shoiri Carol Ann Duffy "A snowman" nomli she'ri orqali yolg'iz bir insonning kechinmalarini yoritadi. U buning uchun qordan yasalgan odam ya'ni qorbobodan foydalangan. Bu juda g'ayrioddiy va e'tiborni jalb qiladi va she'riyat, badiiy uslubning betakrorligini isbot qiladi:

A snowman
The most unusual thing I ever stole? A snowman.
Minding. He looked magnificent: a tall, white mute
beneath the winter moon. I wanted him a mate
with a mind as cold as the slice of ice
within my own brain. I started with the head.

Better off dead than giving in, not taking
what you want. He weighted a ton; his torso,
frozen stiff, hugged to my chest, a fierce chill
piercing my gut. Part of the thrill was knowing
that children would cry in the morning. Life's tough.

Sometimes I steal things I don't need. I joy-ride cars
to nowhere, break into houses just to have a look.
I'm a mucky ghost, leave a mess, maybe pinch a camera.
I watch my gloved hand twisting the doorknob.
A stranger's bedroom. Mirrors. I sigh like this-Aah.

It took some time. Reassembled in the yard,

he didn't took the same. I took a run
and booted him. Again. Again. My breath ripped out
in rags. It seems duft now. Then I was standing
alone amongst humps of snow, sick of the world.

Boredom. Mostly I'm so bored I could eat myself.
One time. Istole a guitar and thought I might
learn to play. I nicked a bust of Shakespeare once,
flogged it, but the snowman was the strangest.
You don't understand a word I'm saying, do you?

Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma'lum bir sohasida qo'llanadigan ko'rinishi adabiy til uslubi deyiladi. Uslublar tilning asosiy vazifalari (kommunikativ, ekspressiv)ga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Shunga ko'ra, ular vazifaviy uslublarda deb ham yuritiladi. Ya'ni nutq uslublari til ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan sistemasidir. [12,32]

Adabiy uslub o'zbek tili vazifaviy uslublari orasida o'ziga xos mavqe'ga ega bo'lib, ayni paytda o'zining alohida ma'yorlariga ham ega. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning muhim bir vazifaga – badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati hisoblanadi. Tabiiyki, bunday imkoniyatlar boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangan.

Til vositalarini qo'llashdagi ana shu keng qamrovlilik bo'lishi bilan birga bu uslub doirasida ularni qo'llashning ma'lum me'yorlari ham amal qiladiki, fonetik, grammatik, leksik va frazeologik xususiyatlar tarzida ko'zga tashlanadigan ana shu me'yorlar uni boshqa vazifaviy uslublardan chegaralash imkonini beradi.

Badiiy adabiyot tilidagi fonetik o'zgarishlar asosan matnda tovushlarning qisqargan va orttirilgan (S o' r m a mendan, kim diloro / Do'stmi yo janona deb. E.Vohidov; Ne balolig' kun edikim. O sh i n o bo'ldim sango. Alisher Navoiy; Sh a b b o d a men seni ko'rmayman, / Qo'limga tutmayman. Zulfiya), ona tilimizning tarixiy taraqqiyot va she'riyat qoidalariga mos tarzda «z» ning «y» ga (S o' y l a quyosh nimalar bo'lgan, / Sen chiqqanda birinchi marta. H.Olimjon), «q»ning «g'»ga (Quyosh orqasidan –behisob ch i r o g' / Nuriga kiradi mamlakat shu ch o g'. Zulfiya) o'tgan ko'rinishlarda me'yorlashgan.

Shuningdek, badiiy uslubda, xususan poetik nutqda hozirgi adabiy orfografik me'yor talablariga muvofiq kelmaydigan qaro, yamon, yaro, oshno, talosh singari so'zlar ham ishlatilaveradi.

O'zbek tili grammatik, xususan morfologik uslubshunosligining nazariy masalalarini, ayniqsa so'z turkumlaridan ot va unga bog'liq kategoriyalar uslubini o'rganishga bag'ishlangan yirik tadqiqotlar R.Qo'ng'urov qalamiga mansub (Qarang: O'zbek tili so'z turkumlarining grammatik shakllari turli adabiy, tarixiy hamda dialektal variantlarga ega bo'lib, ular hozirgi adabiy til me'yori nuqtai nazaridan bir tomondan qo'llanish chastotasiga ko'ra faol yoki aksincha bo'lsa, ikkinchi tomondan ularda vazifaviy-uslubiy chegaralinish ham sezilib turadi. Bu xususiyatlar so'z yasovchi hamda ko'plik, egalik, kelishik, daraja, shaxs-son, zamon, mayl, nisbat kabi ma'nolarni ifoda etuvchi affikslarning nutqdagi ishtirokida, yordamchi so'zlarning turlicha ko'rinishlari va variantlarida namoyon bo'ladi. Ularning ma'lum qismida badiiy uslubga xoslanganlik mavjud.

Masalan, -lar kesim tarkibida kelgan paytda hurmat (Dadam k ye l d i l a r), kinoya, piching (Mulla Eshmat, k ye l s i n l a r) kabi ma'nolar so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa, ta'kid, kuchaytirish, mubolag'a singari ma'nolar badiiy uslubda ko'proq ishlatiladi (Shu k o' z l a r yulduzday abadiy kul sin, Bahor y o' l l a r i n g g a to'shasin chechak. Zulfiya). Bu kabi holatlar ilmiy va rasmiy uslublarda ko'zga tashlanmaydi.

Bundan tashqari bu uslublarda grammatik shakllarning adabiy-me'yoriy variantlari qo'llanilsa, aksincha, badiiy uslubda bu grammatik shakllarning barcha ko'rinishlari – lahja va tarixiy variantlari ham asarning mavzu talabi bilan qo'llanilaveradi.

Uslubiy xoslanish kelishik qo'shimchalari variantlarining tanlanishida ayniqsa seziladi. Masalan, qaratqich kelishigining –(i)m (Axir hayajonlar o'zligim m a n i m , / Mayli qalbingga ham ko'chsin hayajon. K.Bahromova), -n (Qanday ko'rkam qizlar a v l o d i n /Xassos didi va shoir dili. Zulfiya), -ing (Shavqimning shuhrasi boshing uza zar tora fido, / K o' n g l u m i n g mahzani gul orazi gulnora fido. Joniy) tarzida qo'llanishi, qaratqich-qaralmish inversiyasi (Yarqirar ming bir bahor ko'rki kamolingda sening, /Oftobning aksi bor o'tlug' jamolingda sening. J.Jabborov), grammatik ko'rsatkichsiz kelishi (Qarshingda turibdi u m r i m bir kuni, / Mening uvoq she'rim mening dilporam. J.Kamol); tushum kelishigining –(i)n (Uchirsang-da ko'kka yurak k u l i n , / Achchig'lanmam senga nozli quyosh. Fitrat) va belgisiz shakli (Ulug' Hoqon, sendan so'rov shu erdi. / Elga sabr, bardoshdan bo'lak n a r s a ber. H. Xudoyberdiyeva); jo'nalish kelishigining – a (Tog'larning yuzi qora. Na ko'kat bor, na lola. Ul taajjub etardi. Kunduzdagi a h v o l a... H. Olimjon), - na (Soya tushsa nogahon bu jismi betob u s t i n a. Navoiy), -qa (Hajri ashkim yetkurur har dam q u y o sh q a bir hayot. Navoiy), -g'a (Yo ilohi, emdi qilg'aysan bu bandangga nazar. Jandami, bir do'sh etib, kirdim y o' l u n g g' a darbadar. Mashrab) hamda belgisiz holatda bo'lishi (M a k t a b bordik - og'ir bo'lib qoldik da'atan. A.Oripov); chiqish kelishigining –din tarzida ishlatilishi (Vatan s ye v m a k d i n ortiq Menga olamda shior bo'lmas. E.Vohidov), o'rin kelishigi qo'llanganda u bilan egalik qo'shimchasi

o'rtasida bitta «n» tovushining orttirilishi (Surxonningda anor guli kahrabodur, Yoboningda bodomlaring talx g'izodur, Qovun-tarvuz q u r s o g' i n d a selitrodur, Kimlar seni bemor etdi, Tabiatingni xor etdi. O.Hojiyeva) shu uslubga xos xususiyatlar sanaladi.[14,35]

Sifat va son turkumlari doirasida qaraladigan grammatik birliklarning ko'pchiligi barcha vazifaviy uslublarda ishlatilishi bilan xarakterlansa-da, ularda ham uslubiy farqlanishlarni, stilistik o'ttenkalarni payqash qiyin bo'lmaydi [13,4-21] Masalan, sifatdagi –lik qo'shimchasining –liq, -lig', -luq, -lug' kabi shakllari (Shohigul ermas bu o' t l u g' yuzlaring hijronida. E.Vohidov) ajralib turadi; charog'on, shodon, za'faron kabi so'zlar tarkibidagi –on; chirkin, otashin kabi so'zlardagi –in affikslarida badiiy uslubga xos chegaralanganlik seziladi (So'ng bu iflos zafardan Ular shodon yurdilar. Olamda mard yo'q ekan. Bizlar mardmiz dedilar. O.Matjon).

Olmoshlarning uslubiy chegaralanishlari badiiy adabiyotda sezilarli o'rin tutadi. Kishilik olmoshlarini olaylik. Men, biz, sen, siz, ular singari olmoshlarning biri o'rnida ikkinchisi, ya'ni men o'rnida biz (-Ma, ich, amir, -dedi va kuldi. –Bilib qo'y, b i z d a y amirul-mo'min qo'lidan yolg'iz sen may ichursen. O.Yoqubov), men o'rnida sen (..Bilmaydikim... yo'q, to'xta Muhammad Tarag'ay! Nechun s ye n shahzodadan ranjiysen. O.Yoqubov), siz o'rnida sen (Izn ayla! Ona. Darig' tutma lutfingni, Avval shuki, s ye n g a qalqon bo'la olmagan Bizni - noshud farzandlarni afu etgaysen. E.Samandar) qo'llanishi bu uslub uchun me'yor sanaladi.

Fe'lda badiiy uslubga xos belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Emoq-ermoq (Kecha ustod chaqirtirgan e r k a n. O.Yoqubov), kan-kin (B o' l g a n m i k i n yer uzra bir ko'z Ko'rmak uchun seni osmonda. H.Olimjon), -gin/-gil/-g'il (Q o' y g i l u kunlarni eslatma menga. A.Oripov; Lekin hazar q i l m a g' i l. O.Yoqubov), -sin/-sun (Jonlar sening yuzginangdan a y l a n s u n. Fitrat) kabilar.

Uslub talabi bilan o'zaro o'rin almashishlarni mayl va nisbat kategoriyalari misolida ham kuzatamiz. Masalan, shart mayli - aniqlik mayli: Terimchi chevarlar etaklab qoplab Tog'day xirmonlarga keltirib t o' k s a, Men behad sevaman (Zulfiya). Yoki aksincha: Men hayot e k a n m a n, hayotsan sen ham (Zulfiya). Buyruq mayli - shart mayli: Boysunqur mirzo z o' r a v o n l i k q i l s i n ! Men mo'minlarcha bosh egib elchi yuboray! (O.Yoqubov), buyruq-istak mayli – aniqlik mayli (Qayga b o r s i n taqdirdan qochib? (Zulfiya).

Mayl shakllarining bu tarzda qo'llanilishi ilmiy va rasmiy uslublarda chegaralangan. Ularda fe'llar asosan aniqlik mayli shaklida bo'ladi.

Badiiy uslubda fe'lning barcha nisbat shakllari ishlatiladi. Ammo aniq nisbatdagi fe'llar birmuncha faol. Ilmiy nutqda esa, aksincha, fe'llar asosan majhul nisbatda qo'llaniladi.

Badiiy asar bayonida zamon shakllarining barchasi ishtirok etadi. Lekin odatda badiiy asarlarda bo'lib o'tgan voqyealarning hikoya qilinishi tufayli unda fe'lning o'tgan zamon shakllari mahsuldor hisoblanadi. Shu bilan birga, tasvirdagi keng ko'lamlilik muallif tilida

hozirgi va kelasi zamon shakllarining ishlatilishini ham taqozo qiladi (S a d ы k o v a M. Stilistika glagola v sovremennom uzbekskom literaturnom yazыke: Avtoref. dis.... d-ra filol.nauk. - Tashkent, 1991, s.34). Kelasi zamon - o'tgan zamon: Qish chillasi avjida. Izg'irinli yellar esadi. Qo'l oyoqlariga kishan solingan, kiyimlari yirtiq mahbuslar Samarqandning Registon maydonida sovuqdan qaltirab shahar qozisining hukmini tinglaydilar (P.Qodirov).

She'riy nutqda esa, asosan fe'lning o'tgan va kelasi zamon shakllaridan foydalanish mahsuldor.

Yordamchi so'zlar ham tilimizdagi boshqa birliklar singari nutq jarayonida o'zining uslubiy imkoniyatlarini namoyon qila oladigan to'laqonli til birliklaridir. Ularning ana shu keng uslubiy imkoniyatlarini biz, eng avvalo, vazifaviy chegaralanishlarda payqaymiz.

Badiiy uslubga xoslari quyidagilar: Ko'makchilarni olaylik. Bilan ko'makchisining birla, birlan, ila, -la; uchun ko'makchisining –chun; kabi ko'makchisining misol, misoli, misli; ora ko'makchisining aro, shuningdek yanglig', uzra, ichra ko'makchilari badiiy matn uchun xos.

Lekin va agar bog'lovchilarining qisqargan shakli lek va gar hamda vale, yoinki, holonki bog'lovchilari haqida ham shu gaplarni aytish mumkin: Yor istig'nosidan o'lmasmanu, kuydim va l ye k – Lobarim oldida nazmim bu qadar behol uchun (E.Vohidov); G a r gunoh orttirsang o'zingga og'ir, Vijdon azobida qovrilsang bot-bot (A.Oripov), Men xud ul tifli parivashg'a ko'ngul berdim, v a l ye. Xonumonim nogahon buzilmag'ay boshdin yana (Bobur), ...hammani olib boradimi yo i n k i xohlagan borib, xohlamagan qolaberadimi? (O'zbek tili grammatikasi), Holonki men sizni xondan ham yuqori qo'ygan edim (A.Qodiriy) kabilar.

Yuklamalarda uslubiy chegaralanish aniq bilinib turmaydi. Faqat yuklamasining o'rni bilan sinonimi bo'lib keladigan yolg'iz so'zidagina badiiy uslubga xoslik ko'rinadi: Nechun hamma darichalar qorong'i, yo l g' i z uning darichasi yorug' (O.Yoqubov).

Sintaksisda til birliklarini mazmunga mos ravishda turli kombinasiyalarda qo'llash mumkinligi ularning uslubiy imkoniyatlari ham naqadar kengligidan dalolat beradi. Ta'kidlash o'rinliki, prozaik asarlar sintaksisi hozirgi o'zbek adabiy tilining sintaktik me'yorlarini o'zida aks ettiradi. Buni ayniqsa gap bo'laklarining nutqda joylashuvida kuzatamiz. Ammo poetik nutq sintaksisi boshqacha. She'riy nutqning asosiy belgilaridan biri bo'lgan inversiya tufayli matnda ko'plab sintaktik qurilishlar majmui vujudga keladi.

Ekspressiv-emosionallikni vujudga keltiruvchi vosita sifatida inversiya so'zlashuv va badiiy uslubga tegishlidir.

So'roq gaplarning ritorik turi, undov gaplar, his-hayajon gaplar ham so'zlashuv va badiiy uslubga xos. Bu uslubdagi gap qurilishi ham ma'lum darajada farqlanadi.

Masalan, rasmiy va ilmiy uslublarda ko'proq qo'shma gaplar, ularning bog'langan va bog'lovchisiz turlari, so'zlashuv uslubida sodda gaplar, ayniqsa ularning to'liqsiz shakli ishlatilishi xos bo'lsa, ommabop va badiiy asarlarda gapning har ikki turi ham aralash holda

kelaverishi mumkin. To'liqsiz gaplar dramatik asarlarda, xususan dialogik nutqda mahsuldor qo'llaniladi. Bir bosh bo'lakli gaplarning shaxsi noaniq turi, atov gaplar, so'z-gaplar, kiritma gaplar badiiy matnda ijodkor individual uslubini yuzaga keltiruvchi qulay grammatik vositalar sanaladi [16, 77-96].

Badiiy uslub leksikasi ham alohida belgilarga ega. «...boshqa funksional stillar uchun xos bo'lgan leksika (masalan, ilmiy va rasmiy ish uslubiga xos bo'lgan terminlar)ning badiiy stilda keng qo'llanilmasligi va faqat badiiy stilda qo'llanuvchi maxsus vositalarning mavjudligi badiiy stilga xoslangan leksikani alohida ajratishga asos bo'ladi», deydi E.Begmatov [17,186].

Abru, albat, armug'on, bazmaro, balqimoq, bahoriston, boda, bo'ston, gavharafshon, giryon, gulbahor, guliston, gulro', gulshan, debocha, dilafro'z, dilxona, dolg'a, durafshon, duto, jahonbaxsh, jondosh, jo'shmoq, jo'shqin, kabk, kuylamoq, libos, lolagun, lo'livash, maygun, mardonavor, mastona, mahvash, mahpora, moviy, moh, mujda kabi xoslangan so'zlar lug'atlarda poetizmlar nomi bilan yuritiladi.

Ma'lumki, yozuvchining til ustida ishlash mehnati, eng avvalo, sinonimik birliklar ustida ishlash mahoratidir. Sinonimik qatordan mos, kerakli birlikni tanlab olish ekspressivlikni, subyektiv bahoni aniq ifoda etishning eng to'g'ri yo'li bo'lganligi tufayli u badiiy adabiyotda zarur lingvistik vosita sanaladi. Buning ustiga tilda sinonimik variantlar borligi uchun uslubiy me'yorni belgilash imkoniyati mavjud [18,45].

Ana shu sinonimik variantlarni farqlashda amaliy yordam beradi. Frazologizmlar mohiyat e'tibori bilan asosan so'zlashuv va badiiy nutq mevasidir. Ulardagi boshqa uslubga xos chegaralanishlar esa ma'lum muddat keyin yuzaga keladi. Masalan, birgina o'lmoq ma'nosini anglatadigan yuzga yaqin frazeologizmlar sinonimik qatorining paydo bo'lishi ularning vazifaviy chegaralanish imkoniyatini tug'diradi. Masalan bu tizimga kiradigan olamdan o'tmoq, dunyodan o'tmoq, omonatini topshirmoq, qulog'i ostida qolmoq, jon bermoq shakllari so'zlashuv uslubida ishlatilsa, vafot etmoq, hayotdan ko'z yummoq, dunyodan ko'z yummoq, hayot bilan vidolashmoq kabilar ilmiy, ommabop va rasmiy uslublarda uchraydi. Alloh rahmatiga yo'l tutmoq, shahodat sharobini ichmoq, dorilfanodan dorilbaqoga rixlat qilmoq singarilar esa badiiy matnga tegishlidir.

Agar badiiy adabiyotda, xususan she'riyatda ishlatilib kelinayotgan eskirgan so'zlarni bu uslubning muhim lisoniy alomatlaridan deb hisoblash mumkin bo'lsa, dialektizmlarning ishlatilishi adabiy til me'yoriga muvofiq kelmaydi.

Kichik bir xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, badiiy uslubda adabiy til boyliklaridan foydalanibgina qolinmasdan, undagi ko'plab birliklarning tilda me'yorlashuviga, adabiy tilning boyib, rivojlanib borishiga doimiy ravishda ta'sir o'tkazib turadi.

1.2. USLUBIYAT TARIXI VA OLIMLARNING FIKRLARI

Uslubiyatni o‘rganish tarixi Sharqda, jumladan, O‘zbekistonda ham ancha qadimiylidir. Uslubiyat garchi hozirgiday alohida soha sifatida shakllanmagan bo‘lsa ham, biroq tilshunoslik (sarf, nahv, lug‘at), adabiyotshunoslik (ilmi bade‘, sharh tafsir), shuningdek, ilmi insho, ilmi munozara, voizlik san‘ati kabi fanlar tarkibida o‘rganib kelingan. Abu Mansur Saolibiyning «Muntaxab ul-ijoz vad a‘joz» (XI asr), Abulqosim al-Lays Samarqandiyning “Risalat ul-istiorat” (XV asr), Xondamirning “Nomai nomiy” (XV asr), Mahmud Giloniyning “Manozirat ul – insho” (XV asr), Sodiq Jondoriyning “Kitob ul –insho” (XVIII asr) kabi asarlari stilistik tadqiqotlarga bag‘ishlagandir. Rus tilshunosligida uslubiyat XIX asr tilshunoslari A.A.Potebnya, Sh.Balli, K.Fossler, keyinchalik V.V.Vinogradov ishlarida o‘rganildi.

Ingliz tili davri 1500-yillardan boshlangan. Til taraqqiyotida muhim hisoblangan bu davr Angliya xalq xo‘jaligida, siyosiy hamda madaniy hayotida Katta va muhim o‘zgarishlar yuz bergan. Bu davrda ingliz tili adabiy taraqqiyoti uchun salmoqli hissa qo‘shgan Xristofor Marlo, Vilyam Shekspir, Ben Jonson kabi buyuk yozuvchi shoirlar ijod qildi.

O‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligida til uslubiyati bilan bog‘liq nomzodlik va doktorlik ishlari, o‘nlab ilmiy asarlar yuzaga keldi va uslubiyat fanining alohida soha sifatida rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Bu borada o‘zbek tilshunos olimlari Ayub G‘ulomov, Sh.Shoabdurahmonov, I.Qo‘chqortoyev, A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, H.Rustamov, Y.Tojiyev. E.Qilichevlarning xizmatlarini alohida ta‘kidlab o‘tish joizdir.

Uslubiyat filologiyada adabiyotshunoslik va tilshunoslik o‘rtasidagi oraliq fan bo‘lib, fikrni, maqsadni har bir sohaning o‘z talablariga mos ravishda til vositalari orqali aniq, ravon, ixcham va mukammal ifodalab berish san‘atini o‘rganadi.

B.O‘rinboyev ham «Funksional uslubiyat va uning mohiyati» asarida ushbu masalaga to‘xtaladi: «Hozirgi o‘zbek tilidagi uslublar quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

I. Til uslublari.

1. Kitobiy uslub;

2. So‘zlashuv uslubi.

II. Nutq uslublari.

1. Asosiy kommunikativ uslub. Bu uslubga o‘z navbatida:

a) so‘zlashuv nutqi uslubi;

b) ilmiy nutq uslubi;

v) gazeta – publisistik uslubi;

g) rasmiy – ish nutqi uslubi kiradi» [19,32-33].

N.A.Baskakovning quyidagi mulohazalari turkiy tillarda uning yana boshqa turlari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi: «Turkiyning har bir mahalliy varianti stilistik sistemalari, birinchidan, ham prozaik, ham poetik janr tiplari va ko'rinishlarining ulkan rivoji va murakkablashishi bilan, ikkinchidan, barcha funksional uslublarning;

1. ilmiy – publisistik, (tarixiy) jug'rofiy, filologik xarakterdagi prozaik va poetik traktatlar, tabiiy va aniq fanlar bo'yicha prozaik hamda poetik asarlar va boshqalar;

2) badiiy (prozaik va ulkan darajadagi poetik asarlarning ko'plab poemalar, dostonlar, g'azallar, muxammaslar, soqiynomalar, qit'alar, ruboiylar, tuyuqlar kabi har xil turlari va xillari);

3) xizmatga doir (farmonlar, tarxon yorliqlari, nomalar, turlicha diplomatik hamda huquqiy hujjatlar va boshqalar);

4) diniy uslub (vaqf hujjatlar, diniy falsafiy va huquqiy asarlar, tafsirlar, imomlarning diniy murojaatlari kabi) larning ko'plab poetik va prozaik janr ko'rinishlari shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Funksional uslublarning bu barcha tiplari va ko'rinishlari o'rta va yangi davr yozma va og'zaki turkiy tillarda sezilarli darajada ko'pchilik turkiy xalqlar uchun rasmiy din bo'lgan islom ta'sirida, u orqali esa o'sha davrda amalda bo'lgan qoidalar – adabiy yozma, qisman og'zaki, arab va fors tillari ta'sirida shakllandi [20,57].

Ko'rinadiki, o'zbek tilidagi vazifaviy uslublarga doir qarashlar umumlashtiriladigan bo'lsa, uslublar dastlab og'zaki va yozma shakllarga, ularni yana o'z navbatida ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy, diniy va so'zlashuv kabi ko'rinishlarga ajratish haqida qarashlar mavjud. Hozircha ulardan beshtasi – ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy, so'zlashuv uslublari va ularning me'yoriy xususiyatlari, til materiali sifatidagi hamda nutq jarayonidagi o'ziga xosliklari o'zbek tilshunosligida monografik yo'nalishda o'rganilgan [20,68].

Ammo diniy uslub o'zbek tilida haqiqatdan mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, uning lingvostilistik xususiyatlari nimalardan iborat, degan masala hozircha o'rganilgan emas.

Mavjud materiallar asosida har bir uslubning me'yoriy xususiyatlari to'g'risida qisqacha ma'lumot berish mumkin bo'ladi. Bu o'rinda biz R. Qo'ng'urov, S. Karimov, T. Qurbonovlarning «O'zbek tilining funksional stillari» kitobidan ham foydalanamiz [7,76].

1.3. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'ZLASHUV STILI.

Har qanday til ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: o'gzaki va yozma. Tabiiyki, tilning o'gzaki shakli tilning yozma shaklidan farq qiladi. Bunda ko'pincha so'zlashuv stiliga xos so'z va iboralarga e'tibor beriladi. Biz so'zlashuvda ko'pincha ba'zi so'zlarni qisqartirib berilganini ko'ramiz: ingliz tilida: It's no use; don't be silly; you'd better mind your business; I do wish, mum, I'd brought my camera: so what's wrong? Sorry the bridge is out of order, etc. O'zbek tilida-obke (olib kel), jichcha (ozgina), obor (olib bor). Og'zaki nutqda undovlar, ayniqsa, so'zlashuv uslubiga xos so'z birliklariko'p ishlatiladi. Masalan, How about the bags! Why do you come here! You'll buy it for a song! I lost my head-I've got it very badly! Step aside, boy! No wonder! See? OK. Bob, keep to the point. I couldn't be worse-It might be worse! O'zbek tilida: Obbo, azamat-e! Iya! Balli! Yashang, o'rgilay! Aylanay! Mayli! kabilar.

So'zlashuv uslubi uchun xos bo'lgan eng asosiy xususiyat bu uslubda adabiy til me'yorlariga rioya qilinishi va nutqning dialogik xarakterda ekanligidir. Bu uslub uchun xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilar:

- 1) uslubiy bo'yoqdor so'zlardan foydalaniladi: do'ndiq, vaysamoq, bashara kabi;
- 2) nutq jarayonida tovushlarning tushib qolishi, orttirilishi kuzatiladi: matbachi (matbaachi) mazza (maza), haqqi (haqi) kabi;
- 3) izohlovchilardan ko'proq foydalaniladi: Salima opa, Toshpo'lat do'xtir kabi;
- 4) iboralar, maqol, matal, hikmatli so'zlar ko'p uchraydi: jonim chiqdi, boshi ochiq,... kabi;
- 5) so'zlar tarkibidagi unli, undoshlarni cho'zish: ka-a-atta, huv-v-v kabi;
- 6) gap bo'laklarining tartibi erkin bo'ladi, to'liqsiz gaplardan, undalmali gaplardan foydalaniladi.

Nasriy, nazmiy va sahna uchun mo'ljallangan dramatik asarlar badiiy uslubda bo'ladi. Badiiy asarlar kishiga ma'lumot berishi bilan birga obrazlar vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi. Badiiy uslub aralash uslub hisoblanadi, chunki bu uslubda yozuvchi tilda mavjud bo'lgan vositalarning hammasidan foydalana oladi. Hatto tasvirlanatgan davrning ruhini yoki nutq momentida asar qahramonining holatini tasvirlash uchun eskirgan so'zlar, vulgarizmlar, shevaga xos so'zlardan ham foydalanishi mumkin.

Barcha nutq uslublari o'zaro aloqador bo'lib, bir uslubda boshqa nutq uslublarning ko'rsatkichlari ham uchraydi. Ayni zamonda har bir uslub o'ziga xos fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarga ega.

Soʻzlashuv uslubida hamda badiiy uslubda fonetik vositalardan koʻproq foydalaniladi. Fonetik vositalar deganda baʼzi nutq tovushlari, urgʻu, ohang va ularning nutqiy taʼsirchanligi tushuniladi.

Soʻzdagi unilarning choʻzib talaffuz qilinishi ajablanish, taʼkid, kuchaytirish, hayajon, olqish, erkalash, yalinish kabi konnotativ maʼnolarni ifodalaydi. Chunonchi, Qorakoʻz opa, sizga xat! Katta konvertida xat!!! (N.Qobul) Undoshlarni ikkilantirish kuchli hayajonni, qoʻrquv yoki nutqiy kamchilikni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, Boʻla qoling, sovqotib ketdim-ku! (M.Ismoilij)

Uyda, koʻchada, insonlarning oʻzaro soʻzlashuvida qoʻllanadigan uslub soʻzlashuv uslubi deb ataladi.

Soʻzlashuv uslubida llugʻaviy va iboraviy usullar tasnifi masalasi uzuksiz muhokama qilinib kelinmoqda. Koʻpchilik tilshunoslar anʼanaga binoan soʻzlashuv uslubinig koʻplab turlarini farqlab kelmoqda.

Soʻzlashuv stilining ikki xil koʻrinishi bor;

1. Adabiy soʻzlashuv stili. Bu uslubning til meʼyorlariga rioya qiladigan koʻrinishi.
2. Oddiy soʻzlashuv stili. Bunda nutq meʼyorlariga rioya qilinmaydi.

Adabiy soʻzlashuv stilida oʻqituvchilar, suxandonlar, jurnalistlar, ilmiy xodimlar, yozuvchi va shoirlar, rahbar xodimlar, artistlar gaplashadilar. Bu stil dars jarayonida, sahna nuqtida, kino sanʼatida, telefilmlar, axborotlar, teleocherklar, radiointsenirovkalarda ishlatiladi. Adabiy soʻzlashuv stilida jargon va sheva soʻzlari boʻlmaydi.

Oddiy soʻzlashuv stilida betakalluflik bilan erkin muomala qilinadi. Bunda shunday soʻzlar ishlatiladiki, ular adabiy tilda boʻlmasligi mumkin. Lekin bunday soʻzlar badiiy nutqda ayrim personajlar nutqining oʻziga xosligini taʼminlash uchun qoʻllanishi mumkin. Oddiy soʻzlashuv nutqi dialektal nutqni ham aks ettiradi. Soʻzlashuv uslubidagi nutq koʻpincha diologik shaklda boʻladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning luqmasidan tuzilgan nutq diologik nutq deyiladi. Soʻzlovchi qaysi dialekt vakili boʻlsa, shu dialektda gapirishi mumkin.

Soʻzlashuv uslubida koʻpincha turli uslubiy boʻyoqli soʻzlar, grammatik vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin: Kep qoling! Obbo, hamma ishni doʻndiribsiz-da! Mazza qildik! Ketaqool!

Soʻzlashuv uslubida gapdagi soʻzlar tartibi ancha erkin boʻladi, piching qochiriqlar, kinoyalar koʻplab ishlatiladi. Koʻproq soda gaplar, toʻliqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

Koʻrinadiki, oʻzbek tilidagi vazifaviy uslublarga doir qarashlar umumlashtiriladigan boʻlsa, uslublar dastlab ogʻzaki va yozma shakllarga, ularni yana oʻz navbatida ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy, diniy va soʻzlashuv kabi koʻrinishlarga ajratish haqida qarashlar mavjud.

Hozircha ulardan beshtasi – ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy, so'zlashuv uslublari va ularning me'yoriy xususiyatlari, til materiali sifatidagi hamda nutq jarayonidagi o'ziga xosliklari o'zbek tilshunosligida monografik yo'nalishda o'rganilgan[26,385].

So'zlashuv uslubi kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos tarzda amal qilishidir. Uni ma'lum ma'noda tildagi boshqa uslublarga qarama-qarshi qo'yish mumkin.

Bu uslubning o'ziga xos xususiyati nutq jarayonida til va tildan tashqari omillarning uyg'un bo'lishida ko'rinadi. Ayni paytda, bu holat so'zlashuv uslubidagi me'yoriy holatlarni belgilashni qiyinlashtiradi. Chunki tildan foydalanuvchining shaxsi, buning ustiga, nutqiy vaziyat yagona bir me'yorni tayin etishga imkon bermaydi.

Shunday bo'lsa-da, so'zlashuv uslubining o'ziga xos me'yorlari haqida mulohaza yuritish uchun ham tilimizda dalillar yetarli. Ammo nima bo'lganda ham bu me'yorlarni so'zlashuv uslubi uchun muhim bo'lgan til va tildan tashqari omillarning uyg'unligidan axtarish bizni asl maqsadga yaqinlashtiradi.

Xo'sh, so'zlashuv uslubi qanday o'ziga xosliklarga ega? Birinchidan, nutq elliptik karakterda bo'ladi. Lekin bunday holatda ham tinglovchiga fikr tushunarli bo'ladi. Chunki u oldin aytilgan fikrning mantiqiy davomi bo'ladi. Masalan, qorami? ko'kmi? shaklida beriladigan savolni ikki xil vazifada olib ko'raylik. Agar biz uni uy bekasi tilidan eshitsak, qora choy damlaymi yoki ko'k choy damlaymi? degan ma'noda tushunishimiz mumkin. Xuddi shu savolni do'kon sotuvchisi tilidan eshitsak, qora choy olsizmi yoki ko'k choy sotib olmoqchimisiz? ma'nosida tushunishimiz ham mumkin.

Ikkinchidan, so'zlashuv nutqida til birliklari o'zining ekspressivlik imkoniyatlarini keng namoyish qiladi. Masalan, ulguramizmi ? degan savolga yo'q, ulgurmaymiz deyishdan ko'ra vaziyatdan kelib chiqib, ulgurib bo'pmiz, ulgurish qayoqda, ulgurib ham bo'ldik singari javoblar birmuncha tabiiy va ekspressivroq bo'lib chiqadi.

Uchinchidan, bu uslubda ohang - intonsiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ohang og'zaki nutqning reallashuvida til birliklaridan keyingi muhim, hal qiluvchi vosita bo'lib, uning nutq tempi, pauza, ton, melodiya, tovush tembri, so'z va gap urg'usi kabi ko'rinishlari ma'noni farqlashda, ottenkalarni ajratib ko'rsatishda, hayajonni kuchaytirishda xizmat qiladi.

So'zlashuv uslubi ham boshqa vazifaviy uslublar kabi fonetik, leksik, grammatik o'ziga xosliklarga ega.

Nutqda tovushlarning uyg'unlashuvi (ketti, ottan, yigichcha), bir tovush o'rnida ikkinchisining talaffuz qilinishi (traktir, zaril, birona), tovushlarning o'rin almashishi (turpoq, aynalmoq), tovushlarning orttirilishi (o'ramol, fikir, banka), tushirib qoldirilishi (gazet, burni, egni) kabi fonetik hodisalar avvalo so'zlashuv uslubida namoyon bo'ladi.

So'zlashuv uslubi leksikasida ikki qatlam alohida ajralib turadi. Birinchi qatlam – bu kundalik turmush muomalasida faol qo'llaniladigan ijtimoiy hayot va uy-ro'zg'or yumushlari bilan bog'liq so'zlar. Bundan tashqari bu uslubda «...siyosat, san'at, madaniyat, sport va so'zlovchining kasb-hunarga mansub xilma-xil narsa va hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika ko'plab ishlatiladi» [22,35].

Ikkinchi qatlam - og'zaki nutqdagi ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar. Ular neytral qiymatdagi so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi: kichkina (bolagina), yiqildi (quladi), buzoq (ish bilmas, galvars), og'zi ochiq (yig'loqi) kabi.

Bu uslubning burnini ko'tarmoq, ko'zini shira bosmoq, qo'li kaltalik qilmoq singari o'z frazeologizmlari mavjud. Kishi nomlari Abdi, Bek, Zuli, Dili singari qisqartirib ishlatish mumkin. So'zlarning metonimik ko'lamini juda keng tarqalgan. Masalan: auditoriya kuldi, kengash bo'ldi, dasturxonga o'tirdi, samovarga chiqdi kabi.

So'zlashuv uslubida nutqiy vaziyatning ahamiyati juda katta. Salom, assalomu alaykum, vaalaykum assalom, xayr, ha, yo'q, albatta, aha, xo'p singari so'zlar nutqda ko'p ishlatiladi.

So'zlashuv nutqi o'zbek tilshunosligid B.O'rinboyev tomonidan anchagina durust ishlangan. Bu nutq kitobiy nutqdan bir qadar farq qilib, Asal, asal, barmog'ingni tishlab olasan; Ish, faqat tugmachani bossang bas; Kechaday kecha; Boladay bola kabi.

Kitobiy nutq uchun bog'lovchisiz qo'shma gaplar odatda xos emas, og'zaki so'zlashuv nutqi uchun esa, aksincha, xarakterlidir. So'zlashuv nutqidagi sodda gaplar ko'pincha fe'l bilan ifodalangan kesimning yo'qligi bilan xarakterlanadi. Hatto ba'zan shunday holatlar ham bo'ladi, bunday gaplarga fe'l-kesimni qo'yib ham bo'lmaydi. Masalan, Biz siznikiga. Biz magazinga; Men, odatda ishga avtobusda, ishdan piyoda kabi.

Bu stilda ishlatiladigan faol so'zlar lug'at tarkibining asosiy qismini tashkil etadi. Bunday so'zlar uyda, ko'chada, ishxonada, bozorda, to'y-tomoshada ishlatiladi. So'zlashuv stilida qo'llanadigan asosiy so'zlar; **osh, non, suv, don, ovqat, tuz, shakar, go'sht, yer, osmon, quyosh, bring about, get off, go back to cram, kid, grub, flashpots, beans, bucks, shekels, jail, cage, can. Ona, bola, ota**, ingliz tilida: **to begin to dismiss, to eat, child, food money, prison** kabilar uslubiy bo'yoqsiz bo'lgani uchun neytral so'z hisoblanadi. Lekin bu stilda yana shunday so'zlar ishlatiladiki, ular yo ijobiy yoki salbiy bo'yoqqa ega bo'ladi. Masalan, **churvaqa, turq, bashara, kekkaymajon, jinqarcha, qaqajon, oyimtilla, pashshaxo'rda, itvachcha, tirrancha** kabilar salbiy bo'yoqqa, **jujuq, jiji, tabassum, oyim, begim, polvon, do'ndiqcha, bolatoy** kabilar ijobiy bo'yoqqa egadir.

So'zlashuv stilida qo'llanadigan juda ko'p fe'llar salbiy bo'yoqqa ega bo'ladi: **akillamoq, ming'illamoq, to'ng'illamoq, valdiramoq, bobillamoq, do'g'illamoq, andavalamoq**; ingliz tilida **hey, baby** kabilar.

Sifatlarning ham so'zlashuv uslubidagina qo'llanadigan variantlari mavjud: **po'rim, pismiqlik, mumsik, isqirt, so'tak, xomkalla, xumpar, zumrasha, qoqbosh, go'rso'xta** kabilar.

Shuningdek, **churq etmaslik (lom-lim demaslik), kallasi g'ovlab ketdi (miyasi g'ovlab ketdi), ta'bi nomozshom (ta'bi xira)** kabi iboralar ham so'zlashuv stiliga xos.

II BOB. LUG'AVIY IBORALAR VA BIRLIKLAR.

2.1. Ingliz va o'zbek tillarida leksik va frazeologik birliklar.

Har bir stil turi fonetik, leksik – frazeologik va grammatik xususiyatlarga ega. Shuningdek, so'zlashuv stilining ham shunday tomonlari bor.

Xozirgi zamon ingliz tili lug'ati tarkibida so'zlarning adabiy va og'zaki nutqqa xos guruhlar mavjud. Adabiy nutqqa oid so'zlar kitobiylik hususiyatiga, og'zaki nutqqa oid so'zlar so'zlashuv uslubi leksikasiga oid so'zlarni bo'lib, umumiylik hususiyatiga ega bo'ladi. Bu ikki qatlamning har biri o'z tasnifiga ega.

Adabiy nutq leksikasi: umumiy adabiy so'zlar, atamalar, poetic so'zlar, arxaik (eskirgan) so'zlar, o'zlashtirma so'zlar, chatishmalar va yangi so'zlarni qamrab oladi.

Og'zaki nutq leksikasi deganda og'zaki nutqda qo'llaniluvchi leksika tushuniladi. Bunga umumiste'moldagi so'zlar bilan birga slang, jargonizmlar, professionalizmlar, dialektizmlar, vulgarizmlar, evfemizmlar kiradi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ko'pgina o'zlashtirma so'zlar oldiniga og'zaki nutqda qo'llanib, keyinadabiy nutqqa o'zlashadi. Yangi so'zlarning adabiy me'yorga aylanishi og'zaki nutqda keng qo'llanilishi natijasida sodir bo'ladi.

O'zlashtirma va chet tili so'zlari o'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlardir. Ko'pincha o'zbek tilida bu so'zlarning muqobillari bo'ladi:

Experience-eksperiment-tajriba;

Conference-konferensiya-yig'ilish, anjuman;

Specialist-spetsialist-mutaxassis;

Stile-stil-uslub.

Bu so'zlar boshqa so'zlar qatorida o'zbek tili lug'at tarkibini tashkil etadi. Masalan, o'zbek tilidagi fransuzcha so'zlar: shantaj, shovinizm, reportaj. Chet tili so'zlarining ko'pi atama vazifasida keladi: omonimlar, sinonimlar, antonimlar. Chet tilidan o'zlashgan asosiy so'zlarning asosiy vazifasi maxalliy ruhni yaratish bo'lib, yozuvchilar o'z asarlarida qaysi mamlakat hayotini aks ettirayotgan bo'lsalar, osha mamlakat yoki xalq tilidagi so'zlardan foydalanishga harakat qiladi. O'zlashtirma va chet tili so'zlari o'zbek so'zlashuv tilida Keng qo'llaniladi.

Leksik ifod avositalariga quyidagilarni kiritish mumkin: emotsional ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, sleng, turli undov so'zlar va boshqalar.

Leksika so'zi yunoncha leksis so'zidan olingan bo'lib, so'z degan ma'noni bildiradi. Leksikologiya so'zi esa, leksis-so'z, logos-fan ta'limot degan ma'nolarni bildiradi. Demak leksikologiyaso'z va uning ma'nosi haqidagi ta'limot ekan.

Har bir til o'zining leksik sistemasiga ega. Ingliz tilidagi bir so'zning bergan ma'nosi o'zbek tilida topilmasligi mumkin. Til-umumiy, nutq esa xususiy hodisadir. Nutq ikki shaklda bo'ladi: og'zaki va yozma. Og'zaki nutq bevosita, yozma nutq bivosita amalga oshiriladi.

Xalq tili o'zbek xalqining so'zlashuv nutqidir. Xalq tili tarkibiga adabiy til ham kiradi. Xalqning asosiy til boyligi adabiy til hisoblanadi. Adabiy til xalq tilining fonetik, talaffuz, lug'aviy va grammatik jihatidan me'yorlashtirilgan eng yuqori shaklidir. Adabiy til me'yorlari va qoidalari shu xalq tilida so'zlovchilar uchun umumiy bo'ladi.

Adabiy tilning ham ikki ko'rinishi mavjud: og'zaki adabiy til (radio, televideniye); yozma adabiy til (matbuot tili).

O'zbek tiliga oid dastlabki yozma yodnomalar (O'rxun-Enasoy yozuvlari) V- VIII asrlarga oiddir.

Tildagi so'zlarning qo'llanishi bir xil darajada emas. Qo'llanish doirasi jihatidan o'zbek tili leksikasi ikki xil bo'ladi:

1. Umumiste'mol leksikasi (iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika)
2. Iste'mol doirasi chegaralangan leksika.

Umumiste'mol leksikasi. O'zbek tili lug'at tarkibini asosan shu tilda so'zlashuvchilar uchun tushunarli bo'lgan va barcha o'rinlarda qo'llanadigan so'zlar tashkil etadi. Bunday so'zlar umumiste'mol leksikasi yoki qo'llanish doirasi chegaralanmagan leksika deyiladi. Masalan: ota, ona, shirin, uch, to'rt, men, kelmoq, bormoq, aytmog, son, kun, ish, payt, tun, bugun, erta va h.k.[23,39].

Iste'mol doirasi chegaralangan leksika. Iste'mol (qo'llanish) doirasi chegaralangan leksika uch xil bo'ladi: 1) dialektal leksika; 2) terminologik leksika; 3) jargon va argolar.

Ma'lum hududda qo'llanilib, shu hudud (territoriya) aholisi (vakillari) uchungina tushunarli bo'lgan so'zlar sheva so'zlari yoki dialektal leksika deyiladi. Bunday so'zlar dialektizmlar ham deb yuritiladi.

Sheva so'zlari adabiy tildan uch xususiyatiga ko'ra farqlanadi:

- a) fonetik xususiyatiga ko'ra: aka-oka, bola-bala, dada-doda, kovush-govush, edi-jedi.
- b) leksik xususiyatiga ko'ra: kartoshka-barang, yong'oq-g'o'z, g'isht-karvich, buzoq-o'jak, narvon-shoti.
- v) grammatik xususiyatiga ko'ra: oshni-oshti, kelyapti-kevotti, boramiz-boravuz, bobomga-boboma.

Ba'zi so'zlar adabiy til va dialekt(sheva) da qo'llangani holda, adabiy tilda shevadagidan o'zgacha ma'noda ishlatiladi. Masalan, irkit; adabiy tilda: "kir, iflos"; shevada: "ayron xalta" ma'nosini bildiradi. Tavoq; adabiy tilda ichi chuqur idish; Farg'ona shevasida "lagan" ma'nosida qo'llanadi.

Bir-biriga yaqin bo'lgan shevalar yig'indisi lahja deyiladi. O'zbek xalq shevalari uchta lahjaga birlashadi.

Qarluq lahjasi. Bu lahjaga Farg'ona, Toshkent tipidagi shahar shevalari kiradi. Bu lahjaga kiruvchi shevalar "y-lashgan" deb ham yuritiladi.

Qipchoq lahjasi. Bu lahjaga kiruvchi shevalar "j-lashgan" ham deyiladi. Negaki, so'z boshidagi y o'rnida asosan j qo'llanadi; yo'ldosh-jo'ldosh, yil-jil, etti-jetti.

O'g'uz lahjasi. Bu lahjaga Xorazm, turkman shevalari kiradi. Bu shevalarda so'z boshidagi jarangsiz undosh jaranglilashadi: tovush-dovush, kuch-guch.

O'zbek adabiy tiliga qarluq lahjasi: fonetik jihatdan Toshkent, morfologik jihatdan Farg'ona shevasi asos bo'lgan.

Dialekt va shevalarning o'ziga xos jihatlari dialektologiya bo'limida o'rganiladi.

Terminologik leksika

Professional va ilmiy terminlar terminologik leksikani tashkil etadi. Ilm-fan, texnika, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi bo'lgan so'z yoki birikma termin deyiladi. Terminlar ikki xil bo'ladi:

a) professional terminlar. Ma'lum kasb-hunarga va mutaxassislikka oid monosemantik so'zlar professional terminlar hisoblanadi: masalan, charm, rezgi, shirach (etikdo'zlik), angob, loya, taqsir, gulbo'ta, bargi bodom (kulolchilik); zehdo'zlik, piltakach, yo'rmado'zlik, bichiqchi, tarhkash(kashtachilik) kabi.

b) ilmiy terminlar. Har bir fan o'ziga xos terminga ega. Tilshunoslikda: fonema, fonetika, ega, kesim; matematikada: kub, kvadrat, plyus.

3. Jargon va argolar

Ma'lum tabaqa (sinf) vakillari nutqida qo'llanadigan so'zlar jargonlar deyiladi. Masalan, shoe' qiling-bildiring, tanzil-foйда.

Argolar qiziqishlari, mashg'ulotlari, yoshlari bir xil bo'lgan ma'lum tor doiradagi guruh vakillari qo'llaydigan so'zlardir. Ular umumxalq tiliga oid so'zlarni boshqa ma'noda qo'llashadi. Otarchilar, o'g'rilar, savdogarlarning o'z argolari mavjud. Masalan, a) otarchilar argosidan; yakan (pul), joyi (yo'q), dah (yaxshi); b) o'g'rilar argosidan: loy(pul), ligavi (milisiya), harif (pul egasi, o'g'rilik ob'ekti); d) savdogarlar argosidan: sar yoki sarpiyoz (ming so'm), kapara (olti ming so'm); e) bezorilar argosidan: zamri (jim tur), hamka (non), deshevka (chaqimchi). Bu kabi sinflar, uyushma va to'dalar yo'qolishi bilan argo va jargonlar ham yo'qoladi.

Emotsional-ekspressivlik jihatdan o'zbek tili leksikasi

Emotsional-ekspressivlik his-tuyg'u, munosabat ifodalash demakdir. O'zbek tilidagi ba'zi so'zlar so'zlovchining munosabatini ham ifodalaydi, ba'zilarida munosabat sezilmaydi. Shu jihatdan so'zlar ikki xil bo'ladi:

1) emotsional-ekspressiv bo'yoqsiz so'zlar;

2) emotsional-ekspressiv buyoqdor so'zlar. Bo'yoqsiz so'zlarda faqat tushuncha, ma'no ifodalanadi. So'zlovchining munosabati sezilmaydi. Bunday so'zlar bo'yoqsiz yoki neytral so'zlar deb yuritiladi. Bo'yoqdor so'zlarda so'zlovchining munosabati ham ifodalanadi. Munosabatning xarakteriga ko'ra bo'yoqdor so'zlar ikki xil bo'ladi: a) ijobiy bo'yoqdor so'zlar: chehra, jamol. b) salbiy bo'yoqdor so'zlar: badbashara, badburush, naynov, qiltiriq, kampirdahan.

Noadabiy qatlamlar

Jonli (so'zlashuv) tilda uchraydigan, keng iste'molda qo'llanmay, ayrim shaxslarning xulq-atvorini, tabiatini ko'rsatib turadigan so'z va iboralar noadabiy qatlam hisoblanadi. O'rinsiz iboralar, qarg'ash, so'kish, argo, jargon, varvarizmlar noadabiy qatlam hisoblanadi. Masalan: "Xo'jayinimizning tusini el esin...", "Boshqa vaqtda zvonit qiling..."

Varvarizm (lat. "ajnabiy")-boshqa tillardan olingan so'z va iboralarni o'rinsiz qo'llash. Masalan: momoy, babulya, bratishka, gardkam, mersi, danke...

Vulgarizm (lat. "dag'al")-adabiy tilda ishlatilmaydigan yoqimsiz, qo'pol so'zlar, noto'g'ri jumlar: Ey, sharmanda, benomus, bebosh.

Vulgarizm ham noadabiy qatlamga kiradi.

Tasviriy ifodalar

Nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun qo'llanadigan ifodalar tasviriy ifodalar deyiladi. Tasviriy ifodalar asosan ot turkumidagi so'zlar bilan ifodalanadi: matematika, shaxmat-aql gimnastikasi; yozuvchi, shoir- qalam ahli; rassom-mo'yqalam sohibi; archa-o'rmon malikasi; makkajo'xori-dala malikasi; paxta-oq oltin; ko'mir, neft-qora oltin; paxta terish mashinasi-zangori kema; osmon-moviy gumbaz.

Frazeologiya bo'limi, o'zbek frazeologiyasining taraqqiyoti, o'zbek frazeologiyasiga muhim hissa qo'shgan tilshunos-olimlar, frazeologik ma'no, ibora, frazeologik polisemiya, qarama-qarshi ma'noli iboralar, iboralar sinonimiyasi, frazeologik paronimiya va paroforma, iboralar omonimiyasi va polisemiya, iboralar variatsiyasi, frazeologizmlarning grammatik xususiyatlari, kalkalash va tarjima.

Frazeologiya – tilshunoslikning mustaqil sohasi bo'lib, leksikologiya bag'ridan XX asrning 50-yillaridan boshlab mustaqil bo'lim, yangi soha sifatida ajralib chiqdi. Frazeologiyaning alohida lingvistik yo'nalish bo'lib shakllanishida, jumladan, o'zbek frazeologiyasining dunyoga kelishida V.V.Vinogradovning muhim xizmatlari bor. Chunki, sobiq sho'rolar davrida mustamlaka xalqlar tillari frazeologiyasi shu olim ta'limoti asosida paydo bo'ldi. Bu sohaning rivojlanishida akademik A.Shaxmatov, V.Vinogradov, A.Yefimov,

N.Shanskiylar, o`zbek tilshunosligida esa Sh.Raxmatullayev, Y.Pinxasov, M.Husainov, I.Qo`chqortoyev, B.Yo`ldoshev kabi zabardast olimlar ulkan xizmat qildilar.

O`zbek frazeologiyasining izchil ilmiy asosda tadqiq qilinishi Sh.Raxmatullayev nomi bilan bog`liqdir. Olim bu sohaga bag`ishlangan bir qator tadqiqotlari bilan milliy frazeologiyamizning yaratilishiga asos soldi. Jumladan, olimning quyidagi tadqiqot ishlari mavjud: «O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati» (T., 1978), «O`zbek tilining qisqacha frazeologik lug`ati» (T., 1964), «O`zbek frazeologiyasining ba`zi masalalari» (T., 1966), «Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного ўзбекского языка» (M., 1952), «Hozirgi zamon o`zbek tili» (T., 1957), «Frazeologik birikmalarning asosiy ma`no turlari» (T., 1955) va h.z.

Shuningdek, Y.Pinxasov ham frazeologizmlarni o`rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Olimning – « Фразеологические выражения в языке произведений Хаида Алимжана» (T., 1953), «Hozirgi o`zbek adabiy tili» (Leksikologiya va frazeologiya.) (T., 1969), «O`zbek tili frazeologiyasi haqida» (T., 1957) kabi asarlari tilshunoslik hazinasidan o`rin olgan.

2.2. SO'ZLASHUVDA LEKSIK-FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING VAZIFALARI

O'zbek frazeologiyasining yangi muvaffaqiyatlarga erishuvida B.Yo`ldoshev, Abdumurod va Abdug'ofur Mamatovlarning xizmatlari katta bo'ldi. B.Yo`ldoshev frazeologizmlarning konnotativ ma'nolari, badiiy tasvir vositasi sifatidagi imkoniyatlarini atroflicha yoritib berdi. Abdumurod Mamatov frazeologik norma muammosini ko'tarib chiqdi va frazeologik norma hamda frazeologik variant o'rtasidagi munosabatni ko'rsatib berdi. Abdug'ofir Mamatov esa, o'zining qator asarlarida frazeologik shakllanish muammolarini o'rtaga qo'ydi va uning paydo bo'lish omillarini yoritib berdi. Frazeologizmlarning muhim farqlovchi belgisi mazmuniy qayta shakllanish ekanligini ko'rsatdi.

Ma'lumki, til birliklari shakl va ma'no munosabatida yashaydi. Til birligi bo'lishi uchun ma'lum shaklga ma'lum bir ma'no birlashtirilgan bo'lishi kerak. Shunga ko'ra so'zlar leksik ma'no va grammatik ma'noga ega. Leksik ma'no – biror bir predmet, harakat-holatni yoki shularga mansub belgi-xususiyatlarni nomlovchi ma'no bo'lsa, grammatik ma'no leksik ma'nolarni bir tur, turkum ostida birlashtirish, umumlashtirish hodisasini namoyon etadi.

Odatda, ikki va undan ortiq mustaqil so'zning semantik va grammatik jihatdan aloqaga kirib, ma'lum tushuncha yoki tasavvurni, ba'zan nisbiy tugal fikrni bildiradigan birliklar-so'zlar bog'lanmasi uch ko'rinishda ajratiladi:

1. Erkin so'zlar bog'lanmasi;
2. Qo'shma so'zlar bog'lanmasi;
3. Frazeologik bog'lanmalar.

Frazeologik bog'lanmalar yoki frazeologizmlar ikki va undan ortiq so'zning birikib ko'chma ma'no ifodalashidan tashkil topgan, gapda bir butun bo'lak vazifasida keladigan, yaxlitlashgan, tarkiban barqaror, tayyor, obrazli tasavvurlarga ega lug'aviy birliklardir. Iboralar kamida ikkita mustaqil so'zdan (leksemadan) iborat bo'ladi. Shunga ko'ra iboralar o'zining ifoda tomoni bilan so'zdan farq qiladi: so'zning material tomoni – tovush bo'lsa, frazeologizmnikisi so'zdir. Iboralarning ma'no planiga bittadan ortiq so'zlarning yaxlitligicha, ma'lum bir obraz asosida, ko'chim asosida semantik bog'lanishi hodisasi xos bo'lib, bu **frazeologik ma'no** deyiladi. Masalan, ko'zini ochmoq birikmasi frazeologik ma'noni mujassamlashtirgan:

1. Ko'zingni och! (uyg'on)
2. Ko'zingni och! (ogoh bo'l, g'aflatda qolma)

So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi:

- 1) shakl tomoniga ko'ra: omonimlar, paronimlar;
- 2) mazmun tomoniga qarab: polisemiya, antonimiya va h.z.[24,83].

Xuddi shuningdek, frazeologizmlarda ham shakl va mazmun munosabati aks etadi. Frazeologik sinonimiya, antonimiya, polisemiya, frazeologik paronimiya va omonimiya hodisalari mavjud.

Frazeologik ko`p ma`nolilik. Ikki va undan ortiq ma`noning iborada mavjud bo`lishi: **xayoliga kelmoq:**

- 1) «o`ylanmoq, fahmlamoq»;
- 2) «xotirasida tiklanmoq»;

o`ziga kelmoq:

- 1) «tushunmoq, anglamoq»;
- 2) «hushiga kelmoq, sog`aymoq».

Frazeologik polisemiyada ham, xuddi leksik polisemiyada bo`lganidek, bosh ma`no va hosila ma`no bo`ladi. Biroq frazeologik polisemiyadagi bosh ma`no ham ko`chma (obrazli) bo`ladi, chunki har qanday frazeologik ibora ko`chma ma`no asosida yuzaga keladi.

Iboralar sinonimiyasi. Shaklan, tarkiban har xil bo`lgan iboralarning mazmunan bir-biriga yaqin kelishi leksik sinonimiyaga juda o`xshab ketadi: yer bilan yakson qilmoq – kulini ko`kka sovurmoq – dabdala qilmoq...; boshdan-oyoq – ipidan-ignasigacha – miridan-sirigacha – ikir-chikirlarigacha – qilidan-quyrug`ichgacha...; Shu yerda iboralar mazmunan o`xshash bo`lgani bilan, ba`zi bir qirralarida, obrazlilik darajasida farq qilishi mumkinligi ko`rinadi: birinchi misolda kulini ko`kka sovurmoq iborasida frazeologik obrazlilik, bo`rttirish birmuncha kuchli.

Frazeologik sinonimlarni ibora variantlilikidan ajrata olish lozim: jonini hovuchlab – yuragini hovuchlab, esi chiqmoq – esxonasi chiqmoq, ko`ngliga tugmoq – yuragiga tugmoq, esidan ko`tarilmoq – xayolidan ko`tarilmoq kabi iboralar variantlar xolos. Odatda iboralar ma`nosi so`zga teng keladi: qochmoq – quyon bo`lmoq, dumini qismoq; shafqatsiz – bag`ri tosh; xursand – boshi osmonga yetmoq, do`ppisini osmonga otmoq, og`zi qulog`ida, terisiga sig`maslik, og`zining tanobi qochmoq va h.z.

Sizni qarang, men «to`rt» olsam, do`ppimni osmonga otgan bo`lardim! (O.Yoqubov. «Muqaddas».) Rizvon xola terisiga sig`may gapira-gapira o`choq boshida ivirsirdi (A.Muxtor. «Opa-singillar»).

Qarama-qarshi ma`noli frazeologizmlar. Bu hodisa iboralar orasida juda keng tarqalgan hodisa bo`lib, leksik antonimiyaga yaqin turadi:

Ko`kka ko`tarmoq – yerga urmoq, yuragi keng – yuragi tor, ko`ngli joyiga tushdi – yuragiga g`ulg`ula tushdi kabi.

Iboralar antonimiyasi ba`zan o`zaro zid ma`noli so`zlar asosida, ba`zida esa o`zga tarkibli iboralar orasida sodir bo`lishi kuzatiladi. Masalan, savol bermoq – javob bermoq, ko`kka

ko`tarmoq – yerga urmoq, ko`zi to`q – ko`zi och, kalavaning uchini yo`qotmoq – kalavaning uchini topmoq, ruhi ko`tarilmoq – ruhi tushmoq singari misollarda so`zlarning ma`noviy ziddiyati natijasida frazeologik antonimiya kelib chiqmoqda. Ko`ngli joyiga tushdi – yuragiga g`ulg`ula tushdi, jonini jabborga bermoq – qo`l uchida kabi misollar esa har xil tarkibli, grammatik tuzilishli birikmalararo zidlikni bildirimoqda.

Frazeologik iboralarda, shuningdek, shakldoshlik hodisasi ham mavjud bo`lib, ikki yoki uch ibora orasida yuzaga keladi. Masalan, bosh ko`tarmoq iborasi quyidagicha ma`nolarga ega:

1. Bosh (ini) ko`tarmoq. Zulfizar asta boshini ko`tardi (fizik harakat).
2. Qo`zg`olon. Xaloyiq bosh ko`tardi (isyon ma`nosi).

Boshiga ko`tarmoq birikmasi ham omonimiyani hosil qiladi:

1. Anvar onasini boshiga ko`tarib e`zozlar, maqtar edi (hurmat).
2. Bolalar butun hovlini boshlariga ko`tarib o`ynashar edi (to`polon, shovqin, tartibsizlik) [25,84].

Omonim iboralarning o`ziga xos jihati shundaki, bunday birikmalar ayni bir leksik ma`nosi bilan qatnashadi, ya`ni so`z komponentlarga yo sinonimlariga tayanib bo`lmaydi, balki iboralar asosida yotgan voqelikka, shu voqelikdan olingan obrazga suyaniladi. Masalan, ichagi uzildi (I) va ichagi uzildi (II) iboralaridagi so`z komponentlar ayni bir leksik ma`nosi bilan qatnashgan, ammo bu iboralar asosida boshqa-boshqa obraz yotadi: 1-iborada qattiq va uzluksiz kulganda ichaklar silkina-silkina uzilib ketgudek bo`lishidan, 2-sida esa uzoq muddat ovqatlanmaslik natijasida ichaklarning torayib, ingichkalashib, uzilish darajasiga yetishi obrazli tasvirlangan.

Iboralarning paronimligi ham mavjud. Ular frazeologik paronimlar yoki frazeologik paraformalar deyiladi. Masalan, jon kirmoq – joni kirmoq; esiga kelmoq – esiga keltirmoq; tumshug`ini suqmoq – tumshug`ini tiqmoq va h.z. Paronimlar o`zaro bir so`z-komponenti bilan farq qiladi:

- 1) tarkibidagi hol komponent boshqa-boshqa, ammo o`xshash so`z bo`ladi: yurag(i) tars yorilib keta yozdi – yurag(i) qoq yorila yozdi;
- 2) tarkibidagi to`ldiruvchi komponent boshqa-boshqa, ammo o`xshash so`z bo`ladi: o`z(i)ni qayerga qo`yishni bilmaslik – o`zini qayoqqa urish(i)ni bilmaslik;
- 3) tarkibidagi boshqaruvchi fe`l komponenti boshqa-boshqa, ammo o`xshash so`z bo`ladi: etti uxlab, tush(i)ga kirmaslik va etti uxlab tush(i)da ham ko`rmaslik; ikki oyog`ini bir etikka suqmoq – ikki oyog`ini bir etikka tiqmoq kabi;
- 4) Bizga ma`lumki, frazeologik iboralarning asosiy grammatik xususiyati gapda bir butun bo`lak vazifasida qatnashishidir: Ishongan bog`im, suyangan tog`im – sensan, bolam! (ega vazifasida). Ziyodani holi-joniga qo`ymay olib kelaverdim (hol vazifasida). Hamma joyga

birma-bir ko`z yugurtirib chiqdi (kesim o`rnida), Yuragi tosh ukangiz yaxshiligimni bilarmidi?! (aniqlovchi), Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi-ya... (gap).

Frazeologizmlar grammatik (sintaktik va morfologik) tuzilishi bilan farq qiladi. Ularning tarkibida ot, sifat, fe'l va boshqa so`z turkumlari ishtirok etadi hamda komponentlarining sintaktik birikuvi ham turlicha bo`ladi: olam guliston, ta'bi xira, kayfi buzuq, tepsa-tebranmas, qorasi o`chmoq, yuragi qora, o`ziga kelmoq, o`rtaga tashlamoq, katta gapirmoq kabilar. Tarkibida taqlid so`zlar bo`lgan frazeologizmlar alohida obrazlilik bilan ajralib turadi: yuragi duk-duk qilmoq. Ba'zi frazeologizmlarning tarkibida boshqa tillardan kirgan so`zlar ham ishtirok etishi mumkin: infarkt qilmoq, gapning indallosini aytmoq, doklad o`qimoq.

Xususan, iboralarning kalkalash asosida voqe bo`lishi ham grammatik omildir:

a) to`liq kalkalar: bir ovozdanda (ruscha единоголасно, единодушно), ko`zga tashlanmoq (бросаться в глаза), o`rniga keltirmoq (tojikcha bajo ovaridan);

b) yarim kalka: dil(i) siyoh bo`lmoq (dilash siyoh shud); yer bilan yakson qilmoq (bo zamin yakson kardan) va h.z.[26,237-238].

Aslida, iboralarni kalkalash juda murakkab hodisa bo`lib, odatda so`zma-so`z tarjima emas, balki ma'noviy munosiblikka asoslaniladi. Masalan, inglizcha have a drop in one's eye rus tilida «быть под хмельком» deb tarjima qilinadi. Aslida (so`zma-so`z) esa bu ibora «иметь капельку в одном глазу» ma'nosini bildiradi. Shuningdek, make good iborasi – делать хорошо (yaxshi bajarmoq) ma'nosini bildirsa-da, va'dasini bajarmoq, so`zida turmoq deb tarjima qilinadi (kalkalashtiriladi). Qiziqarlisi, nemis tilidagi im Dreck sitzen iborasi rus tilida терпеть нужду (ehtiyojmand bo`lish), нуждаться в деньгах (zoriqish, pulga zor bo`lish) deya o`girilsa-da, o`z ma'nosida «сидеть в грязи» tushunchasini anglatadi.

B.N.Golovinning ko`rsatishicha, hatto idiomalar (frazeologizmlarning bir turi) ham tarixan muayyan mazmunga egadir. «Birgina V.N.Dalning «Izohli lug'ati»ga murojaat qilishning o`zi kifoya, - deydi u qarashlari davomida, - ko`ramizki, бить баклуши iborasidagi баклуша so`zi ham qachonlardir yog'och idishlar (chashka, qoshiq) tayyorlash anjomi ekanligi anglashiladi. Bu keraksiz yog'och bo`laklari, payraxalari bilan bo`lgan faoliyatdir. Demak, zamonaviy бить баклуши idomasining mazmuni, ya'ni ishyoqmaslik, ishdan qochish, bekorchilik ma'nosi aslida mana shu faoliyatdan kelib chiqqan ekan».

Xullas, har bir tilning frazeologik qatlami o`sha til egasi bo`lmish xalqning urf-odatlarini, turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta'sirchan va bo`yoqdor iboralar nutqimiz ko`rki, tilimizning boyligidir. Frazeologizmlar leksik birliklar kabi iste'mol doirasi nuqtai nazaridan ham tasnif qilinadi, ya'ni umumiste'moldagi iboralar va qo`llanishi chegaralangan iboralar farqlanadi. Umumiste'moldagi iboralarga shunga qaramay, holdan toymoq, ro'yobga chiqmoq kabilar kirsam, qo`llanilishi keng bo`lmagan iboralar ilmiyligi

(imkoniyatlar doirasi, nazar tashlamoq, og'riqli nuqtalar), badiiyligi (sabr kosasi to'lmoq, ko'ngli ochiq), dialektalligi (halak bo'lmoq – ovora bo'lmoq), eskirganligi (alifni kaltak demoq, dumi xurjunda) bilan xarakterlanadi. Bunday xususiyatlar har bir tildagi frazeologik birliklar uchun xosdir. Bugungi kunda tilshunosligimiz oldida frazeologik iboralardagi darajalanish, giponimiya, ierarxonimiya kabi semantik munosabatlarni o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Frazeologizm (frazema) ikki va undan ortiq so'zlar asosida tarkib topgan yaxlit likka ega bolgan va ma'nosi bir so'zga to'g'ri kelgan so'zlar yoki gaplardir. Ko'chma ma'noda frazeologizmlar qatoriga kirishi mumkin: qo'y og'zidan cho'p olmagan (yuvosh), kapalagi uchib ketdi (cho'chidi), og'zing qani desa, qulog'ini ko'tadi (lapashang) va h.k iboralar.

Fraza tarkibidagi so'zlar alohida holda ma'no ifodalamaydi. Ingliz tilida frazeologizmlar juda mashhur: to get rid of; to take place; to lead the dance; to take care.

A.V. Kunin fikricha frazeologiya tilshunoslikning mustaqil bo'limi bo'lishi kerak. V. V. Vinogradov ingliz tilida frazeologik birliklarni uch guruhga bo'lgan:

1) Phrazeological fusion; to kick the bucket to get one's goat; to show the white feather. Bunda alohida so'zlar umuman ma'no ifodalamaydi.

2) Phrazeological units: to show one's teeth; to know the way the wind blows- metaforik ma'no ifoda etadi.

3) Phrazeological collocations: To take an interest; to fall in love; to look through one's fingers; meet the demand. Asosiy ma'no saqlanib qoladi [27, 58].

Tuzilish jihatdan, u turg'un birikma yoki alohida gapga teng bo'ladi va bitirsaa yaxlit leksemaga yaqinlashadi. Iboralar gap ichida bitta so'roqqa javob bo'adi va yaxlit ko'rinishda bitta gap bo'lagi bo'lib keladi. Shuning uchun uning ma'nosi ham bo'linmaydi. So'zlar o'zaro sintaktik bog'lanish bilan yuzaga kelgan bog'lanma nutq birligi bo'lib, muayyan fikr yoki tushunchani anglatadi va tilda yaxlitligicha saqlanib turmaydi. Uni tashkil qilgan har bir so'z o'z ma'no mustaqilligini saqlab qoladi. Shunday nutq birligi erkin bog'lanma deb ataladi. Frazeologizm esa aksincha, turg'un bog'lanma bo'lib, tilda bir butun bo'lib yashaydi va har bir yangi nutqga yaxlitligicha kiritiladi. Bunday lug'aviy birlikdagi unsurlar o'z tartibini o'zgartira olmaydi. (Misollar bilan ikkalasi o'rtasidagi farq ko'rsatiladi).

Ma'no yaxlitligi jihatdan frazeologizmlar bir necha guruhga bo'linadilar.

Ba'zi turg'un bog'lanmalarining ma'nosi undagi so'zlar ma'nosidan kelib chiqmaydi. (tismarxan, dhobi ka kutta ghar ka, na ghat ka). Bunday frazeologizmlar idiomalar deb yuritiladi.

Boshqa bir toifadagi frazeologizmlarda umumiy ma'no so'zlarning alohida - alohida ma'nosidan chiqib keladi. Demak, bunday turg'un bog'lanmaning ma'nosini tushunishda uning

ichidagi soʻzlar yordam beradi. Bunday holatda soʻzlar koʻpincha koʻchma (majoziy) maʼnoda ishlatiladi.

Ikki yoki undan ortiq soʻzdan tarkib topgan va yaxlit bir maʼno ifodalaydigan til birligi **frazeologik birlik** yoki **frazeologizm** deyiladi. Iboralar tilda tayyor holda mavjud boʻladi. Ikki yoki undan ortiq soʻzning birikib, yaxlit holda koʻchma maʼno ifodalashiga frazeologik birlikma deyiladi.

Frazeologizmning semantik tuzilishi (maʼno imkoniyatlari) frazeologik maʼno va qoʻshimcha maʼno boʻyoqdorligi (ottenka)dan iborat boʻladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan maʼlumot frazeologik maʼno deyiladi. Frazeologik maʼno obrazliligi bilan leksik maʼnodan farq qiladi.

Iboralar lugʻaviy birlik boʻlganidan, xuddi soʻzlar kabi, gapda bir boʻlak vazifasida keladi: Aka-ukalar (ega) bir yoqadan bosh chiqarishdi (kesim).

Iboralar ham, xuddi soʻzlar kabi, shakl va maʼno butunligiga ega.

Koʻp maʼnoli iboralar (iboralarda polisemiya)

Iboralarning asosiy qismi bir maʼnoli. Iboralarda koʻp maʼnolilik kam uchraydi: Eskini yamaguncha esing ketadi. Uni maqtab esi ketdi. Jangchi goh-goh oʻziga kelib yotdi.

Endi oʻzinga kelding.

Omonim iboralar

Bir xil shaklda tuzilgan, ammo boshqa-boshqa maʼnolarni ifodalaydigan iboralar omonim iboralar deyiladi. Omonim soʻzlar tilda koʻp boʻlishiga qaramay, omonim iboralar kam uchraydi.

1. Boshiga koʻtarmoq. Uyni boshiga koʻtargan bolalar tinchib qolishdi (“shovqin solmoq” maʼnosida);

2. Boshiga koʻtarmoq. Har doim sizni boshiga koʻtaradi. (“eʼzozlamoq” maʼnosida);

3. Ogʻziga olmoq (ichmoq): Ilgari bir qatra ogʻziga olmas edi.

Ogʻziga olmoq (gapirmoq); Ammo hech kim meni qaytarishni ogʻziga olmas edi.

Sinonim iboralar

Maʼnodoshlik hodisasi ibora uchun ham xos. Shaklan har xil iboralarning bir-biriga yaqin maʼnolarni anglatib kelishi sinonim iboralar deyiladi:

Kayfi buzuq-taʼbi tirriq;

Toqati toq boʻlmoq-sabr kosasi toʻlmoq.

Yaxshi koʻrmoq-koʻngil bermoq;

Lugʻaviy birlik sifatida iboralar soʻzlar bilan ham sinonimik munosabatda boʻladi: tomdan tarasha tushganday-kutilmaganda; ogʻzi qulogʻida-xursand, joni chiqmoq-gʻazablanmoq; taʼbi xira-xafa; quling oʻrgilsin-ajoyib.

Antonim iboralar

Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi iboralar antonim iboralar deyiladi: ko'kka ko'tarmoq-erga urmoq; yuzi yorug'-yuzi shuvut; ko'ngli joyiga tushmoq-yuragiga g'ulg'ula tushmoq.

Iboralar so'zlashuv va badiiy uslubda keng qo'llanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi til sathlari orasida leksik birliklar alohida o'rin tutadi va ularning o'ziga xos me'yoriy xususiyatlari mavjud. O'zbek tilidagi leksik-frazeologik birliklarning ana shu xususiyatlari yuzasidan A.E.Mamatov ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan va bu kuzatishlarning natijasi o'laroq doktorlik dissertasiyasi himoya qilingan hamda «Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari» nomli monografiya yuzaga kelgan. Ushbu qo'llanmani yozishda ham bevosita ana shu tadqiqot natijalaridan foydalanildi.

«Tilshunos-normalist olimlar, - deb yozadi u, - leksik normaning maqomini aniqlashda turlicha fikrlar aytganlar. Jumladan, O.S.Axmanova leksik normani «bu muayyan bir tilda so'z qo'llash normasidir», - deb ta'rif bersa [28,86].

K.S.Gorbachevich esa «so'zni to'g'ri tanlash va hammaga ma'lum bo'lgan va umumxalq tomonidan qabul qilingan, o'rinli so'z ishlatishdir», - deb yozadi [29,367].

Demak, leksik normalarga rioya qilish so'zlovchi (yozuvchi) va tinglovchi (o'quvchi) tomonidan o'zaro muloqotda bir-birini to'liq tushunishni taqozo qiladi.

Leksik normani ta'riflashda esa adabiy tilning quyidagi belgi va mezonlarini nazarda tutmoq lozim: 1) uning og'zaki va yozma shaklda amalga oshirilishini; 2) territorial va ijtimoiy qo'llanish doirasini; 3) ma'lum milliy tilning boshqa shakllari bilan adabiy til o'rtasidagi munosabatlar masalasini inobatga olish kerak.

Shunday qilib, leksik norma bu og'zaki va yozuv tili oppozitsiyasi doirasida leksik vositalarning turlicha amalga oshirilishi o'rtasidagi munosibliklar, tengliklardir» [30,117-118].

Demak, tilda asosiy birlik sanalgan so'zning lingvostilistik birlik sifatida, aytaylik, ko'pma'nolilik, sinonimlar va variantlar shaklida bir tushuncha doirasida ma'no anglatish va farqlash imkoniyati tilning boshqa sathlaridagiga qaraganda keng ekan, leksik me'yorlarni belgilash birmuncha qiziqarli va munozarali bo'ladi. D.E.Rozental ham «Qayerda tanlash imkoniyati bo'lsa, o'sha yerda stilistika boshlanadi», - deb bekorga yozmagan [31,11].

Leksik birliklar doirasida tanlanish imkoniyatining ko'pligi uning xususiy me'yorlarining shakllanishiga ham sabab bo'lgan. Shuning uchun ham tilimizdagi dialektizm, neologizm va okkazionalizm, pleonazm va boshqa leksik birliklarning me'yoriy xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritish leksik me'yor to'g'risidagi tasavvurimizni, shubhasiz, kengaytiradi.

Dialektizimlar va adabiy til me'yori doirasida me'yorni belgilash tilimizdagi mas'uliyatli masalalardan biri sanaladi. Ayni paytda, bu borada me'yoriy holatlarni belgilovchi o'lchovlar ham mavjud. «O'zbek adabiy tilining orfografiyasi, orfoepiyasi va grammatik qurilishi ma'lum tayanch shevalarga (asosan, Toshkent va Farg'ona shevalariga) asoslangan bo'lsa-da, leksik

jihatdan esa barcha o'zbek shevalariga asoslangan»ligi qayd etilgan «O'zbek dialektalogiyasi» darsligida ana shu o'lchovlar ko'rsatib o'tilgan. Adabiy til sheva leksikasidan ularning ko'pchiligi uchun umumiy bo'lgan so'zlarni tanlab olishi va uni o'z leksik tarkibiga kiritishi (mas., sigir-siyir-inak; chaqaloq-buvak, tuxum-moyak-yumurta, chumoli-murcha-qarinja-qumurusqa kabilar) ta'kidlangan [32,170-171].

Ammo shevalarimizda shunday leksik birliklar mavjudki, ular adabiy tilimizga kirib ulgurmagan yoki shu holicha qolib ketgan. Bu kabi so'zlarning adabiy me'yor haqida nima deyish mumkin? A.Yu.Aliyev «O'zbekiston jumhuriyatining davlat tili haqidagi qonuni va o'zbek tili nutq madaniyati» nomli ma'ruzasida «Ayrim narsa va hodisalarning nomlari adabiy til va uning lug'atlarida uchramaydi. Lekin dialekt va shevalarda mavjud bo'ladi. Bunday vaqtda aniq narsa va hodisalarning nomlarini anglatuvchi so'z va atamalarni hyech ikkilanmasdan shevalardan olib adabiy tilga kiritishimiz kerak», - degan fikrni aytib, uning tasdig'i sifatida quyidagi misollarni keltirgan edi: cho'kkala (laganbardor), o'tik (o'tadigan joy), kechik (kechib o'tadigan joy), sarimsoq (go'dakning nomi qo'yilguncha bo'lgan ismi), uzuchak (uchta bola tuqqan xotinning bolalari yoki qo'yning qo'zilari), madang (yog'ochdan qilingan eshik qulfi, tanba), qalang'i-qasang'i (yengil tabiat odam), o'mgan (ko'krak), arpabodiyon (ukrop turi), o'ymoq (angishvona) singar1 [33,8]

Tadqiqotchining aytgan fikrlariga qo'shilish mumkinu, keltirgan misolarini ma'qullab bo'lmaydi. Chunki kechik, qalang'i-qasang'i, arpabodiyon, o'ymoq, o'mgan so'zlari «O'zbek tilining imlo lug'ati»da bor, demak, allaqachon adabiy tilga qabul qilingan, me'yorlashgan. O'tik so'zi ham o'tuv va o'tadigan joy tarzida iste'molda. Cho'kkala so'zini adabiy tilga qabul qilganda ham endi uning laganbardor so'zini siqib chiqarishi dargumon, qiyin. Sarimsoq so'zini balki o'ylab ko'rish mumkindir, ammo madang so'zini adabiy tilga olib kirib bo'lmaydi. U umumxalq tili mulki bo'lib qolaveradi, ammo ilmiy texnika inqilobi ro'y bergan hozirgi zamonda yog'ochdan qilingan eshik qulfining - o'zi yo'q bo'lib ketgan narsaning nomini adabiy tilga olib kirishga hojat yo'q.

To'g'ri, umumxalq tilidagi ayrim so'zlar, haqiqatdan ham, adabiy tilga kirmasdan qolgan. Bu holni faqat lug'atlarni tuzuvchilarning kamchiligi yoki ana shunday so'z va tushunchalarning mavjudligidan xabardor emasligida deb baholanishi mumkin. Masalan, yangi tuqqan sigirning sutidan tayyorlangan taomning kilagay/ gilagay/ galagay, yangi tuqqan qo'y-echkining sutidan tayyorlangan taomning esa qag'anoq/ /qog'onoq deyilishi o'zbek tili vakillarining hammasiga, jumladan, tilshunos-lug'atshunoslarning barchasiga ham ma'lum bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham, «O'zbek tilining imlo lug'ati»ga bu so'zlarning ikkinchisi kirgan, birinchisi kirmasdan qolgan. Aslida o'zbeklarning chorvachilik bilan shug'ullanadigan qismi yoki uylarida sigir, qo'y, echki saqlab, ularning sut-qatig'idan foydalanadiganlari ana shu taomlarni

tayyorlashadi va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Shunday ekan, bu so'zlarni faqat sheva so'zlari deb bir chetga surib qo'yib bo'lmaydi va ular adabiy tilga kirishga haqli. Shu ma'noda A.Yusupov keltirgan to'tra / to'rta (yog' quyqasi) so'zini ham adabiy tilga kiritish mumkin. Bu kabi lingvistik birliklar turli kasblar va sohalarda kuzatiladi.

E'tirof etish kerakki, o'zbek tilidagi ko'p shevalilik sharoitida leksik me'yorlarni belgilashning o'ziga xos qiyinchiliklari ham bor. Har bir sheva vakilida ma'lum tushunchani ifodalaydigan so'zning tabiiy ravishda o'z shevasidagi variantidan foydalanishga moyillik seziladi. Bu holatni hatto ayrim sheva vakillari bo'lgan shoir va yozuvchilar ijodida ham kuzatish mumkin. Buning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor, albatta. Ijobiy tomoni adibning, ya'ni sheva vakili bo'lgan ijodkorlarning sharofati bilan ma'lum so'z adabiy tilga kirib qolib, me'yorlashishi mumkin. Agar bu birlik ko'pchilik tomonidan qabul qilinmasa, uni endi til leksik me'yorining buzilishi deb qarashga to'g'ri keladi.

Akad. Sh.Shoabdurahmonov «O'zbek adabiy tilining leksik normalari» maqolasida R.I.Avanesovning «Adabiy til normalarini ongli ravishda boshqarib borish qandaydir yo'nalish, qandaydir dialektga suyanish, tayanch nuqta bo'lishini taqozo qiladi» degan fikrini keltiradiki, leksik me'yorlarni belgilashda unga asoslanish mumkin bo'ladi. [34,51]

Ijtimoiy muhitning tildan foydalanish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi tabiiy bir holdir. Kishilar nutqlarida o'zlari bilib-bilmay yoki e'tiborsizlik oqibatida boshqa til elementlaridan ham foydalanadilar. Boshqa millat vakillari bilan birgalikda yashash, mehnat qilish, ta'lim olish, xullas, muomala jarayonida ana shu hol yuz beradi.

Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish ulardan nutqda zaruriyatga ko'ra foydalanish salbiy hodisa emas. Ammo bunday so'zlar orasida varvarizm deb ataluvchi shunday bir qatlam mavjudki, ularni nutqda qo'llash-qo'llamaslik masalasiga adabiy til me'yorlari nuqtai nazaridan munosabat bildirish lozim.

Gap shundaki, varvarizm sifatida qaraladigan nu, tak, vot, sovsem, voobshye, tolko, tolko tak, yestestvenno, obyazatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem boleye, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razresheniye olmoq, podpis qo'ymoq, bo, akun, soni kabi so'z va birikmalarining o'zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud. Buning ustiga ular adabiy tilimizga kirgan emas. Demak bu so'zlar o'zbek tili uchun me'yor emas. Ammo biz ularni, ijtimoiy muhit ta'siridan bo'lsa kerak albatta, farqiga bormasdan ishlataveramiz, nutqimizni nazorat qilmaymiz. Shu tarzda leksik me'yor ham, nutq ham buziladi.

Shuning uchun ham tilda varvarizmlarning ishlatilishini ijobiy hodisa sifatida emas, balki me'yorning buzilishi deb qaralishi va ularni nutqda qo'llamaslik lozim.

Ruscha so'z va iboralarning, sintaktik qurilishlarning tilmizdan juda sekinlik va qiyinchilik bilan chiqib ketayotganini ham tarixiy jarayon sifatida qabul qilishga to'g'ri keladi.

Jismoniy tarbiya va sport atamashunosligi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan S.Azizov 1961 yilda R.Ismoilov va M.Norkinlarning «Ruscha-o'zbekcha fizkultura va sport terminlari izohli lug'ati» nashridagi ayrim holatlarga e'tiroz bildirib, lug'atda bu sohaga oid absolyut chempion, arbitr, sudya, baryer, bokovoy sudya singari atamalarning faqat ruscha shakli berilganligini ma'qullamaydi [35,14].

Bu mulohaza to'g'ri. Ayrim so'zlarning bu tarzda lug'atlarda rasmiylashtirilishi ham ularning yashovchanligiga sabab bo'lgan bo'lsa, ajabmas.

Bu kabi mulohazalarni enag'ar, xotintaloq, qizitaloq, qanjiq singari vulgar so'zlar xususida ham aytish o'rinli. Bu birliklar ommabop lug'atlarda berilmaydi.

Bir necha og'iz gap atamalarga tarixiylik, davriylik nuqtai nazaridan munosabat xususida.

Prof. B.Bafoyev «Navoiy asarlari tilida so'z varianti va adabiy norma» nomli maqolasida me'yorning tarixiylik tomonlariga e'tibor beradi. Ta'kidlanishicha, tilda ma'lum tushunchani ifoda etuvchi sinonimik variantlarning me'yor sifatida tanlanishida ularning bo'g'in tuzilishi hamda har birining ijod turlarida ma'lum qimmatga ega bo'lishi e'tiborga olinadi. Bu xulosa, poetik asarlar matniga tegishli, albatta.

So'z variantlaridagi bo'g'inlar soni, ochiq-yopiqligi, cho'ziq-qisqaligi har xil bo'lsa, bu fikr tushunarli. Agar shu holatlar baravar darajada bo'lsa-chi? Muallif xizmat/xidmat so'zini tahlil qilib yozadi:

«Alisher Navoiyning g'azaliyoti va nasriy asarlari tilida ikkala variant ham uchrasa-da, adibning g'azaliyoti, «Lison ut-tayr», nasriy asarlari tilida xizmat yetakchi va «Xamsa» dostonlari tilida esa, asosan xidmat varianti aktiv ishlatilgan. So'zning ikkala bo'g'ini ham yopiq bo'g'in bo'lganligidan nazmu nasrda va nazmning turli janrlarida ikkala variant ham, deyarli bir xil filologik xususiyatga ega» [36,32].

Endi nima qilish lozim? B.Bafoyev bu savolga javob izlab, «Ularning aktiv-passivlik sabablarini boshqa poetik hodisalardan izlash kerakka o'xshaydi», - deydi (O'sha joyda, 32-bet).

B.Bafoyev maqola oxirida yana bir xulosa beradi: «Alisher Navoiyning 90-yillargacha yozilgan asarlari tilida, ayniqsa «Xamsa»si tilida xidmat va undan keyingi yillarda yozilgan asarlari tilida xizmat yetakchi variantdir» [36,35-36].

Bundan sal oldinroq «Gul va Navro'z» da faqat xidmat, Bobur she'riyatida esa faqat xizmat varianti ishlatilganligi faktini keltiradi [36,32].

Bu fikrlardan navbatdagi xulosani chiqarish mumkin bo'ladi: Eski o'zbek adabiy tilida o'zaro variant hisoblangan xidmat va xizmat birliklaridan xidmat tarixan eskiroq, ya'ni uning qo'llanilishi XV asrgacha me'yor hisoblanib kelgan va asta-sekinlik bilan u xizmat so'ziga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Bugungi kunga kelib esa u umuman qo'llanilmaydi.

Demak, variantlar orasidan til birliklarining me'yor sifatida tanlanishi ham tarixiy jarayon bo'lib, ulardan foydalanish yoki foydalanishdan voz kechish tilning yaratuvchisi va iste'molchisi bo'lgan xalq hukmidadir.

«Eski o'zbek yozma manbalarida - ... ko'pgina so'zlar ikki, hatto bir qanchalarining uchto'rt fonetik variantlarda keng ishlatilganiga duch kelamiz» deb yozadi B.Bafoyev va qo'yidagi so'zlarni misol tariqasida keltiradi : yaproq-yafrog'-yapurg'oq, tuproq-tuproq'-tufroq-tufrog'. (B a f o y e v B. O'zbek tili tarixida leksik norma masalalari // O'zbek nutqi madaniyatining dolzarb muammolari. Jumhuriyat ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalarining qisqacha bayoni. – Toshkent, 1990, 17-18-betlar). Olim ta'kidlaydiki, «tarixiy leksikologiyada bu lingvistik hodisani obe'ktiv baholashda barcha yozma manbalar tilidagi har bir variant qaytariqlari bilan olib chiqilishi kerak». Bu gaplar to'g'ri, albatta. Shunday qilinganda bu kabi elementlarning adabiy tildagi yoki badiiy uslubdagi qo'llanish chastotasi va vazifaviy chegaralanishini aniqlash, ularning bu jabhalardagi me'yoriy holatlarini belgilashga imkon beradi. Harqalay, yaproq ning yafrog', yapurg'oq va tuproq ning tuprog', tufroq, tufrog' tarzida badiiy, ayniqsa poetik nutqda ishlatilishi matnning ohangdorli va musiqaviyligini, vazn va hatto qofiya singari an'anaviy qoidalarga bog'liqligini ham yodga keltirishimiz zarurati tug'iladi.

Yana boshqacha qarashlar ham bor. Ayrim olimlar fanlardagi ba'zi atamalarning o'zbek tilida muqobili yo'q, shuning uchun u hozirgacha qanday qo'llanilib kelinayotgan bo'lsa, shundayligicha qoldirilgani ma'qul degan fikrni afzal ko'rishmoqda. Bu fikrni inkor etish mumkin emas.

Ammo fanning qaysi yo'nalishi bo'lmasin, undagi tushunchalarni ifoda etish uchun dunyodagi eng boy tillardan biri deb faxrlanadigan o'zbek tilida so'z topilmasligiga shubha ham yo'q emas. Masalan, «Davlat tili haqida» gi Qonunni amalga oshirishning dolzarb muammolariga bag'ishlab 1993 yilda Navoiy shahrida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyada chiqish qilgan navoiylik matematik Z.Avliyoqulov quyidagi fikrni aytgan: «Bu sohada atamalarni muqobili bo'lmasa o'zbek tilidagi atamalar bilan almashtirish ijobiy natija bermasligi mumkin. Bu atamalar ilgaridan shunday qo'llangan ekan o'zicha qolishi zarur. Jumladan noverbal holatdagi ayrim matematik ishoralar ham o'zicha qolishi zarur» (A v l i y o q u l o v Z. Davlat tilini amalga oshirishning noverbal imkoniyatlari // Ilmiy-amaliy konferensiya tezislari. – Navoiy, 1993, 13-bet). Shunday. Buning ustiga, matematika sohasini yaxshi bilmaganimiz uchun ham bu fikrga e'tiroz bildirib bo'lmaydi. Bir narsani qo'shimcha qilish mumkinki, nafaqat tilimizda paydo bo'lgan so'z, balki tushunchaning yoki narsaning o'zi ham yangilik. U yaratilganda, kashf qilinganda dastlab shunday nomlangan. Masalan, amper, rentgen, volt singari. Bu atamalar fanda bundan keyin ham shundayligicha qoladi.

Qolaversa, ko'pchilik dunyo tillarida bir xil nomlanadigan atamalarni yangilashga urinaverish ham to'g'ri harakat emas. Bu ham sun'iy ravishda me'yorni buzishga kiradi.

Leksik me'yorning buzilishi hamma vaqt ham ko'zga yaqqol tashlanavermaydi. Misol: Janob boy, sizni k a y f s i z ko'raman, mumkinmi sababini bilsam. Asrimizning boshlarida M.Behbudiy yozgan «Padarkush» fojiasidan olingan bu parchadagi kayfsiz so'zi hozirda tilimizdagi kayfiyat so'ziga to'g'ri keladi. Darhaqiqat, «O'zbek tilining izohli lug'ati»da ham kayf va kayfiyat so'zlari insoning ruhiy holati ifodasi sifatida talqin qilinadi va ular ifoda etgan qator ma'no ottenkalari beriladi (O'TIL, 1 tom, 358-359 betlar). O'zagi bir bo'lgan bu so'zlarning bundan yuz yillar avval ana shu yaqinligi inobatga olinib, biri o'rnida ikkinchisi bemalol qo'llanavergan bo'lishi va bu me'yoriy holat sanalgan bo'lishi mumkin.

Ammo, hozirgi kunda bu me'yoriy holat o'zgargan. Har ikkala so'zdagi noziklikni anglagan holda, aniq ma'nolarda ishlatamiz: 1. Kayf, kayfi bor, kayfi yaxshi, kayfi baland, kayfi zo'r, kayfi tarq , kayf qilmoq, kayf qilib olgan, shira kayf, kayfi oshmoq, kayfni kesmoq kabi holatlarda kayf so'zi mastlikni bildiradi va shu holatda uning ma'nosi bir qadar aniqlashib, kayfiyat bildirgan ma'nodan yiroqlashadi. Ammo kayfi chog' , kayfi uchgan, kayfini surib yuribdi singari holatlarda u kayfiyat so'zini anglatgan ma'nolarni berishi kuzatiladi.

Shu bilan birga kayf qilmoq kabi holatlarda har ikki ma'noni -kayfni ham, kayfiyatni ham matnga qarab anglashimiz mumkin.

Bu nimadan dalolat beradi? So'z ma'nolarida bo'lgan o'zgarishlar, zamon taraqqiyoti o'z navbatida me'yorga ham ta'sir qiladi. Yuqoridagi kayf so'zi tahlilidan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, bir vaqtda ma'nolari anchagina yaqin bo'lib turgan so'zlarda, vaqt o'tishi bilan differensiasiya - ajralish, ma'nolardagi kengayish yuz bergan va bu holat tilimiz taraqqiyoti uchun me'yoriy holat sifatida qaralishi va belgilanishi kerak.

Ushbu parchaga ham diqqat qilaylik:

Xususan, mana, banklar ko'paydi. Katta boylar ch l ye n bo'lib, har kim ch l ye n l a r n i izzat qilur, hatto ishi tushaturg'onlar ch l ye n molini qimmat olur, azbaski ch l ye n iltifotiga olmagan odamlarga banklar pul bermaydurki, so'ngra mulkdorlar sinib, mayda-chuyda bo'lur, bildingizmi? (M.B. Padarkush).

Yana «Padarkush»dan olingan misolda M. Behbudiy qo'llagan chlen so'zini o'sha paytda ham almashtira oladigan a'zo so'zi bo'lgan. Ammo, chlen o'rnida a'zo ni qo'llash notabiiylikni, tasvirda quruq ifodani keltirib chiqarishi mumkin edi. Chlen so'zi garchi vaqtincha bo'lsa-da, bankka a'zo bo'luvchilarning atamasi sifatida tilimizda qo'llanildi, a'zo so'zining ma'nosini to'la ifoda etadigan birlik - atama, me'yoriy holat sifatida tilimizda vaqtincha yashab turdi. Chunki, bu so'z qanday bo'lsa, xalq uni shundayligicha qabul qildi, qo'llay boshladi, tushundi.

Xalqimiz, tilimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida esa a'zo o'rnida chlen so'zini qo'llash tilimizga hurmatsizlik va savodsizlik alomati bo'ladi.

Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan respublikamiz miqyosida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tilimiz taraqqiyotiga, xususan uning terminologik rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

«Davlat tili haqida» gi Qonunning yuzaga kelishi munosabati bilan fanlarning turli yo'nalishlari bo'yicha atamashunoslik sohasida islohotlar o'tkazish, ularni «o'zbekchallashtirish» ga imkoniyat yaratildi.

Shunday bir vaziyat yuzaga keldiki, atamalarni «milliylashtirish» ga ishtiyoq kuchayib ketdi. Tavsiyalar xam nihoyatda ko'paydi. Jo'yali fikrlar bilan bir qatorda, hazm bo'lishi qiyin bo'lgan takliflar ham o'rtaga tashlandi. Bu gapning tasdig'i sifatida ayrim misollarni keltiramiz: matematika-riyoziyot, fakultet-kulliyot, rassom-musavvir, gazetxon- mushtariy, auditoriya-saboqxona, xona, o'quv xonasi, sirk-tomoshaxona, sirkul-pargar, sellofan-suvqog'oz, seyf-zarf, attestasiya-ko'rik, samolyot- aeroplan, tayyora, aeroport-tayyoragoh, familiya-naslnoma, klub-da'vatxona, titul list-sarvaraq va hokazo.

Bu kabi tavsiyalar mustaqillikdan keyin - «Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilingach, o'rtaga tashlandi. Ona tilimizning chin fidoyilari erksevar va millatsevar jadidlar tomonidan esa shu mazmundagi mulohazalar asrimizning boshlarida, mustamlakachilik paytlaridayoq o'rtaga tashlanganligi tarixdan ma'lum.

Ulug' ma'rifatparvar Fitrat 1921 yildagi til, imlo qurultoyida kontrrevolsion «Chig'atoy gurunji» tashkilotining dasturini bayon etib, o'zbek tilidan yot so'zlar (arabcha, forsha, ruscha) ni chiqarib tashlasak, buyuk idealimiz bo'lgan turkchilikka birlashamiz, deb ochiq-oydin aytdi.

Ular (tilning sofligi uchun kurashuvchilar - S. K.)... ko'plab qadimiy so'zlarni tiriltirishni, o'zbek adabiy tiliga qabul qilishni tavsiya qildilar. Masalan, arabcha zaxmat, xalq, duo, nasihat, rais, olam, kitob, maktub so'zlari o'rniga emgak, el, olqish, o'gut, boshliq, ochun, bitik, yozoq so'zlarini, forsha shahar, guvoh, tajriba so'zlari o'rniga baliq, taniq, sipok so'zlarini, ruscha parovoz, poyezd, revolyusiya, proletar, samovar, pochta, agronom, elektr, geografiya, botanika, astronomiya, morfologiya, sintaksis kabi so'zlar o'rniga o'txona, otash arava, o'zgarish, yo'qsil, o'zi qaynar, choparxona, ekin bilg'ich, simchiroq, yer biligi, o'simlik biligi, yulduz biligi, sarf, nahv kabi so'z va iboralarni ishlatishni ko'tarib chiqdilar (T u r s u n o v U., O' r i n b o y e v B. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1982, 155-bet).

Bu qarashlar shu ma'noda diqqatga sazovorki, ularda tilni mumkin qadar chet el unsurlaridan tozalash, umumturkiy birliklarni adabiy til me'yori sifatida belgilash g'oyasi yotadi. Masalaning qo'yilishi ana shu tarzda tushuniladigan bo'lsa, yuqoridagi riyoziyot, kulliyot, musavvir, mushtariy, saboqxona, pargar, tayyora, tayyoragoh, naslnoma, da'vatxona kabi so'zlar

bu g'oyaga mos kelmaydi. O'z-o'zidan savol paydo bo'ladi: qabul qilishga tavsiya etilayotgan so'zlar umumturkiy bo'lmagach, qanday farqi bor – ruscha- baynalmilal bo'ldi nima-yu, arabcha yoki forsha-tojikcha bo'ldi nima?

Masalaning boshqa bir muhim tomoni bor: tavsiya etilgan birliklar adabiy tilimizga leksik me'yor sifatida qabul qilinmadi. Nega? Shuning uchunki, birinchidan, tildagi o'zgarishlar jarayoniga o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning ta'siri bo'ldi. Millatsevarlik millatchilik deb ayblanayotgan bir davrda, tilimizga bo'lgan bu kabi munosabatlar, yangilikka intilishlar qo'llab-quvvatlanmadi. Ikkinchidan, asrimizning boshlarida, hatto hozirda ham narsa va tushunchalarni ifodalovchi birliklarni tavsiya etilgan so'zlar shaklida qo'llash hali me'yorlashmagan, odat tusiga kirmagan edi va shundayligicha qolib ketdi.

Tilimizda qo'llanilib kelinayotgan avtor, arxitektor, gumanizm, doklad, ideologiya, inspektor, intelligent, kontrol, komandirovka, komanirovochnaya, leksiya, ministr, oblast, ostanovka, planeta, problema, rayon, raport, redaktor, revolyusiya, spravka, student, sekretar, tema, territoriya, tradisiya, forma singari so'zlar o'rnini muallif, me'mor, insonparvarlik, ma'ruza, mafkura, nozir, ziyoli, nazorat, safar, safarnoma, ma'ruza, vazir, viloyat, bekat, sayyora, muammo, tuman, bildirishnoma /xabarnoma, muharrir, inqilob, ma'lumot/ma'lumotnoma, talaba, kotib /kotiba, mavzu, hudud, an'ana, shakl kabi tavsiya etilgan so'zlar osonlik bilan egalladi. Buning sababi shu bo'ldiki, ular dubletlar sifatida tilimizda ozmi-ko'pmi oldindan ham qo'llanilib kelinayotgan edi.

Ko'pgina misollar tahlili atamalar, nomlanishlar turg'unligi murakkab masala ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi sobiq Ittifoq tasarrufida ekanligida, rus tilining Ittifoq hududidagi boshqa tillarga ta'siri kuchli bo'lgan paytlarda biz hych bir ikkilanmasdan respublika, oblast, rayon, avtor, agitasiya, propaganda, ideya, plan, forma, present, proses, komandirovka, raport, spravka, student, sekretar, ministr kabi ko'plab so'zlarni, garchi ularning tilimizda (oldin qaysi tildan qabul qilingan bo'lishidan qat'iy nazar) muqobil variantlari bo'lsa-da, ishlataverar edik. Vatanimizning mustaqillikka erishishi munosabati bilan tabiiy ravishda bu so'zlarga jamoatchilik tomonidan munosabat bildirildi. Jumhuriyat, viloyat, tuman, muallif, tashviqot, targ'ibot, g'oya, reja, shakl, foiz, jarayon, safar, bildirishnoma, ma'lumotnoma, talaba, kotib(a), vazir, nozir, nazorat kabi muqobil variantlari ham 90-yillar boshlaridan ular bilan bab-baravar qo'llanila boshlandi va bu parallellik tilimizda me'yor sifatida ma'lum muddat saqlanib turdi.

Endi oradan o'n yildan ko'proq vaqt o'tgach, butunlay boshqa manzara kuzatiladi. Bu o'tgan vaqt orasida birinchi guruh so'zlar asosan ikkinchi guruh so'zlariga o'z o'rnini bo'shatib berdi, deb bemalol ayta olamiz. Nega asosan deb aytayapmiz? Shuning uchunki, saragi sarakka, puchagi puchakka deganlaridek, bu so'zlarning har biri vaqt g'alviridan o'tdi. Ayrimlari hozir

ham parallelik xususiyatini saqlab qoldi: respublika-jumhuriyat, universitet-dorilfunun kabi. Ularning semantik-uslubiy ma'nolari aynan bir xil bo'lmagani uchun ham shunday bo'ldi.

Bunday parallel qo'llanishning boshqa sabablari ham bor. Biz tilshunosligimizda epitet - sifatlash, derivasiya - so'z yasalishi, affiks - qo'shimcha, abbreviatura - qisqartma so'z, anafora - misra boshidagi tovush takrori, antroponimlar - kishi ismlari, toponimlar - joy nomlari, atribut - aniqlovchi, affrikatlar - qorishiq undoshlar, stil - uslub, stilistika - uslubshunoslik kabi o'nlab atamalarni parallel holda hozir ham ishlatib kelmoqdamiz. Buning boisi atamalarning birinchisi xalqaro termin sifatida barcha tillarda qo'llanilib kelinayotganligidadir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, yangi tavsiiya etilayotgan so'zlarning ma'qul kelishi va me'yorlashishi ularni tilda avval qo'llanilib kelayotgan yoki kelmayotganiga ham bog'liq. Boshqacha aytganda, ularni ko'rish va eshitishga odatlanish me'yorlashishga ko'maklashadi.

Atamalar qo'llashda me'yorni saqlab turish boshqa so'zlar, masalan, ko'p ma'noli yoki sinonim so'zlar me'yorini turg'un holatda ushlab turishga nisbatan osondek tuyuladi. Aslida esa bu yerda ham o'z muammolari bor. Mas., shu paytgacha tilimizda faol ishlatilib kelinayotgan tovar so'zi o'rnida mol so'zini ishlatamiz: mol, sanoat mollari, mol ayriboshlash, mol olib kelmoq, narxi tushirilgan mollar kabi. Ammo bunday ishlatish bemalol emas. Sanoat mollari deyish mumkin bo'lgan holda oziq-ovqat mollari deb bo'lmaydi, mol keltirdim deganda faqat sanoat mollari tushuniladiyu, tovar keltirdim deganda farqlanmasdanmi yoki prodtovary, prodtovaray so'zlariga asoslanibmi, har ikkalasi ham tushunilaveradi. Tovar so'zidan tovaroved so'zini yasay olamizu, mol so'zidan ana shu ma'nodagi molshunos so'zini yasay olmaymiz. Yasagan taqdirimizda ham u mol so'zining asosiy ma'nosiga - hayvon ma'nosiga tortib ketadi va hayvonni yaxshi biladigan, hayvon bilan shug'ullanadigan kishi ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilida esa bunday ma'nolarni ifodalashga zarurat bo'lmagan. Aytaylik, insonshunos, hatto hazil tariqasida ershunos deyish ham mumkin, ammo hayvonshunos deb bo'lmaydi. Shunday ekan tilimizda tovaroved so'zidan foydalanib turishga to'g'ri keladi.

Ma'lum bo'ladiki, tilshunoslik ilmida, tilshunoslar va boshqa mutaxassislar faoliyatida, ayniqsa, atamalar bobida tildan foydalanishdagi vaziyatni muvofiqlashtirish, bir xillikni yuzaga keltirish, osonlik va qulaylik yaratish, eng muhimi, tushunarli bo'lishni ta'minlash maqsadida tavsiyalar berib boriladi. Aytaylik, agroprom, agroximiya, akvarel, annotasiya, arxeolog, astronom, vakant so'zlari o'rniga dehqonchilik sanoati, dehqonchilik kimyosi, suv buyoq, muxtasar bayon, qadimshunos, falakiyotchi, bo'sh o'rin /bo'sh lavozim kabi so'z va birikmalarni ishlatish taklifi (Misollar A. Berdialiyevdan olindi).

Ammo, bu tavsiyalar qanchalik ilmiy, amaliy va me'yoriy asosga ega? Bu variantlarning qaysi biri tilda yashab qolishi mumkin? Ularning qaysi biri narsa va hodisaning, predmet va

tushunchaning mohiyatini to'laroq ifoda etadi? Bu masalani, qaysi variant ma'qul bo'lishdan qat'iy nazar, hayotning o'zi, til elementlaridan foydalanish jarayoni hal qiladi, albatta. Lekin bunday tavsiyalarning berib borilishi, tavsiya etilayotgan variantlarning afzallik tomonlari tushuntirib berilishi mutlaqo zarur bo'lgan faoliyatdir. Faqat shunday yo'l bilangina tilimiz takomillashib, sayqallashib, so'z ma'nolaridagi eng nozik imkoniyatlar ham reallashib boradi. Aytilganlarning tasdig'i sifatida bir misol keltiramiz: psixologiya faniga oid ko'plab atamalar shu soha mutaxassislarining tavsiyasiga binoan o'z o'rnini sharq ilmida qo'llanib kelingan atamalarga bo'shatib berdi. Psixologiya-ruhshunoslik, psixika-ruhiyat, psixik proses-ruhiy jarayon, adaptasiya-moslashish, nerv-asab, nerv sistemasi-asab tizimi, talant-iqtidor/iste'dod, temperament-mijoz, emosiya-jo'shqin holat /jo'shqinlik, xarakter-xulq tarzida ataladigan bo'ldi (Q a r a n g: Ilmiy-amaliy konferensiya tezislari. – Navoiy, 1993, 36-bet).

Bundan shunday xulosa qilib chiqadiki, tildagi me'yoriy holatlarni tayinlashda har bir tilning o'z ichki qonun-qoidalariga tayanib, ko'pchilikka ma'qul bo'lish-bo'lmaslik jihatlari e'tiborga olinsagina asosli bo'ladi.

Shu o'rinda yana bir misolni tahlil qilaylik. Ko'plab atamalarning muqobillarini izlash jarayonida rayon so'zi o'rnida nohiya, depara, tuman so'zlari ishlatila boshlandi. Keyinchalik, garchi so'zning asl mohiyatiga unchalik to'g'ri kelmasa ham tuman so'zi me'yorlashdi. Ammo, ta'kidlash lozimki, bu so'zning birgina ma'nosi - viloyatning bir qismi bo'lgan, ma'lum chegaraga ega bo'lgan, ma'muriy hudud atamasi sifatida me'yorlashdi. Ammo, lug'atda rayon so'zining umuman joy ma'nosini anglatish imkoniyati ham ko'rsatilgan: *prigorodnyy* rayon - shahar atrofi rayoni, *promyshlennyy* rayon - sanoat rayoni, *zavodskoy* rayon - zavodlar rayoni, rayon *voyennyy* deystviy - urush harakatlari rayoni, rayon boya - jang maydoni, *oboronitelnyy* rayon - mudofaa doirasi kabi. Bu birikmalarni qanday me'yorlashtiramiz? Bizning ongimizda u hozircha ma'muriy hudud tarzida shakllanib turgan ekan, shahar atrofi tumani, zavodlar tumani, urush harakatlari tumani tarzida ham me'yorlashib keta oladimi?

Buning ustiga, shu so'z o'zagidan yasalgan *rayonirovaniye*, *rayonirovanny* - rayonlashtirish, rayonlashtirilgan so'zlari bor. Masalan, biror ekin navlari urug'ini, ya'ni biror joyning sharoitiga eng ko'p moslashtirilgan navlar urug'ini rayonlashtirish (Russko-uzbekskiy slovar. – M.,1954, s. 711). Buni qanday me'yorlashtiramiz? Urug'ni tumanlashtirish debmi yoki urug'ni joylashtirish, urug'ni joylarga moslashtirish, debmi? Harqalay, nazarimizda, masalaning yechimini o'tayotgan vaqt topadi.

Atamalarni almashtirish va me'yorlashtirishda ro'y berayotgan jarayonlarni tahlil qilib quyidagi xulosaga kelish mumkin : atamalarning bir qismi tezgina almashti, me'yorlashdi va ommalashdi, yana bir qismi esa variantlar, dubletlar tarzida baravar ishlatilib kelinmoqda. Atama

sifatida tavsiya qilingan birliklarning ma'lum qismi esa tilda o'z o'rnini topmadi, ko'pchilik tomonidan ma'qul ko'rilmadi.

Demak, mustaqillikdan keyingi davr atamalarini me'yorlashtirish xususida gap ketganda ana shu jihatlarning hayotiy ekanligini inobatga olishga to'g'ri keladi.

Umuman, Atamalar qo'mitasining bu jarayonni muvofiqlashtirib borishda, tartibga solib turishda xizmatlari katta ekanligini qayd qilish lozim. Qo'mita o'z faoliyatida bu borada juda ko'p vazifalarni amalga oshirdi.

Tilimizda yangi narsa va tushunchalarni ifodalash yoki narsa va tushunchalarni yangicha ifodalash bilan bog'liq hamda undagi tayyor modellar asosida mavjud narsa va tushunchalarni biroz boshqacharoq, perifrastik tarzda baholashga intilish natijasida yuzaga kelgan neologizm va okkazionalizm deb ataluvchi so'zlar guruhi mavjudki, ularga ham adabiy til me'yori nuqtai nazardan munosabat bildirish zaruriyati bor.

Bu kabi so'zlarning me'yoriylik darajasini aniqlashda ham tilimizdagi me'yoriylik holatlarini belgilashning mavjud qoidalarga tayanib ish ko'riladi. Basharti bu birliklar neologizm yoki okkazionalizm sifatida e'tirof etildimi, demak ular hali tilimizning haqiqiy lug'at birligiga aylanib ketmagan. Faqatgina o'zlari qo'llanilayotgan matnda narsa va tushunchani aniqroq, to'laroq, balki obrazliroq ifoda etish hamda boshqa badiiy-estetik maqsadlarni ko'zda tutib qo'llanilgan. Ularning adabiy tilimizda me'yor holatiga kelishi uchun ma'lum vaqt va xalqning iste'molda qo'llay boshlashi bilan bog'liq bo'lgan e'tirofi lozim bo'ladi.

Bu turkum so'zlarning ma'lum qismi o'zi ifodalayotgan predmet va tushunchalar bilan bog'liq tarzda o'z tilimiz so'zlari bo'lishi bilan birgalikda chet tillardan kirib kelgan bo'lishi, bir qismi esa so'zlashuv, ayniqsa badiiy ijod jarayonida yaratilgan bo'lishi mumkinligini ham yodimizdan chiqarmasligimiz zarur. Binobarin, ularning yashovchanligi, ommalashuvi, ya'ni me'yorlashuvi aynan ana shu omillarga bog'liq bo'ladi. A.E.Mamatov ta'kidlaganidek, «ular badiiy asar tilida, matbuotda va og'zaki nutqda ko'p qo'llanilsa, leksikografik manbalarda va lug'atlarda aks etsa, u holda okkazional so'zlar jumlasidan chiqib, normalashgan leksik qatlamga aylanadi» (M a m a t o v A.E.Okkazional so'zlar va til normasi // «O'zbek nutqi madaniyatining dolzarb muammolari» to'plami. – Toshkent,1990, 69-bet). A.Mamatov bu kabi so'zlar va iboralarning tilimizda mavjud bo'lgan mazmunan va shaklan o'xshash yoki teskarisi bo'lgan birliklarga nisbatan taqlidan yaratilishini ta'kidlab, quyidagi misollarni keltirgan : oltinzor (paxtazor), changiston (guliston), yilquvar, pulquvar, to'qayquvar (cho'lquvar), raykattalar (raygaz, raysobes) kabilar (M a m a t o v A.E. Yuqoridagi maqola, 68-bet).

Ushbu misollardan ma'lum bo'lib turibdiki, bu kabi so'zlarning yaratilishi individual xarakterga va asosan emosional-ekspressiv ma'noga ega. «So'z estetikasi» asarining mualliflari X.Abdurahmonov va N. Mahmudovlar ham ana shu tarzda so'z yasashga moyil bo'lgan shoir

Maqsud Shayxzoda ijodidan yaxshi namunalar keltirishgan: siynachok (siynai chok), xayolxona (gulxona, to'yxona), dollarshoh, mehnatdosh (mehnatkash), oydosh, ilhomdosh, yurakdosh, fazoshumul (olamshumul), baxtsozlik, huriston, sheriston, jangbozlar, nafosatbozlar, qishboy, oybachcha, xorazmlashmoq, kalidlamoq (qulflamoq), teskarilamoq, xayollanmoq, tundalik (kundalik) singari (A b d u r a h m o n o v X., M a h m u d o v N. So'z estetikasi. – Toshkent, 1981. 32-38 betlar).

Darhaqiqat, ushbu so'zlarning hiech biri ham me'yorlashgan so'z sifatida tilimiz lug'at boyligidan o'rin olgan emas.

Endi frazeologizmlar va me'yor masalasiga qisqacha to'xtalamiz. O'zbek tilining boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatuvchi vositalardan biri frazeologizmlardir. Sh.Rahmatullayev asos solgan o'zbek frazeologizmshunosligi keyingi yillarda katta yutuqlarga erishdi. Turli hajmdagi ilmiy maqolalar, risolalar, nomzodlik dissertasiyalari bilan bir qatorda A.E.Mamatovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik-frazeologik norma muammolari» (1991), B.Yo'ldoshevning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubiy xususiyatlari» (1994), A.Mamatovning «O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari» (2000) nomli doktorlik ishlari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Sh.Rahmatullayev tomonidan 1978 yilda yaratilgan «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» esa hozirgacha muhim qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda.

Xullas, o'zbek frazeologiyasi nazariyasiga oid yuzaga kelgan nazariy qarashlar va to'plangan boy materiallar frazeologik me'yorlar haqida bemalol gapirishga imkon beradi. Frazeologik me'yor ta'rifi masalasida bu o'rinda A. Mamatov qarashlariga tayanamiz. Uning ta'kidlashicha, «Frazeologiya tilshunoslik fanining mustaqil, alohida soha ekanligini tan olish, mantiqan frazeologik normaning mavjudligini ham tan olishni taqozo qiladi.

...adabiy normaga taalluqli bo'lgan to'rt asosiy mezon va kategoriya: barqarorlik, kodifikasiyalashganlik, dinamiklik va variantdorlik xususiyatlari frazeologik normaga ham bevosita tegishlidir. Demak, xulosa qilish mumkinki, bu alohida-alohida to'rt mezon va kategoriya o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, yaxlit umumiylikni, ya'ni adabiy me'yorni tashkil qiladi.

Demak, frazeologik birliklarning til normasi bilan bog'liqlik xususiyatlarini shunday izohlash mumkin: birinchidan, frazeologizmlar o'z lisoniy tabiatiga ko'ra, barqaror bo'ladilir, aks holda, ular frazeologik birlik degan maqomga ega bo'lmas edi va erkin so'z birliklariga aylanib qolgan bo'lardi, ikkinchidan, hamma frazeologizmlar lug'atlarda, normativ va maxsus qo'llanmalrda, ma'lumotnomalarda qayd qilingan, tanlab olingan, umummajburiy qo'llanish xususiyatiga ega bo'lgan, kodifikasiyalashgan bo'lishi shart, aks holda, ular turg'un frazeologik birliklar bo'lmasdan, balki okkazional yoki potensial iboralar bo'lib qoladi, uchinchidan,

frazeologizmlar tilning boshqa birliklari singari har doim rivojlanib, o'zgarib turadi, ular dinamik xususiyatlarga ega, aks holda frazeologizmlar shtamp va qolip birikmalarga aylanib qoladi va o'zining semantik-stilistik xususiyatlarini ma'lum darajada yo'qotadi, to'rtinchidan, frazeologizmlar ham leksik birliklar kabi o'z sinonim va variant qatorlariga ega, bu ularning ma'nolarini ifoda qilishda, til boyligini oshirishda katta ahamiyatga ega»[37,25-27].

Frazeologik birliklarni sinchiklab tahlil qilgan A. Mamatov ulardagi me'yoriy buzilishlar sifatida quyidagilarni sanab o'tadi:

1. Ma'no jihatdan buzilish. Bunda ma'nosiga mos kelmaydigan matnlarda qo'llash (Xotin kishi bo'lsayam b ye l i d a b ye l b o g' i b o r edi. O'. Hoshimov), pleonastik holatlar (Shuday qilganimda bormi, bechoralarning q a l b l a r i n i c h i l – c h i l s i n d i r a r k a n m u, k o' - n g i l l a r i n i v a y r o n q i l i b y u b o - r a r k a n m a n – d a . R.Fayziy), shu ma'noni beradigan so'z yoki so'z birikmasi bilan yonma-yon qo'llash (O'zingiz bilasiz, oyijon, men s i r k a m s u v k o' t a r m a y d i - g a n, i n -j i q bolaman. M. Ismoilijon) nazarda tutilgan.

2. Strukturasidagi buzilish. Bunda esa komponentlarning almashishi (kovushini to'g'rilamoq-qiyshiq kiygizmoq: K o v u s h i n i q i y s h i q k i y g i z i s h d a n toymaydi bularing. J.Abdullaxonov), strukturasining kengayishi (Ammo i c h i d a g i g' a z a b shu tobda mashinaning vaqqillagan suvidan ham besh battar q a y n a r e d i. L.Mahmudov), komponentlarning tushirib qoldirilishi (...dedi Usmonov a v v a l o' z i n g g a b o q degan ma'noda), komponentlar birlashtirilishi-kontominasiya (oq bo'yada o'tirib, q i p – q i z i l q a s a m i c h i b q o' y i b m a n. T. Tulum), butun matn bo'ylab sochilishi- antisipasiya (U y g a ketsam, o'rtoq Vahobov, harna, o' l a n to'shagim tuzuk. M.M. Do'st) kabi holatlar e'tiborga olingan[31,76].

Aytilgan ushbu fikr-mulohazalar talabalarga frazeologik birliklar me'yori haqida ma'lum tasavvur bera oladi.

Mustaqillik tufayli yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida tabiiy ravishda tilimizda ham juda ko'plab yangi so'z va iboralar, birikmalar paydo bo'layapti. Bu holatni asosan fan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar sohalarida, qisman maorif, madaniyat, san'at va badiiy adabiyot sohalarida kuzatamiz. Xalqimiz ularni qanday qabul qilishidan qat'iy nazar, tilshunoslar ularni qo'llashdagi har bir holatga o'z munosabatlarini bildirib borishlari, yuqorida aytib o'tganimizdek, me'yor sifatida tavsiya etilayotgan variantlarning nega shunday tarzda ma'qul ko'rilganligini ilmiy asoslab berishlari zarur bo'ladi.

2.3. FRAZEOLIGIZMLARNI USLUBIY QO'LLASH.

Uslubiy me'yor to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish ham filolog talabalar uchun muhimdir. Ammo bu me'yorning nozik tomonlarini tushunib olish adabiy til me'yori tizimidagi boshqa xususiy me'yornlarni anglashga nisbatan bir qadar og'ir kechadi. Buning sababini E.Begmatov shunday izohlagan edi : «Ma'lumki til sohalariga ko'ra normalar o'z materiali, ya'ni o'z til birliklariga egadir. Masalan, fonetik normalar – fonema, grafik normalar – grafema, morfologik normalar – morfema, leksik normalar – so'z (leksema), sintaktik normalar – so'z birikmasi, gap; so'z yasash normalari – yangi so'z va so'z formalari singari. Uslubiy normalarda ham mana shu kabi material, birikmalar bormi? Birinchi qarashda har bir uslub o'z mustaqil vositalariga egadek tuyuladi. Aslida esa bunday vositalarning yo'qligini ko'ramiz»[18,84].

Demak, o'zbek tili sohalaridagi me'yorni namoyon etuvchi til vositalarining uslubiy me'yor doirasida yaqqol ko'zga tashlanib turmasligi uni alohida me'yor sifatida tushunishimiz va fahmlashimizni qiyinlashtiradi. Lekin bu mushkullikdan qat'iy nazar uslubiy me'yor to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishimiz uchun uni adabiy til me'yornlari qatorida hisoblay olamizmi, u umumiy me'yor sirasidagi xususiy me'yornlarning bir ko'rinishi hisoblanadimi, agar hisoblansa, bu xususiy me'yornlar orasidagi mavqeyi qanday va uning o'zbek nutqi madaniyatining takomillashib boruvida xizmati nimadan iborat bo'ladi, degan savollarga javob topishimiz lozim bo'ladi.

Xo'sh, uslubiy me'yorning o'zi nima va uni qanday tushunishimiz kerak? Ma'lum bir nutqiy vaziyatda, u og'zaki va yozma bo'lishidan qat'iy nazar, so'zlovchi va yozuvchining o'z niyati va muddaosidan, nutq mavzusi va mazmunidan kelib chiqib, til birliklarini qo'llash, tanlab ishlatish imkoniyati uslubiyatni yuzaga keltiradi. Bu birliklarni tanlab ishlatishga bo'lgan so'zlovchi yoki yozuvchining individual ehtiyoji ularning o'z uslubini, agar kengroq doirada olib qaraladigan bo'lsa, ana shu elementlarni ijtimoiy hayotning ma'lum sohalarida qo'llash bu sohalarda tobora xoslana boradigan vazifaviy chegaralanganliklarni, binobarin, funksional – vazifaviy uslublarni keltirib chiqaradi. Yuqoridagi savollarga javob berib bo'lganimizdan so'ng masalaning ana shu jihatiga kengroq to'xtalamiz.

Angladikki, tildagi har bir vosita uslubning shakllanishi uchun material bo'la olishi mumkin. Boshqacha aytganda, nutqiy jarayonda har bir til birligi uslubiy vosita bo'la oladi. Ularning me'yoriy darajasini esa, xuddi boshqa til me'yornlarida bo'lgani singari, nutqiy jarayon va vaziyat belgilaydi.

Aytilganlarni uslubiy me'yorni anglashdagi birinchi bosqich deyish mumkin. Qisqa xulosa shu bo'ladiki, uslubiy me'yor deganda tildagi birliklarning har bir nutqiy mavzu va vaziyatga mos tarzda qo'llanilishi tushuniladi.

Navbatdagi bosqichda uni adabiy tilning umumiy me'yor doirasida xususiy me'yorlardan biri sifatida qarash-qaramaslik masalasiga aniqlik kiritilishi zarur bo'ladi. «Tilshunoslikda uslub tushunchasini nutq oldiga qo'yiluvchi mezon deb bilishdan ko'ra, uni tilning o'ziga, til normasiga tegishli hodisa deb baholash, shunga ko'ra uslubni ham xuddi konkret normalar kabi real normalarga tenglashtirish ustun turadi. Uslub bilan bog'liq real normalar uslubiy normalar deb yuritiladi. Uslubiy normalar keltirilgan ma'noda tilning fonetik, morfologik, talaffuz, orfografik, sintaktik normalari bilan bir qatorda qayd etiladi[18,78].

Olimning o'z mulohazalarini qanchalik ehtiyotkorlik bilan bildirayotganidan qat'iy nazar uslubiy me'yorni ham yuqorida sanab o'tilgan adabiy til me'yorlari qatorida hisoblashga asoslar bor. Faqat uning nutq jarayonidagina reallashuvini e'tibordan chetda qoldirmasak bas. Aslini olganda, yuqorida til me'yorlari sifatida e'tirof etilayotgan fonetik, talaffuz, orfografik, leksik yoki grammatik me'yorlarning qaysi biri nutqdan tashqarida shakllanadi? Savol shu tarzda qo'yilgandagina masalani tushunish birmuncha oydinlashadi.

Uslubiy me'yorning boshqa xususiy me'yorlar bilan umumiy, ayni paytda, farqli tomonlarini anglash ham muhim. Masalan, har bir til birligi, aytaylik, biron bir morfologik birlik ham morfologik, ham uslubiy me'yor uchun obyekt bo'lsa, ularni bir-biridan qanday farqlash mumkin? Masala shu tarzda qo'yilganda morfologik me'yoriy holatlarni aniqlashga qaraganda uslubiy me'yorlarni aniqlash anchagina mushkul ekanligi ma'lum bo'lib qoladi. Buning ustiga, qay holatda morfologik me'yor buzilganu, qay paytda uslubiy me'yor buzilayotganligini payqash ham oson kechmaydi. Qiyoslaymiz : ukamni kitobi, kitobni o'qimoq. Birinchi misolda morfologik me'yorning buzilganligi ko'rinib turibdi. Nutqda –ning va –ni kelishik qo'shimchalarining farqlanmasdan ishlatilishi oqibatida bu buzilish sodir bo'lmoqda. Farqlanmaslikning oqibati mana bu misolda yana ham aniq bilinadi: (Uni) ukamni uyida ko'rdim. (Uni) ukamning uyida ko'rdim. Ukamni (o'z) uyida ko'rdim. Ma'lum bo'layaptiki, morfologik me'yorning buzilishi ikkinchi navbatda uslubiy me'yorning buzilishiga, ya'ni fikrning noaniq ifoda etilishiga olib kelmoqda. Talab esa boshqacha. Nutqda kimni ko'rganlik aniq ifoda etilgan bo'lishi kerak : ukaning o'zinimi yoki uning uyida boshqa birovnimi?

Endi so'z qo'llash me'yoriga ham diqqat qilib ko'raylik. Zavqiyda shunday misralar bor : Yuzingni ko'rsatib avval o'zingga bandalar qilding misolidagi yuz so'zini uning sinonimlari bilan almashtirib ko'ramiz: J a- m o l i n g ko'rsatib avval..., R u x s o r i n g ko'rsatib avval... Yana: T u r q i n g n i ko'rsatib avval o'zingga bandalar qilding, B a s h a r a n g ko'rsatib avval... va hokazo. Garchi bir sinonimik qatorda joylashgan so'zlar misrada o'rni almashtirilib qo'llanilayotgan va bu so'zlarning leksik ma'no darajasi teng bo'lsa ham, ularning uslubiy qiymatini bir xil deb aytish mutlaqo mumkin emas. Hatto keyingi almashtirishlar tufayli ifodada mantiqsizlik ro'y bermoqda, uslubiy me'yor qo'pol ravishda buzilmoqda.

Tahlildan shu narsa ma'lum bo'ladiki, adabiy til doirasidagi har bir me'yoriy buzilish nutqiy ifoda va mazmunga, binobarin, uslub va til madaniyatiga ham salbiy ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi.

Aytilganlardan, uslubiy me'yor adabiy tilning boshqa xususiy me'yorlari bilan bir xil ekan-da, degan xulosa aslo kelib chiqmaydi. Nutqda boshqa me'yorlar buzilmasa ham uslubiy me'yorning buzilishini kuzatish mumkin : It - odamning do'sti. Odamning do'sti – it. Gaplarda so'zlarning o'rni va vazifasi almashgan bo'lsa ham, grammatik me'yor buzilgan emas. Ammo so'zlarning o'rni almashtirilishi bilan gapning mazmuni butunlay o'zgarib ketdi, binobarin uslubiy me'yor buzildi. Agar birinchi gapdan itning insonga vafodorligi, sadoqatli ekanligi anglashilayotgan bo'lsa, ikkinchi gapdan teskari ma'no tushuniladi. Mazmun o'zgarib ketib, umuman odam itga tenglashtiriladi.

Ko'rinadiki, adabiy tilning boshqa me'yorlari bilan uslubiy me'yor chambarchas aloqadorlikda, ayni paytda, ularning har biri o'zining alohida xususiyatlariga ham ega. Bu narsa uslubiy me'yorni o'zbek adabiy tili umumiy me'yoringing alohida – xususiy ko'rinishi sifatida qarashimizga asos bo'la oladi.

Uslubiy me'yorni adabiy til umumiy me'yoringing bir ko'rinishi ekanligini e'tirof etish bilan birgalikda uning boshqa xususiy me'yorlar bilan teng mavqyeda emasligini ham aytib o'tish lozim bo'ladi. Chunki uslubiy me'yorlar tilda belgilangan barcha xususiy me'yorlarning vazifaviy uslublarda matn talabi va manfaatidan kelib chiqib yashash shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham me'yor tahliliga oid adabiyotlarda uni har bir vazifaviy uslub doirasidagi fonetik, leksik-semantik va grammatik hodisalardagi me'yorlar va ularning matn uslubiga ta'siridan izlash kerak, degan fikrlar bayon qilinadi.

Ko'rinadiki, uslubiy me'yorni boshqa me'yorlardan farqli o'laroq, til me'yori deb atashdan ko'ra, nutq me'yori deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki uslubiy me'yorlarni matndan tashqaridagi biron bir holatda aniqlash mushkul ekanligi tahlillardan ayon bo'lib qolaveradi. Shuning uchun ham E.Begmatov uslubiy me'yorlarda adabiy me'yorga mos bo'lmagan holatlarning mavjudligini hisobga olib, uni «adabiy normaning til sohalariga ko'ra belgilanuvchi normalari bilan bir qatorda turishi mumkin emas»ligini ta'kidlaydi. «Uslubiy norma, - deydi u, - bu – adabiy norma, dialektal norma, sodda so'zlashuv normasi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin» (B y e g m a t o v E. va boshq. Yuqoridagi asar, 78-bet).

Demak, me'yor haqida gap ketgan paytda, avvalambor, adabiy til qonun-qoidalariga rioya qilishni anglar ekanmiz, adabiy tilning amalda bo'lish jabhasi keng ekanligini ham unutmasligimiz kerak. Ana shu keng jabhani vazifaviy uslublar ma'nosida bilsak, uslub va me'yor munosabatlarini tushunishimiz ham osonlashadi. Binobarin, uslubiy me'yorlar haqida

gap ketganda ularning vazifaviy uslublarda namoyon bo'lishi asosiy diqqat markazida turishi zarur.

Tildagi vazifaviy uslublarni dastlab nutq shakllariga – yozma va og'zaki nutq shakllariga bo'lish bu uslublarning faoliyat doirasi va qo'llanish ko'lamini aniqroq tasavvur qilishimizga ko'maklashadi. Bundan tashqari, qaysi uslubda bo'lmasin, nutqning yozma yoki og'zaki shaklda ifoda etilishi ma'lum ma'noda har bir uslubdagi me'yorlarning ham o'ziga xos ko'rinishlarda yuzaga kelishiga turtki bo'lishi mumkin. Masalan, birgina badiiy matnning janr ko'rinishlari sifatida roman yoki xalq dostonlarini olib qaraylik. Katta bir syujetga ega bo'lgan, yirik hajmdagi asarni maydonga keltirish uchun yozuvchi oylab, hatto yillab o'ylaydi, har bitta til birligini o'z joyiga qo'yish, ayni muddaosiga xizmat qildirish uchun bosh qotiradi. Binobarin, tildan foydalanishda aksariyat holda adabiy til me'yoring buzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Mobodo qo'yilganda ham bunda ma'lum bir badiiy-estetik maqsad ko'zda tutilgan yoki badiiy asarning yuzaga kelish talablariga itoat qilingan bo'ladi.

Og'zaki ijod namunasi bo'lgan dostonlar matnining shakllanishida esa boshqacha bir holatni kuzatamiz. Keyingi paytlarda o'zbek xalq og'zaki ijodiga tegishli bo'lgan dostonlarning barchasi yozma matn holiga keltirilgan bo'lsa ham, boringki dostonchi – baxshi uni yodlab olib, doston mazmunini yozma matn asosida hikoya qilayotgan bo'lsa ham, unda matnni ijodiy o'zlashtirish va bayon qilish erkinligi bor. Tabiiyki, bunday holatda adabiy me'yorning buzilishiga sharoit yaratiladi. Badiiy uslub doirasidagi o'tirib, o'ylab yozilgan she'r bilan badiha tarzda aytilgan she'rni taqqoslashimiz ham bu fikrni isbotlaydi. Badiha she'rlar janr sifatida mavjud bo'lsa-da, nihoyatda kam uchrashining sabablaridan biri ham aslida adabiy me'yorni buzib qo'yishdan qochishga intilish bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari biron-bir ilmiy materialning yozma bayonini u qanday bo'lsa, shundayligicha o'qib berish bilan bu matnning mazmunini og'zaki bayon qilish holatlarini ham taqqoslaylik. Yoki bo'lmasin televideniye eshittirishlaridagi, ayniqsa «Axborot» dasturidagi jurnalistlarning ma'lum bir voqyea-hodisa, yangiliklar to'g'risida xabar berish jarayonidagi avval o'zi kamera qarshisida turib erkin gapirishi va kadr orqasida turib, avvaldan tayyorlab qo'yilgan matnni o'qib berishi o'rtasida, garchi bu nutqning har ikkalasi bir muallifniki bo'lsa-da, birbirlaridan aynan me'yorga munosabatda farqlanishini kuzatamiz.

Aytilganlar shundan dalolat beradiki, me'yorni vazifaviy uslublarda doirasida o'rganish jarayonida ularning yozma va og'zaki shakllarini e'tibordan qochirib bo'lmaydi. Me'yoriy buzilishlar asosan vazifaviy uslub materiallarining og'zaki ifodasida ko'proq kuzatiladi. Bu esa, o'z navbatida yozma nutqqa nisbatan og'zaki nutqning o'zbek tilida talablar darajasida takomillashmaganidan dalolat beradi.

Uslubiy me'yorlar chegarasini belgilashda mana bunday mulohazalarga ham duch kelamiz : «uslub – bu umumiy normaning individual tatbiqidir» (B y e g m a t o v E. va boshq. Adabiy norma va nutq madaniyati, 83-bet) Bu fikrni ikki xil ma'noda tushunishimiz mumkin. Birinchidan, til vositalarining har bir vazifaviy uslub doirasida qo'llanilishidan kelib chiqib belgilanadigan me'yor bo'lsa, ikkinchidan, har bir individ (shaxs)ning tildan foydalanishdagi me'yori.

Ma'lumki, odamning shaxs, inson sifatida shakllanishida qator omillar bilan birgalikda tildan foydalanishdagi o'ziga xosligi ham hisobga olinadi. Chunki ona tilidan foydalanish mahorati uning ko'pgina fazilatlarini o'zida mujassam qiladi. Garchi ma'lum tildan foydalanuvchilar uchun bu tilning adabiy me'yorlaridan foydalanish talab qilinsa-da, o'zi tarbiyalangan ijtimoiy muhitning ta'sirida unda tabiiy ravishda o'z me'yorlari ham shakllanadi. Xuddi tabiatda bir narsa ikkinchisiga aynan o'xshash bo'lmagani singari bir kishining nutqi ikkinchi bir kishinikiga aynan o'xshashi yoki ularning adabiy til me'yorlariga bir xilda rioya qilishi amalda qiyin bo'ladi. Shunga qaramasdan, umumadabiy til madaniyatiga bo'lgan intilish bu me'yorlarga amal qilishni taqozo etadi. Har bir inson yoki millat madaniyatining tobora yuksala borishi uning bu borada ham mukammallashib borishiga olib keladi.

Masalaning ikkinchi tomoni esa har bir millat hayotida ijtimoiy munosabatlarning, faoliyat sohalarining shakllana va kengaya borishi, binobarin, bu yo'nalishlarda tildan foydalanishning o'ziga xos usullari shakllanishi, buning natijasida til elementlarning ana shu sohalar va yo'nalishlararo taqsimlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Oqibatda ularda tildan foydalanishda o'ziga xos uslublar vujudga keladi. Jamiyat taraqqiy eta borgan sari bu uslublarning miqdori, undagi chegaralanishlar tilning barcha sathlari bo'yicha tobora oydinlashib boraveradi.

Turmush sharoitiga, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy taraqqiyot darajasiga ko'ra, tilning qanchalik rivojlanganligi va undan foydalanish madaniyatiga qarab turli tillarda vazifaviy uslublar miqdori turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, tadqiqotchilar tomonidan ularning soni adigey tillarida uchta deb ko'rsatilsa.

Hozirgi o'zbek adabiy tili vazifaviy uslublari miqdori va tasnifi haqida ham turlicha qarashlar mavjud. A. Sulaymonovning «Til stillari haqida» nomli maqolasi ana shu masalaga oydinlik kiritish yo'lidagi dastlabki urinishlardan biridir. Muallifning «Stilistikaning vazifasi u yoki bu stilda yoki nutq formasida, ya'ni og'zaki va yozma nutqda, qanday til hodisalari ko'proq qo'llanishini aniqlashdan iboratdir» (S u l a y m o n o v A. Til stillari haqida // Sovet maktabi, 1964, №6, 21-23-betlar) degan gaplaridan tushunish mumkinki, u til yoki nutq stillarini yozma va og'zaki – so'zlashuv uslublariga ajratgan. Ў. Abdurahmonov tasnifida ham ana shu fikr yetakchi o'rinda turadi: «Ma'lumki, nutq ikki xil (yozma va og'zaki) nutqdan iborat.

Yozma nutq: 1) badiiy nutq, 2) ilmiy nutq, 3) publisistik nutq, 4) rasmiy nutq, 5) neytral nutqdan iboratdir (Bu nutq turlari ayrim adabiyotlarda stilistik qatlamlar sifatida talqin qilinadi).

Og'zaki nutq esa turli ijtimoiy qatlamlarning nutqlaridan, turli sheva nutqlaridan tashkil topadi.

Nutq stili bo'lsa quyidagi qatlamlardan iborat bo'ladi: 1) neytral stil, 2) tantanali stil, 3) intim stil, 4) yumoristik stil va satirik stil, 5) rasmiy stil.

Nutqda (xoh yozma, xoh og'zaki bo'lsin) bu stil qatlamlari aralashib keladi, nutq janriga ko'ra biror stilistik qatlam yetakchi, asos bo'ladi» (A b d u r a h m o n o v Ъ. Stilistik normalar haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1969, № 6, 51-bet).

I. Qo'chqortoyev bu masalaga ancha ehtiyotkorlik bilan yondoshadi: «O'zbek adabiy tilining stilistik ixtisoslashuvi, uning funksional uslublari ilmda ham qat'iy chegaralab berilgan emas. – deydi u. – Shuning uchun bu masala yuzasidan hozircha aniq, izchil bir fikr aytish qiyin, albatta. Lekin o'zbek adabiy tili doirasida badiiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy uslublarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni bir-biridan farqlaydigan belgilar ma'lum darajada aniq sezilib turadi» (Q o' ch q o r t o y e v I. Adabiy tilning stilistik tabaqalanishi va nutq madaniyati // «Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami. – Toshkent, 1973, 110-bet).

Vazifaviy uslublar tasnifi masalasiga oid fikrlar S. Muhamedov tomonidan ham aytilgan (M u h a m y e d o v S. O'zbek tili funksional stillarini belgilash to'g'risida // O'zbek tili va adabiyoti, 1983, № 4, 58-bet).

Xar bir tilda faqat shu tilgagina xos barqror so'z birikmalari mavjud bo'lib, ularning ma'nosi umumiy umumiy so'z birikmalari ma'nosida kuchliroq bo'ladi. Bular frazeologik birikmalardir. Frazeologik birikmalarning asosiy hususiyatlaridan biri ularning turg'unligida, ya'ni barqrorligida, boshqacha qilib aytganda, birikmaning semantic birligidadir. Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq. Qordan qutulib yomg'irga tutilmoq. It goes without saying, so much, well begun is half done, better late than never. Frazeologik birikmalar o'zi tegishli bo'lgan tilning boyligi sanaladi. Ular nutqda tayyor til birligi tarzida qo'llaniladi, ko'chiriladi. Ma'lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ustama ko'chma frazeologik ma'no deyiladi. Masalan “til tegizmoq” iborasi “sha'niga nomunosib gap aytmoq” degan ma'noni beradi.

Frazeologizmlar mohiyat e'tibori bilan asosan so'zlashuv va badiiy nutq mevasidir. Ulardagi boshqa uslubga xos chegaralanishlar esa ma'lum muddat keyin yuzaga keladi. Masalan, birgina o'lmoq ma'nosini anglatadigan yuzga yaqin frazeologizmlar sinonimik qatorining paydo bo'lishi ularning vazifaviy chegaralanish imkoniyatini tug'diradi. Masalan bu tizimga kiradigan olamdan o'tmoq, dunyodan o'tmoq, omonatini topshirmoq, qulog'i ostida qolmoq, jon bermoq shakllari so'zlashuv uslubida ishlatilsa, vafot etmoq, hayotdan ko'z yummoq, dunyodan ko'z yummoq, hayot bilan vidolashmoq kabilar ilmiy, ommabop va rasmiy uslublarda uchraydi. Alloh

rahmatiga yo'l tutmoq, shahodat sharobini ichmoq, dorilfanodan dorilbaqoga rixlat qilmoq singarilar esa badiiy matnga tegishlidir.

Agar badiiy adabiyotda, xususan she'riyatda ishlatilib kelinayotgan eskirgan so'zlarni bu uslubning muhim lisoniy alomatlaridan deb hisoblash mumkin bo'lsa, dialektizmlarning ishlatilishi adabiy til me'yoriga muvofiq kelmaydi.

Kichik bir xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, badiiy uslubda adabiy til boyliklaridan foydalanibgina qolinmasdan, undagi ko'plab birliklarning tilda me'yorlashuviga, adabiy tilning boyib, rivojlanib borishiga doimiy ravishda ta'sir o'tkazib turadi.

XULOSA

Barkamol avlod yilining mantiqiy izchil davomi sifatida 2012-yilning «mustahkam oila yili» yili deb eʼlon qilinishi, sogʻlom avlodni voyaga yetkazish borasidagi chora tadbirlarni yanada kuchaytirish, intellektual salohiyatga ega avlodni tarbiyalash bilan bogʻliq masalalar yuzasidan targʻibot ishlarini jonlantirish va kuchaytirish naqadar dolzarbligini taʼkidlamoqda. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish uchun dasturi amal qilib olgan xalqimiz oʻz milliy, tarixiy, maʼnaviy va diniy anʼanalari, urf-opdatlarini saqlab, ayni paytda dunyodagi yangi ilgʻor tajribalarini oʻrganib, 20 yil mobaynida yaratish va bunyodkorlik yoʻlidan qatʼiy bormoqda. Mustaqilligimiz, milliy davlatchiligimizning meʼmori, diyorumizdagi barcha buyuk oʻzgarishlarning tashabbuskori boʻlgan yurtboshimiz Islom Karimov rahnamoligida xalqimiz buyuk kelajak yoʻlida dunyodagi manaman degan millatlarga ham koʻpgina masalalarda oʻrnak boʻlib, oʻzining eng yangi tarixi zarvaraqlariga yangi-yangi yutuq va marralarni zarhal harflar bilan yozib kelmoqda. Nega deganda, biz buyuk davlat va millat vorislarimiz, shunga munosib tarzda buyuk davlat quramiz va bugungi buyuk millatlar qatoridan mustahkam oʻrin olishimiz muqarrar.

Mustaqil vatanimiz bosib oʻtgan 20 yil, tarixan qisqa muddat boʻlishiga qaramay, xalqimiz, millatimiz va davlatimiz taqdirida beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz hayotining biror bir jabhasi yoʻqki, unda mustaqillikning oʻrni, ahamiyati va shukhi sezilmasaya, jamiyatimizning birtor bir aʼzosi yoʻqki, uning hayotida istiqlolning ijobiy samarasi, hayotbaxsh taʼsiri iz qoldirmagan boʻlsa. Binobarin, mustaqillik biz uchun shu qisqa muddatda bugungi tinch va osuda hayotimiz, toʻkin va farovon dasturxonimiz, xalqaro maydondagi nufuz va eʼtiborimizning bosh meʼzoniga aylandi. Ushbu gʻurur va iftixor tuygʻusi esa uning qoʻlga kiritilishi va mustahkamlanishiga barchamiz va har birimizning daxldor ekanligimiz bilan yanada teran, yanada maʼnodor va yanada begʻubordir.

Mamlakatimizda qabul qilingan muhim ijtimoiy dasturlar, jumladan, «Barkamol avlod yili» davlat dasturining ijobiy samaralarini yosh avlod taʼlim-tarbiyasi, ularning ham maʼnaviy, ham jismoniy sogʻlom boʻlib kamol topayotganini aniq va taʼsirchan hayotiy misollar yordamida yoritib berdi.

Yuqorida aytib oʻtilgan fikrlarning davomi sifatida bitiruv malakaviy ishimdagi koʻzda tutilgan barcha masalalar toʻliq yoritib berildi. Men shulardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan boʻlsam, «Ingliz va oʻzbek tillarida leksik va frazeologik birliklarni soʻzlashuv uslubida ishlatilishini ifodalab berishga harakat qildim. Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, ushbu ishda olib borilgan izlanish natijalarida ingliz badiiy matnlarida shaxs olmoshining tutgan oʻrni

ko'rsatish olmoshi muammosining to'liq qilmasdan, ba'lki ushbu til hodisasini o'rganishni bundan keyingi yo'llarini belgilash imkonini yaratadi.

Bundan tashqari kelajakda bu izlanishimiz deskurs matnlarini deydik holatini o'rganishda yordam beradi degan umiddaman.

Badiiy matnda shaxs deysis holatlarini yaxlik xususiyatlarini ifodalashda, shaxsni yoritib berishda ko'rsatish va kishilik olmoshlari predmet va voqea-hodisalarning ularga xos bo'lgan barcha xususiyatlar yaxliyligida ifodalab, bayonning aniqligiga ziyon yatkazmasdan, mazmunini saqlagan holda, fikrni qisqaroq ifodalashni ta'minlaydi. Muayyan kontekstda bu olmoshlar tasvirlanayotgan dalillarga tegishli munosabatini aks ettirib, nutqiy tuzilmaga o'ziga xos strukturani beradi. Boshqacha qilib aytganda, fikrni tejamli va aniq bayon qilishda, xabarning eng muhim o'rinlarini faollashtirishga imkon yaratadi, ya'ni muallifning sintagmatik ta'sirga erishishiga qaratilgan maqsadini amalga oshirishga sharoyid tug'diradi.

Muallif munosabati uning tomonidan matnni qay tarzda qismlarga bo'lishda, yangi fikrni kiritishda, bayonni ketma-ketlik berishda namoyon bo'ladi. Matn yaratuvchi uzatilayotgan axborot mazmunini o'z talqini asosida yaratadi va ko'rgazmaslikni turli vositalari yordamida u yoki bu dalillarni ajratib ko'rsatib, muayyan sintagmatik maqsadni nazarga tutgan holda lisoniy materialni tanlaydi. Shunday qilib, ingliz badiiy matn qurilishi, deysis tizimining umumiy qonuniyatlariga javob berishi bilan bir qatorda unda o'ziga xos uslubiy xususiyatlar ham o'z aksini topadi. Bunday o'ziga xoslik nafaqat uslub talabi bo'lmasdan, balki ingliz tili tizimining «ichki» tuzilish, lug'aviy va grammatik vositalarining ifoda imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lishini o'z izlanishimizda isbotlashga harakat qildik.

Biz o'ylaymizki kelajakda bu izlanishimiz, yosh yetilib kelayotgan kadrlarga imkon darajasida badiiy yo'nalishlar va izlanishlarning muhim bir vositasi bo'ladi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda 18/75-sonli qarori, Xalq so'zi.
2. Karimov I. A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent «O'zbekiston» 2000 y.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent «O'zbekiston» 1998 y.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent «O'zbekiston» 2008 y.
5. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. – Toshkent, 1984.
6. Xayrullayev M., Haqbyerdiyev M. Mantiq. – Toshkent, 1993.
7. Qurbonov T.I. Hozirgi o'zbek adabiy tilining publisistik stili. ND. -Toshkent, 1987.
8. Qo'ng'urov R., Karimov S., Qurbonov T. O'zbek tilining funksional stillari.- Samarqand, 1984.
9. O'zbek tili stilistikasidan ocherklar.- Samarqand,1975.
10. Grammatik stilistika, O'zbek filologiyasi. – Samarqand, 1976.
11. Stilistika imeni sushestvitelnogo v uzbekskom yazike. – Tashkent, 1983.
12. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. – Toshkent,1980.
13. Semantiko-stilisticheskiye osoben nosti formoobrazuyushix morfem imeni sushyestvitelnogo v uzbekskom yazike: Avtoref.dis. ...d-ra filol nauk. – Baku,1982.
14. O'zbek tili stilistikasi (hammualliflikda). – Toshkent,1983.
Qo'ng'urov Sifat stilistikasi // O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari. - Samarqand, 1982;Olmosh stilistikasiga oid ayrim mulohazalar// O'zbek tili stilikasidan kuzatishlar. –Samarqand, 1981.
15. K a r i m o v S. O'zbek tilining badiiy uslubi.- Samarqand, 1992.
16. B y e g m a t o v E. O'zbek tili leksikologiyasi.
17. A.Hojiyev «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» Toshkent, 1974
18. O' r i n b o y e v B. Funksional uslubiyat va uning mohiyati. - Toshkent: Fan, 1992.
19. O' r i n b o y e v B. O'zbek so'zlashuv nutqi masalalari. DD. – Toshkent, 1974.
20. M u k a r r a m o v M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy uslubi semantik-funksional aspektda. DD. – Toshkent, 1985; K a r i m o v S.A. O'zbek tilining badiiy uslubi. DD. – Toshkent, 1994;
21. B o b o x o n o v a D.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining rasmiy-ish uslubi, ND. – Toshkent, 1978;
22. Q u r b o n o v T.I. Hozirgi o'zbek adabiy tilining publisistik uslubi. ND – Toshkent, 1987
23. S h o m a q s u d o v A. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1983

24. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Б., 1999.
25. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Т., 1978.
26. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. Т., 1966.
27. А х м а н о в а О.С. Slovar lingvisticheskix terminov. – М., 1961.
28. G o r b a c h y e v i c h К.С. Izmeneniye norm russkogo literaturnogo yazyka.- L., 1971
29. М а м а - т о в А.Е. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari.- Toshkent, 1991
30. R o z y e n t a l D.E. Prakticheskaya stilistika russkogo yazyka. - М, 1974
31. А l i y e v А. Yu. O'zbekiston jumhuriyatining davlat tili haqidagi qonun va o'zbek tili nutq madaniyati // «O'zbek nutqi madaniyatining dolzarb muammolari» to'plami. - Toshkent, 1990
32. Sh o a b d u r a h m o n o v Sh. O'zbek adabiy tilining leksik normalari// «Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami - Toshkent: Fan, 1973
33. A z i z o v S. O'zbek tilining fizkultura va sportga oid terminologiyasidagi har xilliklar // Ilmiy-amaliy konferensiya tezlari. – Navoiy, 1993
34. B a f o y e v B. Navoiy asarlari tilida so'z varianti va adabiy norma // O'zbek tili va adabiyoti, 1988, 1-son
35. <http://www.discourse-analysis.com/pages/deixis//2003.html>.
36. <http://w.w.w.discourse-analysis.com/pages/anaphora/2005.html>.